

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI INGLIZ TILI BO`LIMI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Mavzu: “Tarjimada xarakterni qayta yaratish san’ati”
(Ernest Xemingueyning o’zbekchaga tarjima qilingan badiiy asarlari asosida)

Ilmiy rahbar:

Akhmedova M.B.

Magistrant:

Shukurova Nigina

2011

Reja:

KIRISH

I BOB. ERNEST XEMINGUEY- BUYUK AMERIKA YOZUVCHISI.

I.1. Ernest Xeminguey hayoti va ijodi.

I.2. Yozuvchining tili va uslubi.

I.3. Ernest Xeminguey asarlarida urush mavzusining aks ettirilishi.

I bob xulosasi

II BOB. TARJIMA-XALQLAR DO'STLIGI QUROLI.

II.1. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida tarjima asarlarining o'rni

II.2. 70- yillar tarjimachiligiga bir nazar.

II bob xulosasi

III BOB. TARJIMADA XARAKTERNI QAYTA YARATISH SAN'ATI.

III.1. "Chol va dengiz" asarini milliy tilga o'girishda tarjimon mahorati.

III.2. "Alvido, qurol!" tarjimasida tarjimonning xarakterlarni qayta yaratish san'ati.

III bob xulosasi

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Tarjimasiz faqat o'z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo'lmagan sof millat, tiniq madaniyat, abadiy o'zgarmas toza til yo'q. Agar tarjima bo'lmaganda milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va sana't obidalari bir-birlari bilan abadiy uchrashmaydigan qoyalar va inson oyog'i yetmaydigan orollar shaklida yakkalanib qolgan bo'lar edi. Tarjima internatsionalizm va xalqlar do'stligi quroli. Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadilar. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qarasaq u erda katta tarjima namunalarini ko'rishimiz va undan bahramand bo'lishimiz mumkin.

Ma'lumki o'zbek adabiyoti, xususan, tarjimachilik keyingi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Tarjimachilik o'zbek adabiyotining rivojlanishidagi omillaridan biri bo'lib qoladi. Tarjimashunos olim filologiya fanlari doktori, professor Jumaniyoz Sharipov ta'biri bilan aytganda, " Har bir xalqning adabiyoti xazinasida ikki oltin fond bor. Biri shu xalqning o'zi yaratgan asarlar bo'lsa, ikkinchisi boshqa xalqlar adabiyotidan qilayotgan tarjima asarlaridir. " Har ikkovi ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Prezidentimiz Islom Karimov ham yoshlar til o'rganish va boshqa adabiyot namunalaridan bahramand bo'lishi kerakligini o'zlarining nutqlarida va asarlarida ham ta'kidlab o'tadilar. Mustaqil O'zbekiston xar tomonlama yetuk, jahon andozalariga mos yosh kadrlarga muhtoj.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida hayotning barcha sohalari-fan, madaniyat, ishlab chiqarish bo'yicha halqaro aloqalarning rivojlanishi va kengayishi mutaxassisning xorijiy tilni bilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Xorijiy til esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va umum-madaniyat

taraqqiyotining amaliy oshishi, til tayyorgarligi uzluksiz ta'limning , uni xalqchillashtirishning muhim qismi bo'lib qoladi.¹

Ma'lumki, mamlakatimizda G'arbiy Ovrupo (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, urdu, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ayniqsa, jahonning yetakchi tillaridan biri sanalgan ingliz tiliga bo'lgan qiziqish xalqimiz orasida kundan-kunga ortib bormoqda. Bilamizki, tarjima -bu millatlarni bir-biri bog'lovchi, boshqa xalqlar madaniyati va xayotini boshqa tilde namoyon etuvchi vosita, qurolidir. Aynan til orqali o'rganmoqchi bo'lgan mamlakatimiz madaniyati, ijtimoiy hayoti va adabiyoti haqida keng ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Badiiy asar, garchi u real hayotdan olingan bir parcha bo'lsa-da, unda aks ettirilgan davlat, muhim va o'sha joyning madaniyati hamda ijtimoiy ahvoli haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Ernest Xeminguey asarlari chuqur g'oyaviy mazmuni bilan ajralib turadi. Ularda ko'tarilgan turli muammolar hozirgi kunga qadar dolzarb deb bilinadi va shu sababli kitobxonlar qo'lidan tushmay kelmoqda.

Tarjima adabiyotda o'zining mustahkam o'rniga ega. Tarjimon mahorati uning asar avtorining g'oyalarini , xarakterlar tasvirini yorqin o'qiy olganligida va kitobxonga shu asarni o'z tilida o'qish baxtini berganligida.

Ernest Xeminguey Amerika adabiyotida o'zining soda tili, oddiy uslubi va mavzular ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham uning asarlari dunyo tillarining 50ga yaqiniga tarjima qilingan. Yozuvchining asosiy tanlagan mavzusi urush davri, chunki E. Xeminguey urush davri daxshatlariga o'zi guvoh bo'lgan , real hayot tasvirlangan asar esa kitobxonning yuragiga tez yetib borishi aniq. XX asrga kelib muallifning naqadar bebaho meros qoldirganligi olimlar tomonidan tan olindi, "Chol va Dengiz" asari Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

¹"Ta'lim taraqqiyoti" O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligining axborotnomasi. 5-maxsus son. "Sharq" T. 1999, 46-bet.

I.G'ofurov 70-yillar tarjima maktabining yorqin vakili sifatida Xeminguey muxlislariga uning nodir durdonalarini yetkazishga o'zining katta xissasini qo'shdi. Mavzuning dolarbliigi yosh tarjimonlarga va filologlarga tarjimonning xarakterlarni qayta yaratishda qo'llagan uslublarini tahlil qilib, ko'rsatishdir.

Ishning umumiy tavsifi. Ma'lumki, Amerika adabiyoti rivojida Ernest Xemingueyning o'rni juda mashhur. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida biz Ernest Xeminguey xayoti va ijodi, adabiy faoliyati bilan bir qatorda uning tarjima asarlarida xarakterlarning qayta yaratilishi va tarjimachilikning O'zbekistondagi rivoji haqida yoritishga harakat qildik.

Mavzuning yangiligi. Ishda Ernest Xemingueyning xayoti va ijodi, tili va uslubi, urush mavzusi tasviridan tashqari, 70-yillar o'zbek tarjimachiligi va tarjimaning adabiyotda tutgan o'rni haqida yoritilgan. Ishning yangiligi esa tarjimonning qahramonlarni qayta yaratishda qo'llagan uslublari misollar asosida tahlil qilingan.

Ishning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasini yozishdan asosiy maqsad Ernest Xeminguey hayoti va ijodini atroflicha o'rganib chiqish. Asosiysi esa, muallifning ikki buyuk romani "Chol va dengiz", "Alvido, qurol" romanlari tarjimasi tahlili. Ilmiy ishni yozishda maqsadni to'la yoritish uchun bir qator vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

-Eng avvalo, yozuvchi romanni yozish paytidagi muhit, ya'ni, Amerika adabiyotida XVIII asr oxiri- XIX asrda urush davri manzaralarining yoritilishini o'rganish;

-Ernest Xeminguey hayoti va ijodi, yozgan asarlari va ularning Amerika va Jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida;

-“Chol va dengiz”, “Alvido, qurol!” asarlarining yozilish tarixi, syujeti, asarda urush mavzusining yoritilishi;

-O'zbek adabiyotida tarjimachilikning boshlanish, uning oqimlari va tarjima nazariyasi haqida ma'lumot berish ;

-I.G'ofurovning tarjimonlik mahorati va uning tarjimada xarakterlarni qayta yaratish san'ati haqida tahlil olib borish;

-O'zbek va rus tillaridagi tarjimalarni original nusxa bilan solishtirib, milliylik ruhining tarjimada singdirilishi haqida xulosaga kelish

Ishda ana shu maqsad va vazifalar asosida romanlardan keltirilgan parchalar vositasida asosiy mavzuni yoritishga harakat qildik.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Ernest Xemingueyning "Chol va Dengiz", "Alvido,qurol!" romanlarining original, o'zbek va rus tillaridagi tarjima nusxalaridan foydalandik.

Ilmiy ishning metodologik asosi va tadqiq usuli. Ilmiy ishni yozishda bir qator ilmiy asarlar va maqolalar metodologik asos bo'lib xizmat qildi. I.G'afurov "Yonar so'z" ,Sulaymonov.R.S "Badiiy tarjima va qiyosit stilistika" ,Aznaurov. E.S "Translation", M Rasuliy " Tarjima sana'ti" o'zbek adabiyotidan rus tiliga qilingan tarjimalariga nazar, A.Ismoilov "Tarjima sana'ti" ,Sharipov Jumaniyoz "Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar",Salomov G'aybullo "Til va tarjima" ,Salomov G'. "Tarjima nazariyasiga kirish" ,Rossels.V.L "Tarjima sana'ti" ,A.Qahhor " Tarjimachilik tashvishlari", " Masterstvo perevoda" maqolalar to'plamining barcha sonlaridan foydalanildi.Bu ma'lumotlarning barisidan foydalangan holda tadqiqotni olib borishga va mavzuni yoritishga harakat qildik.

Bundan tashqari , yana bir qator jahon va Amerika adabiyotiga oid asarlarni ham asos sifatida ko'rsatish mumkin. Ular sirasiga "Chet el adabiyoti tarixi" L.Qayumov va boshqalarning, Denis Delaney "Fields of Vision" kitoblaridan ham tadqiqot olib borish jarayonida unumli foydalandik. Ishning tadqiq usuli-tarjima tahlili.

Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik dissertatsiyasidan tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti,chet el adabiyoti fanlarida information manba

sifatida, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik fanlarida amaliy manba sifatida foydalanish mumkin.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ernest Xeminguey ijodi , uning asarlari tahlili ustida juda ko'p olimlar ish olib borgan.Ular qatoriga amerika olimlaridan Maykl Reynolds, Robert Trogdon, Larri Filips,Mandel Mirriam va boshqalarni kiritish mumkin.Uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan, xususan , o'zbek tiliga I.G'afurov tarjimasi juda katta ahamiyatga ega.

Tarjima asarlari tahlili bilan esa G'.Salomov,Xamroyev Yo.X., Sulaymonov R.S. va boshqalar shug'ullanishgan.

Mavzuning tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, yetti fasl, xar bir bob xulosasi, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish Times New Roman 14 shriftda, 1,5 interval bilan yozildi.

I BOB. ERNEST XEMINGUEY- BUYUK AMERIKA YOZUVCHISI.

1.2 Ernest Xemingueyning ijodi va unda davr ruhining aks ettirilishi.

Ernest Xeminguey Amerikaning Illinois shtatida dunyoga keldi. U Oak Parkdagi umumiy maktablardan birida taxsil olib, dastlabki hikoyalari va she'rlarini shu maktab gazetasiga chop etdi. 1917 yilda maktabni tamomlagach, Kansas shahri yulduzi (The Kansas City Star) gazetasida 6 oy journalist sifatida ishladi. U keyinchalik Birinchi jahon urushi davrida Italiya tez yordamda ko'ngillilar safiga qo'shildi. 1918 yilda u oyog'idan yaralandi. Uning xizmatlari uchun Xeminguey Italiya xukumati tomonidan 2 marta mukofotlangan. Oyog'idan yaralangan yozuvchi kasalxonadalgida Amerikalik xamshira Agnes von Kurovskiyning fojeali muhabbatidan ta'sirlanib, 1929 yilda "Alvido, qurol!" romanini yozdi. Fojeali muhabbat qissasi 1932 yilda birinchi bor sahna yuzini ko'rdi va unda mashhur yulduzlar Gari Koper, Helen Heyes, Adolf Menjoular rol o'ynadilar.

Urushdan keyin Xeminguey qisqa vaqt Chikagoda jurnalistlik qildi. 1921 yilda u Toronto Yulduzi gazetasida muhbirlik qilish uchun Parijga keldi. Uning fikricha: "Yoshlik chog'ida Parijda yashagan inson yetarli darajada baxtlidir. Xayotingizning qolgan qismida qayerga borsangiz xam bu xotiralar siz bilan abadiy yashaydi." (A Moveable Feast 1964), Evropada zamonaviy harakatlar markazida Xeminguey Gertrude Stein va F. Skott Fitzgeraldlar bilan uchrashdi, ular uning maqolalarini bosishdi va uning agenti sifatida ish olib borishdi. Xeminguey gazeta va ishidan bo'sh paytida turmush o'rtog'i bilan Fransiya, Shvetsariya, Italiyaga sayohat qildi, 1922 yilda u Gretsiya va Turkiyaga ikki davlat orasida bo'layotgan urushda muhbir bo'lib bordi. 1923 yilda Xeminguey ikki marta Ispaniyaga Pamplona festivaliga sayohat qildi. Xemingueyning birinchi kitobi "Uch hikoya va o'n she'r" (THREE STORIES AND TEN POEMS (1923)) unga xech qanday shuhrat keltirmadi. "Bizning davrimizda" (IN OUR TIME (1924)) kitobi Parijda bosib chiqarildi. "Bahor oqimlari" (THE TORRENTS OF SPRING) 1926 yilda paydo bo'ldi va Xemingueyning birinchi jiddiy asari "Quyosh yana ko'tariladi" (THE SUN ALSO RISES) xam xuddi

shu yilda yaratildi. Amerika jurnalistining bu asari Fransiya va Ispaniyada Birinchi Jahon urushida xalok bo'lgan ajdodlar haqidadir. Asosiy qahramonlar Brett Ashley xonim va Jek Barnes. Brett xonim urushda yaralangan va uning orzularini ro'yobga chiqara olmaydigan Jekni yaxshi ko'radi. Garchi Xeminguey Jekning yaralangani haqida ma'lumot bermagan bo'lsa-da, Evropa, Madrid, Parij, Pampalonada bo'lib, uning xayotini ichkilik, bosqinchilik va jinsiy aloqa bilan xarob qilganligini tasvirlaydi. Xikoya achchiq xaqiqat bilan yakun topadi: "Eh, Jek, biz sen bilan birgalikda juda yaxshi vaqt o'tkazgan bo'lardik."-deydi Brett. Xeminguey 1924 va 1926 yillarda asarni Ispaniya va Fransiyada qayta nashr ettirdi va bu uning birinchi muvaffaqiyati edi. Garchi Xeminguey tili juda sodda bo'lsa-da, u juda tushunarli va tushunchalarga boy edi. "Ayollarsiz erkaklar"(MEN WITHOUT WOMEN (1927)) asarini bosib chiqargandan keyin , Xeminguey AQSH , Floridaga qaytadi .1929 yilda Floridada u "Alvido, qurol!" (Farewell to Arms) asarini yozdi. Uning asosiy sahnasi Birinchi Jahon urushi davridagi Italiya frontida bo'lib, unda ikki yoshning qisqa baxti tasvirlanadi. Bu asar yozuvchiga katta iqtisodiy muvaffaqiyat keltirdi. " Daryo bo'ylab va daraxtlar orasiga " (Across the River and into the Trees) asari Xemingueyning oxirgi o'n yilligidagi birinchi kitobi edi va unga qiziqish ortmadi, ammo "Chol va Dengiz" (The Old Man and the Sea) asari 1952 yilda birinchi bor Life jurnalida bosilib chiqdi va yozuvchining shuhratini qayta tikladi. Asar bosh qahramoni Kubalik baliqchi Santiago bo'lib, u xaftalab dengiz bo'ylab qilgan sayohatida xayoti davomida eng katta baliqni tutadi , ammo akula baliqni yeb ketadi va qayiqni ag'daradi. Santiago obrazi 2002 yil yanvar oyida 104 yoshida vafot etgan Kubalik baliqchi Gregorio Fuentesdan olingan.Fuentes Xemingueyning Pilar qayig'ida 1930 yillarda qayiqchilik va baliqchilik qilgan.

1917- yilning bahorida Ernest maktabni bitiradi. Bu vaqtga kelib AQSH birinchi jahon urushiga qatnashayotgan edi va Xeminguey urushga qatnashishga jon-jahdi bilan kirishadi. Biroq uni armiyaga qabul qilishmaydi, chunki ko'zi lat egandi, ammo

Xeminguey uyda o'tirishni xoxlamaydi – u Ouk Park shaharchasidan tezroq qutilish va mustaqil hayot boshlash orzusida edi.

Xeminguey Kanzas –sitiga ko'chib keladi va "Kanzas relli star" gazetasida muxbir bo'lib ishlaydi. U erda Xeminguey o'zining jurnalistik tajribasini o'taydi. Ammo urushga qatnashish fikri unit ark etmadi va 1918-yilda avtomobil bo'linmasiga haydovchi bo'lib yollandi va Italiyaga borib italyan – avstriya frontiga joylashadi. Afsuski, u frontda ko'p vaqt bo'lmaydi. 1918-yilning 8- iyunida do'stini qutqarayotgan paytda, ikkala oyog'idan qattiq yaralanadi. "Kasalxonada u oylab yotadi va birin – ketin operasiya qilinadi. Shu jarohati tufayli Xeminguey 12 marotaba operasiya qilinadi."¹

1919-yilning yanvar oyida u uyiga qaytadi, lekin tezda Kanadaning Toronto shahriga yo'l oladi, u erda Xeminguey "Star uikli" gazetasining muxbiri bo'lib ishlaydi. Ikki yildan so'ng xotini Xedli bilan Toronto gazetasining evropalik muxbiri sifatida Parijga boradi. 1921-yilda Parijda muxbirlik faoliyatini boshlaydi. Jurnalistik faoliti juda o'tkir edi, amerikaliklar hayoti haqida tinmay yozar edi.²

1926 yilning iyul oyi Ispaniyada fashistik oqim bo'roni yuzaga keladi. Respublikachilar bunga tayyor emas edi. Oradan hech qancha vaxt o'tmay bir necha viloyat bosqinchilar qo'liga o'tadi, tez orada Barselona va Madrid shaharlari qamali boshlanadi. Bu ikkinchi jahon urushi boshlanishidan darak berar edi.

"Ernest Xeminguey birinchi kunlaridanoq dushmanga qarshi ilg'or qo'shin tarkibida bo'ldi. O'z hisobidan respublikachilar armiyasi uchun 24ta tez yordam mashinalarini hadya qildi."³ Urush o'chog'ida bu turdagi mashinalarga ehtiyoj juda baland edi. O'sha davrdagi ilg'or ijodkorlar bilan birgalikda urush manzalari yoritilgan film olish maqsadida ijodiy guruh tashkil qiladi. Uning maqsadi bu filmni

¹ Grebanov B. Posmelovich. E. Xeminguey: Jizn i tvorchestva M.1987.

² Boynazarov F. Jahon adabiyoti, T. 2006y.122bet.

³ Zverov A. Predislovie. E Xeminguey. Izbr.proizv.1988.

ko'rgan har bir odam yuragida urushga nisbatan nafrat uyg'otish, kelajakni asrash, bu turdagi xunrezliklarni oldini olish uchun odamlarda ishonch uyg'otish edi.

Xeminguey uzoq tanaffuslarsiz urushlarda ishtirok etadi. U bilan birga yashagan do'stlari “ Mixail Kolsov va Ilya Erenburglar bomba ostida halok bo'lishadi. Bambardimonda shikast etgan pechat mashinkasida Amerika gazetolari uchun yozgan ocherklari, urush paytida suratga olish rejalashtirilgan “Ispaniya zamini” filmining senariysi, “Beshinchi kalona” asari qo'lyozmalarining bir qismi o'sha olovli nuqtalarda yonib ketadi.”¹ U xaritadan urushning qaynoq nuqtalarini topib ishtirok etishi, urush uning ko'z oldida dahshatli va mudhishligicha namoyon bo'lib qolishi hamda fashistlarga nisbatan nafrat Xemingueyning qalbida abadiy saqlanib qolganligidan, uning har bir asarida shu ruhiyatni ko'rish mumkin.

Bir necha yildan so'ng u Karlos Beykerga o'z tarjimon holini, urushda ko'rgan kechinmalarini gapira turib: “Ispaniyada, biz respublikachilar g'alaba qozonishga ishongan kunlarimiz eng baxtli onlar edi”² deya eslaydi. “Ha bu baxtli onlar edi, barcha xavflar va yo'qotishlarga qaramay, Xeminguey o'zini birinchi marta tomoshabin sifatida emas, balki tarixiy voqea qatnashchisi sifatida his qildi. Birinchi marotaba u nima uchun, kim uchun jang qilayotganligini tushunib yetadi.”³

Urushda Respublikachilar yengiladi, Xemingueyning Ispaniyada halok bo'lgan jangchilarga bag'ishlangan prozasi Linkayon Batalyoni jangchilari, barcha antifashistik guruhlarini birlashtirgan jangchilar sharafiga bag'ishlangan bo'lib unda “Ispaniya abadiydir- deb atalgan va – u barcha nokasliklardan xoli bo'ladi, sababi bu zaminda ozodlik va haqiqat uchun kurashgan jangchilarning xoki bordir ”⁴ degan fikrlarni bot-bot yozib turadi. Urushda halok bo'lgan jangchilar nomini yod etishdan charchamaydi. Va bu mudhish olov o'chog'ini yoqqanlarni qoralashdan to'xtamasdi.

¹ Zverev.A. Predislovie. E.Xeminguey. izbr. Proizv.1988.

² Hemingway E. Criticues of four major novels. N.U. 1962.

³ Baker. C.W Hemingway: The writer as artist. P1956. P80.

⁴ Zverev A. Predislovie. E. Xeminguey. Izbr proizv. 1988

“Xeminguey Amerika adiblarining II- kongresida “Yozuvchi va urush”(1937) mavzusida soʻzlagan nutqida fashizmni “qonli jinoyatchilar toʻdasi” deb qattiq qoralaydi. U ispan respublikachilarning magʻlubiyatidan aziyat chekdi. Fashistlarning zoʻravonlik qilib davlatni bosib olganlaridan soʻng yana unda yakka – yogʻizlik qobigʻiga oʻralib umidsizlikka berilish sodir boʻldi.”¹ Va undagi bu oʻzgarishlar bir qator asarlariga ham koʻchgan. U yaqin sharqdagi grek – turk urushining ham guvohi boʻlgan va koʻpgina konfirensiyalarda ishtirok etgan.

Urushdan keyingi Evropa yosh jurnalisti uchun siyosiy maktab boʻlib xizmat qildi. U koʻpgina Evropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Shvesariya, Germaniya) va Afrikada sayohatda boʻlib, xor –zor boʻlgan sarson- sargardon kezganlarni oʻz koʻzi bilan koʻradi.

Adib “Afrikaning koʻm-koʻk toʻq ayzorlari”(1935), “ yarim tundagi oʻlim” (1932), “ Klimanjaro”(1936), “Gʻolib hech narsaga erishmaydi” (1933), “Amal qilish yoki qilmaslik” (1937), “ Beshinchi kalona” (1938) asarlarida faqat amerika xalqini emas, er kurrasidagi oʻzga xalqlarni oʻylantirib yurgan muammolarni qalamga oladi, hayotdagi illatlarni dadillik bilan ochib tashlaydi.

Adib ikkita dahshatli urushning guvohi boʻlganligi, bir qancha mamlakatlarga borganligi sababli ham “Odamlar va urush” (1942). “ Daryo orqali oʻsha qishloqqa” (1950), “ Xavfli yoz” (1960) va boshqa asarlarida turli toifadagi insonlar obrazini yaratadi.

“ Frensisko Kolomberaning qisqa baxti” (1936), “ Amerikalik jangchilar”(1937), “ Urushdagi odamlar”(1942) va boshqa asarlari Ernest Xeminguey ijodi diopozonini nihoyatda kengligidan dalolat beradi. U uzun va murakkab iboralaridan foydalanmasada, qisqa va loʻnda soʻzlar bilan oʻz fikrini kitobxonga yetkazib bera oladi.

¹ Qayumov O. Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi. T: 1987. 315.

Xeminguey o'zining fantaziyasi ehtiyotkorona qurulishi va oddiy uslubi bilan mashhurdir. "Xemingueyning Parijdagi dastlabki kunlarida unga Gertrud Stvan "Diqqatingni bir yerga to'plaginda – yana boshla" deb ko'p maslahatlar beradi.¹ "Gertrud Steyyinning maqsadi" Ernest Xeminguey behuda harakat qilmasdan haqqoniy adabiyot ananalariga beparvolik qlmasdan turib, o'zida adabiyot muzeylarni ko'chirib olishga tayyor bo'lgan ishtiyoq topa olganligini etirof etish edi. Gertrud Steyyn bir o'rinda Ernest Xeminguey u haqida "U zamonaviy ko'rinar va hatto undan muzeylarning hidi anqib turadi"² deb takidlaydi.

Biz esa buni Ernest Xeminguey urushdan keyin jurnalistlikdan voz kechib, adabiyot sohasini tanlaganida, o'z ustida samarali ishlab ijod qilgani natijasida, o'zining ijodiy uslubini yarata oldi deb aytishimiz mumkin. U faqatgina o'ziga xos bo'lgan ijod qilish, yozish uslubi orqali o'z davrining yani " Yo'qotilgan avlod" davrining muhim ruhiyatini asarida singdira oldi.

"Ernest Xeminguey 1935 yilda "Eskvayr" jurnalida "Ki Uestdan jo'natilgan maktub" asarida, sayyohlar uning uyini o'rab olishayotganini yozadi: "Bu muxbiringiz ruhiyatiga juda mos tushadi, lekin ishni haddan tashqari qiyinlashtirib qo'yadi". Garchand Xeminguey vafotiga salkam qirq yil bo'lsa-da, hamon yozuvchi ilgarigiday kitobxonlar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Omma hanuzgacha adibning shaxsiy hayoti bilan qiziqishda davom etmoqda. Xuddi avvalgiday minglab ijodkorlar hozir ham Xemingueyga taqlid qilmoqdalar. Bu taqlidchilar orasida jiddiylari ham, o'rtamiyonalari ham bor. AQShning ko'pgina taniqli adabiyotshunoslari o'zlarida hamon Xeminguey ijodi ta'sirini sezadilar.

Yozuvchining yangi kitoblari xuddi oldingiday shiddat bilan nashr etilib turibdi. 1999 yilning 21 iyuliga kelib, yozuvchi tavalludining 100 yillik sanasiga bag'ishlanib, uning so'nggi, tugallanmagan, yirik romanlaridan biri chop etildi. Asar

¹ Vanspanskeren .K Outline of Amerikan literature. P147.

² The autobiography of Alice. B. Tolkas. N. Y1933 p.266.

Xemingueyning o'rtancha o'g'li Patrik tomonidan nashrga tayyorlandi. Ushbu roman 1953 yilda yozuvchining Afrikaga safari haqidagi to'qima asari edi.

Roman "True of First Light" degan sarlavha ostida chiqadi. Uni taxminan uchdan bir qismga qisqartirgan Patrik romanni shunday nomladi. Asarda sher ovi hamda Ernest Xeminguey degan yozuvchi, xotini Meri va vakamba qabilasidan chiqqan yoshgina, yengiltak Debba ismli ayol o'rtasidagi muhabbat uchburchagi haqida hikoya qilinadi. Sher haqiqatan ham bo'lgan, uni yozuvchining xotini otib tashlagan edi. Hozirda ana shu sher terisini Bostondagi Kennedi kutubxonasida ko'rish mumkin. Agarda hayvon terisiga qarab, xulosa chiqaradigan bo'lsak, ushbu tulum Xeminguey tasvirlagan - "bahaybat qora boshli" va "og'ir, ulk-+an gavdali" maxluqqa uncha o'xshamasdi. Debba ham haqiqatan hayotda bo'lgan edi. Lekin uning yozuvchi bilan ishq-muhabbati, aftidan, to'qib chiqarilgan bo'lsa kerak.

Safarda uzoq yillar gidlik qilgan Patrik shunday deydi: "Uning (Xemingueyning) Afrika bilimdoni sifatida qozongan nufuzi biroz bo'rttirilgan. Bu narsa otamning asarlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Lekin bu qiziqish ovga taalluqli». Ana, xolos!

Xeminguey bu romanni 1955-56 yillarda yozgan edi. So'ngra yozuvchi "Chol va dengiz" qissasini suratga olish ishlari bilan band bo'lib, bu asarini chetga surib qo'yadi. "Sport illyustreyted" jurnali o'tgan asrning yetmishinchi yillari 800 sahifali asarning to'rtidan bir qismini nashr etadi. Biroq bu nashr uncha shov-shuv bo'lmaydi. Shunga qaramay, 1999 yilda bu romanning nashr etilishi muhim adabiy voqeaga aylanadiganga o'xshab turibdi. O'quvchi kitobdan faqat zavq olibgina qolmaydi. Roman o'quvchini yozuvchining hali tugallanmagan asar ustida ishlashi va uning "ijod okeani olami"ga ko'z tashlashiga, muallifning asar yaratish yo'lida chekkan behad zahmat-mashaqqatlarini ko'rishga imkon beradi. Yozuvchi asarda oq va qora,

erkak va ayol, haqqoniyat va xayolot o'rtasidagi chegaralarni mohirona tadqiq qilib beradi.

Xeminguey yigirma yil ichida "Kimga jom chalinadi?" romani (1940) va o'limi oraliq'ida faqat ikkita asarini chop ettiradi. Ulardan biri "Daryo orti daraxtlar soyasida" asari kitobxonlar hafsalasini pir qiladi. Ammo "Chol va dengiz" qissasi olamshumul shuhrat qozonadi.

Biroq shu yillar ichida Xeminguey minglab sahifalarni bitadi. Aftidan, Xeminguey bularni keragicha tartibga sololmagan yoki tugatolmagan ko'rinadi. Yozuvchi hech bir mubolag'asiz ancha katta asardan "Chol va dengiz"ni "bichib" oladi (undan ko'p parchalar 1970 yilda chop etilgan "Okeandagi orollar" romaniga kiritilgan). Xeminguey, shuningdek, viqor bilan nomlagan "androgen" oshiq-ma'shuqlar haqidagi "Bog'i Eram" romani ustida ham ishlaydi. Ana shu 2000 sahifalik aralash-quralash parchalarning qat'iy tahrirdagi talqini 1986 yilda nashr etiladi."¹

¹ Ma'suma Ahmedova "Ma'rifat" gazetasi.1999 yil,10-son.

I.2. Yozuvchining tili va uslubi.

Ernest Xemingueyning o'ziga xos bo'lgan adabiy uslubining maqsadi "Eng kamlar orasidan, eng yaxshisini olishdir"¹ Ayni shu lavhaning o'zi ham bizga Xemingueyning gaplari qanchalik qisqa va oddiyligini, soddaligini ko'rsatadi. Uning uslubiga xos bo'lgan yana bir jihat shuki u faqat nodir sifalardangina foydalanadi; ba'zan u o'z mavzusini ta'kidlash uchun kalit iboralar takroridan samarali foydalanadi, asar tilining ta'sirdor bo'lishi esa unga yana qo'l keladi. Ernest Xeminguey asarlaridagi qahramonlarning, obrazlarning xususiyatlarni ochib berish uchun ma'lum bir darajada ta'sirdorlik nazorat qilinadi. Bu tilning ta'sirdorligining maqsadi, obrazlarning, xarakterlarning matonatini ko'rsatish, asar qahramonlari hayotining turli baland-pastliklarini, og'ir va fojeali kunlarni ham sabot bilan yengib o'tish xususiyatlarini ochib berishdir. Bu turdagi matonat, sabr-toqat, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tish Xeminguey yaratgan aksariyat asarlarning bosh mavzusidir.

Xeminguey yozish uslubini kichik hikoyalar yozish tajribasi orqali mukammallashtiradi. Uning dastlabki hikoyalar to'plami "In our time" ("Bizning zamonda", 1924) va ayni shu to'plamga kiruvchi "Men with women" (1927) va "Big two- hearted river" (1925) asarlarida Xeminguey simbolizm va psixologik realizmni mohirona birlashtirgan. Xemingueyning boshqa ko'pgina romanlariga o'xshab, ular ham o'qishga juda oson, satrlari qisqa sodda tilda yozilgan bo'lib shunga qaramay, etiborsiz kitobxon ko'p hollarda asarning chuqur teran ma'nosini anglab olmaydi.

Bu to'plam "Asarning yuzi juda oddiy muqovada, baliq ovi jarayoni tasvirlangan holda, birinchi marotaba nashr qilingan chog'da, ba'zi tanqidchilar bu asarni juda zerikarli deb etirof etishgan. Chunki unda hech narsa sodir bo'lmasdi."²

¹ Vanspankeren .K Outline of Amerikan literature. P147

² Hemingway.E. The wild years. N.Y 1962. P30.

Asar qahramoni Nik Adams ko'pgina boshqa qahramonlarning yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lgan dahshatli urushdan so'ng uyiga qaytadi. U yana taqdir qiyinchiliklariga, sinovlariga duch keladi, u hayotning muvozanatini topishi va yo'qsizlikning hissiyotlariga qarshi mardonavor sabot bilan kurashishi lozim. “Asarning lirik qahramoni bo'lgan Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan, tinch hayot haqidagi xayollarga qonli urush voqealarni qarama – qarshi qo'ydi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda qahramonning razil urushga qarshi noroziligi bayon etiladi.”¹

Xemingueyning deyarli barcha asarlarida tashqi, yani tabiiy dunyo, qahramonlarning xayoliy dunyosiga ko'chadi.

“Nik yong'indan vayron bo'lgan qishloqlarga sayohat qiladi. Bunda uning hayoti urushdan keying davr muhitiga qiyoslanadi”.²

Urush olovni yoquvchilarga nafrat, o'sha qonli urush paytlarida yanada avj oladi. Va ayni shu nafrat yozuvchini yuqoridagi asar va shunga o'xshash asarlarini yaratishga turtki bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Ko'pgina amerikaliklar o'z ijodini jurnalistika sohasidan, yani jurnalistikadan boshlaganlari ma'lum, Ernest Xeminguey uchun ham jurnalistika adabiyot maktabi bo'ldi. U birinchi “ Uch hikoya va o'nta she'r” (1922) kitobini 300 nusxada avval Dijenada, keyin (1924 yilda) parijda nashr qildirdi.

Xeminguey o'zining dastlabki faoliyatida jamiyatga ishonmay qo'ygan odamlarning taqdiri haqida so'z yuritdi. Uning ilk asarlarida jamiyatdan ajralib qolgan inson obrazi ilgari surilgan va urush hamda urushning fojeaviy oqibati tasirida insonlar bir – birlariga mehirsiz, bir –birlaridan ko'ngillari sovib borayotganligi yorqin misollarda aks ettirilgan.

¹ Qayumov O. Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi.t; 1987y. 314.

² Vanspanskeren .K Outline of Amerikan literature. P144.

Xemingueyning 30- yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u tashqi dunyoga munosobati ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi.

Bir qancha vaqtdan so'ng uning fikrlari o'zgarib boshlaydi. Ilgari jamiyat hayotidan chetda turgan va faqat o'z kuchiga ishongan Xeminguey endi ijtimoiy voqelikka qiziqib qaray boshlaydi. Ispaniyadagi hodisalar respublikachilarning fashistlar to'dasiga qarshi kurashlari uning diqqat markazida turadi. Yozuvchi respublikachilarni qo'llaydi, ularga moddiy yordam beradi, tez – tez frontga boradi. Bu voqealar endi uning ijodi uchun material bo'lib xizmat qiladi. Va ayni shu voqealar 30 yillarning oxiriga kelib Xemingueyning dramaturgiya bilan shug'ullanishiga turtki bo'ldi. “ Beshinchi kolona” pyesasi dramaturgning ulkan ijodiy muvaffaqiyati namunasidandir.

“Asar qahramoni amerikalik Philip Raulings qalban xasta, bo'shashgan shaxslardan emas. U og'ir ahvolda ham beshinchi kalonna agentlari bilan kurash olib boradi, josus va qo'poruvchilik qilayotgan shaxslarni qo'lga tushuradi. Bu asarda Xeminguey murakkab va chalkash ziddiyatli yo'lni bosib o'tadi va ijobiy qahramon yaratishda katta ulkan yutug'ga erishadi”.¹ Biz asar qahramonini o'z shaxsiy intilishlaridan voz kechib jamiyat uchun xizmat qiluvchi qahramon deyishimiz mumkin.

Adibning jahon adabiyoti durdonalaridan sanalgan “Chol va dengiz” romani beqiyos san'at hisoblanib, yuksak badiiy mahoratdan darak beradi. Bu asar yuzlab badiiy obrazlar tasvirlanadigan romanlardan farq qiladi. Barmoq bilan sanarli obrazlar orqali ham falsafiy ma'no va mazmun berish mumkinligi isbot etiladi. Bu yuksak roman uchun muallif 1952yilda “Nobel” mukofotiga sazovor bo'lgan.

Asar qahramoni chol Santiyago baliq oviga chiqqaniga ancha bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Santiyago keksa bo'lsa ham, ammo o'zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam “taslim bo'lmaydi” deb uqtiradi.

¹ Qayumov O. Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi. T; 1987y. 315

Chol to'riga katta baliq tushganda cheksiz sevinadi, "baliq deb qichqiradi, u sekingina, - o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman".¹

Chol butun kuch quvvatini ishga solib, baliq bilan olishadi va engadi. Uning "Odamzotni yanchib tashlash mumkin, lekin bo'ysindirish mumkin emas"² degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Santiyago qirg'oqqa etib kelganida katta baliqning faqat suyagigina qolgan edi. "Kim ham seni eng qoldi o'zi chol, - so'radi o'zidan – o'zi, - hech kim, -javob berdi u,- aybing shuki, men dengizda haddan tashqari uzoq qolib ketibman."³

Ha, haqiqatdan ham, chol bir o'zi dengizda 87 kun suzadi. U 87 kun sabr bilan to'rga baliq ilinishini kutadi. U hech qachon umidini so'ndirmaydi. Santiyago uchun umidsizlik gunohdir. U kitobxon ko'zi o'ngida mag'lubiyatni bilmaydigan irodali inson timsolida namoyon bo'ladi. Santiyago aynan shu jihati bilan ham yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi.

Ernest Xemingueyning yozuvchilikka bo'lgan ishtiyoqi urushdan keying davrning yuksak ilmi kishilari atrofida bo'lishga undaydi.

"O'z davrining atoqli nazariyachisa Gertrut Steyn atrofda qilarni, o'z bag'riga Ernest Xemingueydek yosh istedodlarni ham olib ularni yangicha adabiyot yaratishga ilhomlantirib turardi. Steyn ham nazariya ilmi, ham ijod bilan mashg'ul bo'lgan holda, Xeminguey kabi istedodlarga yaqindan yordam berar, har bir asarni erinmasdan o'qib, qimmatli maslahatlarni ulardan hech qachon ayamasi edi"⁴ Hatto bir o'rinda, u hazilomuz tarzda shogirdlari va maslakdoshlariga qarata "Biz barchamiz allaqachon yo'qolib ketgan avlodmi"⁵ deb takidlaydi va ayni shu "yo'qotilgan avlod" davrini asarlarimizda etarlicha yoritib bera olsagina, biz o'z oldimizdagi maqsadga erishamiz degan mazmundagi g'oyalarni ilgari suradi.

¹ Xeminguey. E. Chol va dengiz. T:1951. 51.

² Xeminguey E. Chol va dengiz. T: 1963. 59.

³ Xeminguey E. Chol va dengiz. T: 1963.

⁴ Baynazarov F. Jahon adabiyoti. T: 2006. 120.

⁵ Heminguey and his critics. N.Y. 1961. 25.

“ Ernest Xemingueyning buyukligi uning asarlarini yaratishidagi o’ziga xosligi va unga vijdonan yondashishidadir.

Xeminguey buni quyidagi uch xususiyat bilan ifoda etgan:

1. Agar aytishga hech narsa bo’lmasa, hech qachon so’zlama.
2. Agar sen unga boshqa tomonlama yordam bera olmasang, yoz.
3. Faqat o’zing yaxshi bilgan narsanigina yoz.”¹

Xeminguey yaratgan barcha asarlarida yuqoridagi xususiyatlarning biri mujassam. Ernest Xeminguey afrikaga qilgan sayohati davomida ikki marotaba havo halokatini boshidan kechiradi. Hayotining so’ngi yillarida u juda qattiq kasal bo’ladi. 1960 yilning noyabr oyida amerikaga qaytadi. 1961- yil iyul oyida Idaho shtatidagi Ketchun shaharchasida uzoq davom etgan dardli xastalikdan so’ng o’z joniga qasd qiladi.

Ernest Xeninguey kabi buyuk adibning asarlari millat, irq tanlamaydi, chegara bilmaydi. Adib asarlarni faqat amerikaliklar emas, jahon xalqlari sevib o’qiydi. Ernest Xeminguey kabi mashxur yozuvchilar sanoqli. Ularning asarlari hamma uchun tushunarli barchaga vazq- shavq bag’ishlaydi.

“ Uning Kubadagi uyi hozirgi kunda muzeyga aylantirilgan. Xeminguey har ikkala : Amerika va evropa adabiyotida samarali ijod qilgan. U bir qator yozuvchilarning jumladan, Gustav Flober, Gi De Mopasan, Stendal, I.Dante, L.N. Tolstoy, I.S. Turgenov, A.P. Chexov, I.F Dostoevski va yana bir qncha adiblar ijodining ixlosmandi edi”.

¹ Utovskaya N.L. English and American literature. Stp.2007

I.3. Ernest Xeminguey asarlarida urush mavzusining aks ettirilishi.

Amerikalik Sinkler Luis 193yil nobel mukofotiga sazovor bulganida, Svetsiya akademiyasi minbaridan o'z xalqi adabiyotining kelajagi haqida umid bilan so'zlagan, yosh yozuvchilar qatorida Ernest Miller Heminguey nomni ham faxr bilan tilga olgan edi. Usha paytda Heminguey 31 yoshda bulib, atigi hikoyalar to'plami va "Quyosh chiqar..." romanini nashr ettirgan lekin kanada gazetasining muxbiri sifatida O'vro'pa buylab ko'p safar qilgan, siyosiy voqealarni tearn tahlil eta oladigan kishi Italiya frontining yosh veterani, 1922yilgi Turkiya – Gretsiya urushning guvohi edi. "Quyosh chiqar..." muallifining nashrga yozgan xati mazmunida, biz hayotning achchiq chuchugini tatigan odamni ko'ramiz." Men shu zsaminni sevaman, uning maftuniman, ammo o'z avlodimni ham uning mayda maqsadlarini ham bir chaqaga olmayman... bu kitob quruq va achchiq satira bo'lib qolmasligi kerak, u shunday bir fojea bo'lsinki, toki asar nihoyasida Zamin mangu qahramonga aylansin"

Roman urushning tirik qurbonlari- frontdan qaytib, hayotini ichkilik, aysh - ishratga sarf qilishga mahkum odamlar " mahv bo'lgan hayot" vakillari haqida. Ular ajoyib odamlar edi. Ularni urush mavh etdi. Tasavvurga muhrlangan dahshatli manzalarni ular sharob bilan yuvmoqchi, ishrat bilan sindirib tashlamoqchi bo'ladilar. Lekin yozuvchi bu urunishlarning behudaligini, urushni unga qarshi faol kurashish bilangina engish kerakligini ta'kidlaydi.

Urush mavzui Xeminguey ijodining barcha boshqichlarida muhim o'rin tutadi. Uning 1929yilda nashr qilingan " Avido, qurol!" , ispan respublikachilariga bag'ishlangan " Bong kimni yo'qlaydi?", vafotidan keyin e'lon qilingan " Okeandagi orollar" kitoblarida ham urush mavzusi qalamga olingan. O'z umri davomida u ko'p urushlarni ko'rdi va ana shu hayotni tasvirladi. U dunyo ishlariga o'z hayoti orqali aralashadi, dunyoni o'ziga xos buyuk bir insoniy muhabbat bilan sevdi. X emingueyning hayoti uning romanlarida aks etgani haqida juda ko'p gapiradilar.

Xeminguey hikoyalarini o'qigan kitobxon uning yangi romanini axtaradigan bo'ldi, o'qimaganlar yozuvchining “ Afrikami yoki biror orlda tushgan suratini uylariga osib qo'yishga odatlandilar.

Xeminguey – mashhur. Xeminguey- ideal.

Bu – kitobxonlar orasidagina emas, yozuvchilar muhitida ham takrorlandi.

Namunaga o'ch yoshlar “ Alvido, qurol!” va “ Klimanjaro qorlari” ning har bir satrini yutoqib o'qidilar, yangi nashr nafasini sezib, o'zlari bilan va bilmagan holda, taqlid qila boshladilar. Lekin Xemingueyga o'xshashdan ko'ra, o'xshashga intilish hisi kuchli edi. Bu urushning dastlabki va keyingi kunlariga o'xshamaydimi? Bir necha hujum va mudofaalaridan so'ng jangchilarning sarasi sarakka, puchagi puchakka ayladi.

“ Alvido, qurol!” singari asarlar o'z otangizni tanib olishga yordam beradi. Axir, otalarimizning juda ko'pchiligi urushda qatnashganlar- ku...

Ular urushga qahramon bo'lish uchun brogan emas, dushmanni yakson qilish kerakligini, o'zlari halok bo'lishi mumkinligini bilardi... Balki urush degani ba'zilarga g'oya shaklida ko'rinar. Urush- biologic hodisa deb jar solayotganlar ozmi? Lekin odam quruq g'oya emas. Front sahna emas, unda yog'och pichoqlar bo'lmaydi... Xeminguey qahramonlarining aytmagan so'zlari menga yana shunday eshitiladi.

Qirq birinchi yil Elbada uchrashgan o'zbek va amerikalik jangchining bir - biridan hech bir farqi yo'q. Ular bir- biriga ekizakdek o'xshahsh, ulardan biri sharqdan, ikkinchisi g'arbdan shu daryo bo'yigacha og'ir yo'lli bosib o'tdi. Bu masofa ularning qiyofasiga shiddatvor sayqal berdi. Mabodo ular bugun uchrasggudek bo'lsalar bir-birini so'ssiz imo- ishorasiz tushunadilar. Bir- birlariga mehr bilan amma g'oyat vazmin tikildilar.

“ Alvido, qurol!” romanini o'qiyotib nimadir halal berayotganini sezasan. Uni bemalol o'qish qiyin. Undan olgan lazzat ham qandaydir achchiq, odamni mast qiluvchi bir giyoh xuruj qilgandek... o'qiyotib ruhingda tong shafaqi yangliq sirli ranglar paydo bo'layotganini sezasan...

Shunga qaramay, o'sha mutolaa davomida o'sha "nimadir" senga halal berib turaveradi. Buni dastlab, romanning uslubiga yo'yasan, yana bir necha varaqni shu tariqa parishonlikda o'qiysan, keyin- favqulotda satrlar zamirida yashirinib, seni kuzatayotgan vazmin nigohga duch kelasan. Shundan so'ng kitobni o'qib tugallaguncha, o'sha taqibdan qochib qutula olmaysan.

Hatto turmush ikir-chikirlariga o'ralashib qolgan paytlaringda ham bu nigoh seni holi qo'ymaydi, ishga sho'ng'ib ketib, unutganingda ham shuringda miltillab turaveradi.

Endi qutildim deb yurganingda bir kuni ko'chadami, tramvaydami, duch kelasan. Bu nigoh egalari ko'kraklariga nishon taqib yurmaydilar, ularni qarashlaridan taniysan. Bu qarash qanchalik vazmin bo'lmasin, bu mehr qanchalik shavqatsin bo'lmasin unga dosh berish kerak.

Ular qurol bilan allaqachon vidolashgan bo'lsalarda miltiq qayishining o'rni hamon elkalarni achishtirib turadi. 1937 yili amerika yozuvchilarning Ikkinchi Kongressida Ernest Xeminguey minbardan shunday degan edi; "... Men yaxshi va haqqoniy asarlar yozish naqadar qiyinligini, mabodo, ular yozilgudek bo'lsa muallifni, shubhasiz, shunga loyiq mukofot kutib turganini aytgan edim. Lekin urush davrida- biz urush davrida yashamoqdamiz- istasak- istamasak, mukofotlar muddati sal cho'ziladi... Urush haqida bor gapni yozish qaltis... Haqiqat izlab Ispaniyaga junagan birorta amerikalik yozuvchini bilmayman. Biroq linkoln nomidagi batalyon jangchilarning ko'pini bilaman ammo ular yozuvchi emas.

Ular maktub yozadilar, xolos.

Ispaniyaga juda ko'p ingliz juda ko'p nemis va gollandlar bordilar. Odam haqiqat izlab frontga borarkan, haqiqat o'rnida o'limga duch kelishi ehtimoli bor. Lekin frontga o'n kishi ketib, ikkitasi omon qaytsa, ular olib kelgan haqiqat- biz tarix deb

yurgan soxta narsalardan yiroq- chinakam haqiqat bo'ladi. Bunaqa haqiqatni, izlab hayotni xavf ostiga qo'yish lozimmikan- bu yozuvchilarning o'ziga havola.¹

Bu nutq fashizm avjiga chiqqan zamonda, Ispaniyada – Franko, Olmoniyada - Gitler, Italiyada – Mussolini kabi shaxslarning g'ayriinsoniy g'oyalar vabodek tarqayotgan paytda yangradi.

Bu nutq jabrdiyda zaminimizda o'z baxtini, o'z omadini yana bir karra chig'iridan o'tkazayotgan paytda, o'sha zamin istiqboli uchun muqarrar o'limga ketayoti: “Men qaytaman, kut!” – deya xotiniga jilmaygan kamtarin, jasur odamlar harbiy etalonga chiqayotgan g'ulg'ula kunlarda yangradi.

Bu nutq hozir ham yangramoqda.

Haqiqiy kitobxon o'zining sevgan kitobini hech qachon sotmaydi. Buni to'g'ri ma'noda ham ko'chma ma'noda ham tushunish mumkin. Inqilobchi o'z idealini, askar o'z qo'shinini sotmagan kabi, kitobxon o'zining sevimli kitoblarini sotmaydi. U yashagan yoki yashashi mumkin bo'lgan hayoti. Chunki, kitoblar uning hayoti.

U boshidan kechirgan yoki kechirishi ehtimoli bo'lgan iztiroblari.

Ya'ni – kitobxon- potensial prototipdir.

Chunki uning ko'ksida bir xayolparast yashaydi. Bu xayolparast yaxshilik va yomonlik o'rtasida ketayotgan jangda o'z kuchini sinab ko'rishga tayor shaxs. U mavhum, ammo vaxtincha mavhum. Ernest Xemingueyning “Ko'zni etaklovchi it kerak” deb nomlangan hikoyasining prototipi- ovchi Xeminguey. Qon zaharlanishidan o'limga sal qolgan ovchining xayolidan kechgan “ har xil narsalar” bu hikoyaning negizinitashkil etadi. Ovchi hayot, ikkala ko'zi ham sog', lekin hikoya qahramoni Plipp yaqinda ko'r bo'lib qolgan:

“Bilasanmi, - dedi u, - bu erga kelganimiz yaxshi bo'ldi. Men bu erda nima degan bo'lsam, hammasini eslayman... bu yangi so'z, ammo biz uni o'chiramiz... bizning yaxshi magnitofonimiz bor va men avvalgidan ham yaxshiroq yozaman. Agar odam

¹ Muhammad Solih “ Iqror” Ernest Xeminguey tavalludining 85 yilligiga, 1979.

shoshilmasa, haqiqiy so'zlarni topishi mumkin. Men so'zlarni aytayotganda, ularni shundoq ko'rib turaman...".

Pilipp yo'zuvchi. U ham mergan, Xemingueyga o'xshab, bir paytlar sher oviga brogan. Lekin kitobxon uchun – biz uchun Pilippning taqdiri qiziqroq. Biz ko'zi ojiz yozuvchining ichki drammasi bilan yashaymiz. Ammo bu fojeaga qancha chuqur kirganimiz sari, kutilmaganda, o'zimiz "istamagan tomon"ga qarab ketayotganimizni sezamiz: ko'lami kengayib borayotgan ruhiy olamga – aynan prototipning ruhiy dunyosiga yo'l olamiz.

O'zimiz sezmaganda holda yozuvchi Xemingueyning qismati haqida o'ylay boshlaymiz.

Xeminguey o'zining "Doimo yoningda bayram" deb nomlangan xotiralar kitobida o'zining yoshligi kechgan Parijni eslaydi. O'sha paytda yon daftarchasiga yozib qoldirgan yosh yozuvchining (o'zining) xatlari yordamida uning psixologiyasini tahlil etadi. Xotirjam bo'l, deydi o'z – o'ziga yozuvchi. Xotirjam bo'l, ertaga ham indinga ham yoza olasan. Faqat ertaga davom ettirish uchun xamirturush qoldirsang bo'ldi. Boshlash esa, unchalik qiyin emas bir so'z, bir samimiy so'z topsang bas, keyin o'zi boshlanib ketadi.

Diqqat bilan qaralsa, yosh yozuvchining vazminlik bilan, o'ziga ishonch bilan yozgan so'zlari zamirida ishonchning teskarisi – o'ziga shubhani ilg'ash mumkin. Bu qorong'uda qo'rqib ashula aytayotgan bolaning holatiga o'xshaydi.

Xeminguey – kuchli shaxs. Uning Italiya frontida ko'rsatgan mardligini hamma biladi. Lekin biz yuqorida keltirgan holat askar emas, yozuvchining qalbida shakllangan holatdir. Shubha – iqtidor yonida turgan ikkinchi component. Boshqacha aytganda, iqtidorning soyasi: iqtidor qancha katta bo'lsa, shubha ham shunchalik bahaybatdir. "Ko'rni etaklovchi it kerak" hikoyasidagi fikr ham Xemingueyning "bir kun to'satdan yozolmay qolsam, nima bo'ladi", degan "vahimasi", uni doim ta'qib etgan shubha – fano tuyg'usidir. Yozuvchining "tashqi" hayotida bu kayfiyat umuman ko'zga tashlanmaydi.

Aksincha, u har xil uchrashuvlarda o'ziga ishongan, hatto takabbur kishi sifatida taasurot qoldiradi. Nainki davrlarda, o'zining nomi tilga olingan o'z maqolalarida ham Xeminguey ikkilanayotgan shaxs bo'lib ko'rinmaydi. "Afrikaning yashil tepaliklari" essesidan parcha keltiramiz:

"- Amerikaning buyuk yozuvchisi kim? – deb so'radi Kandidskiy mening erim, - dedi xotinim – Bizda buyuk yozuvchilar yo'q, - dedim men (Xeminguey-MC) – yaxshi yozuvchilarimiz ma'lum bir yoshga borganda o'zgarib qolishadi... sal boyigandan keyin, ular yaxshi yashay boshlaydilar va bu "yaxshi hayot"ni ta'minlab turish uchun, istasa istamasa, yozishga majbur bo'lishadi, oqibatda yozganlari makalaturaga aylanadi...

-Siz-chi?

-Mening qiziqadigan narsam ko'p. Men o'z hayotimdan mamnunman. Lekin menga yozish zarur, agar har kuni "ma'lum qator yozmasam hayot men uchun o'z go'zalligini yo'qotadi".

Bu erda yozuvchi aldayotgani yo'q. Bu so'zlarga uning o'zi ham qattiq ishonadi. Bu ishonchni qamchillab turadigan... yana o'sha shifobaxsh, lekin azobli shubhadir. Xemingueyning vahimasi avvalo jismoniy emas, ruhiy o'lim bilan bog'liq. Bu erdagi ishlarni bajarolmay ketishdan qo'rqqan odamning iztirobi va nihoyat, jismoniy o'limning naqadar shafqatsizligi, uning kutib turmasligini chuqur anglagan yozuvchi qarashidir.

Xeminguey o'zini qiynagan bu hisni "Klimanjaro qorlari" hikoyasida yana ham kengroq ko'rsatadi. Yozuvchi Garri (yana "yozuvchi" afrika changalzorlarida ov paytida, - yana "ov") oyog'ini shikaslantiradi. Arzimas yara kutilmaganda gangrenaga aylanadi. Hikoya ana shu o'limni kutib yotgan odam psixologiyasining tasviriga qurilgan. Garri daraxt soyasida yotib juda ko'p voqealarni eslaydi va bu voqealarni endi hech qachon yozolmasligini o'ylaydi, g'azablanadi, gunohsiz xotiniga zahrini sochadi. Vijdon azobi ortida, xotiralar pardasi fonida o'sha jumboq, o'sha tugun echila boradi. Hikoya boshida o'lim Garrining tepasiga aylanib yurgan qushlar

timsolida ko'rinadi. Hikoya o'rtasida u qiyofasini o'zgartirib Garri va uning xotini yotgan chodir atrofida sirtlon bo'lib uvillaydi. Hikoya so'ngida shaklsiz, ammo nafas olib turgan, ko'zga ko'rinmas maxluq sifatida paydo bo'ladi.

“Klimanjaro qorlari” dagi o'lim tasviri odamda hayotga kuchli muhabbat uyg'otadi. Hayotni kechikib sog'ina boshlagan Garrining pushaymon to'la sog'inchi kitobxonni larzaga soladi. Garri o'layotib, qayta tug'iladi. U orzu qilgan mukammallik cho'qqisi uning xayolida Klimanjaro bo'lib gavdalanadi. Hikoyaning epigrafini keltiramiz: “Klimanjaro balandligi 19.710 fut, hamisha qor ostida yotadigan tog' tizmasi bo'lib aytishlariga Afrikaning baland joyi hisoblanarkan... G'arbiy qoyaning eng tepasida sovuqda muzlab qolgan qop;on yotibdi. Bu balandlikda qoplon nega chiqqanligini hech kim tushuntirib berolmaydi”.

Yozuvchi Garri joni uzilar, so'nggi o'zi mingan uchoq Klimanjaro qorlari tomon, qoplon yotgan cho'qqi tarafga burilganini yaqqol ko'radi. Aslida, bu tush edi. Garrining so'ngi alahsirashi edi. Hikoyaning estetik qudrati hikoya muallifi yuragida tebranib turgan o'sha shubha kuchi bilan baravardir. “Ko'zni etaklovchi it kerak” asaridagi nekbinlik ham ko'zi shikastlangan ovchi Xeminguey “vahimasining” davomi, xolos.

Xeminguey o'z hayotida katta quvonchli voqealar guvohi bo'ldi. Shuningdek, u katta fojealarni ham boshidan kechirdi. Ispan respublikachilarining mag'lubiyati sifatida qabul etdi va ruhida yana nimadir channaganini sezdi. “Dumbador general (Franko – Xeminguey iborasi) lar bilan kurashish uchun yakkalik qilayotganini angladi. “Alvido, qurol!” romani, hikoyalari bilan dunyoga tanilib ulgurgan, hayotga tik qaray boshlagan yozuvchi qalbida yana o'sha shubha, bu safar uning ijtimoiy tushunchasini qamragan holda paydo bo'ladi. Uning so'ngi romani “Daryo ortidagi daraxtlar soyasida” eng tushkun asarlaridan biridir. Bosh qahramon Kantuell fashist Frankoga qarshi kurashgan jangchi, roman finalida o'zini otib tashlaydi.

Polkovnik Kantuellning otgan o'qi – Xeminguey o'ziga otgan o'q edi. Ammo xayriyatki, o'q havoda uzoq uchdi. Bu o'q uchar ekan, Xeminguey o'zining eng

yaxshi asarlaridan biri- “Chol va dengiz” ni yozib tugatdi. Bu qissa uning odamlarga qoldirgan so’nggi, ajoyib merosi bo’ldi. Keyin yozgan asarlari “Chol va dengiz” darajasiga ko’tarilolmadi.

“ Men bu shimoliy amerikalikning (Xemingueyning –M.C) ko’rsatgan barcha jasoratlarida bolalik qilg’ini ko’raman”, degan edi inqilobchi Ernesto Che Gevara. Lekin bu qahramonliklar faqat “bolalik” emas edi. Bu Xeminguey yuragida muttasil davom etgan o’sha ikki kuch ishonch va shubha kurashining tashqi ko’rinishi edi. Yozuvchi o’limdan ham ruhan, ham jisman ustun bo’lmoq uchun o’zidagi shubhani tinimsiz o’ldirib turdi.

Shu ikki kuch o’rtasida to’lg’onib, umr bo’yi yuksak ideallar uchun kurashgan buyuk inson, iztirobli qalb egasi Ernest Xeminguey o’z qahramoni polkovnik Kantuell singari bu dunyoni tark etdi... Prototip yo’q.

Ammo yozuvchi bor, chunki uning qahramoni hayot-hayotdir.

I bob xulosasi.

Xulosa o’rnida, Ernest Xeminguey nafaqat amerika adabiyotini , balki boshqa xalqlar adabiyotini va madaniyatini o’rganishga harakat qilgan va o’rganganlarini asarlarida keng yoritishga erishgan deyish mumkin. Shu sababli ham Ernest Xeminguey yaratgan asarlar xalq tanlamaydi, ular faqat bir millat kishilari uchungina emas, balki butun jahon xalqlari uchun yaratilgandir.

Biz Ernest Xemingueyni nafaqat amerika adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o’ziga xos salmoqli o’rin egallagan deb aytishimiz mumkin. Dunyoning qaysi bir burchagiga bormaylik, Ernest Xeminguey asarlarining ixlosmandlarini topa olishimiz bunga yorqin misoldir.

Uning asarlari kitobxonlar orasida ommalashuviga sabab u asarlarida haqiqatni yoritib, aks ettirib bera olganligidir. Zero bir buyuk adib “Haqiqat, hayotning realligini aniq va tasirli tarzda qayta tiklab tasvirlash- yozuvchi uchun eng oliy

baxtdir”.¹ deb ta’kidlaganidek. Biz Ernest Xemingueyni ana shu oliy baxtga erisha olgan deb ayta olamiz.

II BOB. TARJIMA XALQLAR DO’S TLIGI QUROLI.

II.1. O’zbek adabiyoti taraqqiyotida tarjima asarlarining o’rni.

Tarjimasiz faqat o’z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo’lmagan sof millat tiniq madaniyat, abadiy o’zgarmas toza til yo’q. Bo’lishi ham mumkin emas. Agar tarjima bo’lmaganda milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o’lmas fan va sana’t obidalari bir-birlari bilan abadiy uchrashmaydigan qoyalar va inson oyog’i etmaydigan orollar shaklida yakkalanib qolgan bo’lar edi. Tarjima internatsionalism va xalqlar do’s tligi quroli. Tarjima yo’li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadilar. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qarasak u yerda katta tarjima namunalarini ko’rishimiz va undan bahramand bo’lishimiz mumkin.

Ma’lumki o’zbek adabiyoti, xususan, tarjimachilik keyingi yillarda tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Tarjimachilik o’zbek adabiyotining rivojlanishidagi omillaridan biri bo’lib qoladi. Tarjimashunos olim filologiya fanlari doktori, professor Jumaniyoz Sharipov ta’biri bilan aytganda, “ Har bir xalqning adabiyoti xazinasida ikki oltin fond bor. Biri shu xalqning o’zi yaratgan asarlar bo’lsa, ikkinchisi boshqa xalqlar adabiyotidan qilayotgan tarjima asarlaridir. “ Har ikkovi ham katta ahamiyatga ega bo’lib, bir-biri bilan uzviy bog’langan.

Agar biz o’zbek adabiyotining taraqqiyoti yo’llariga nazar tashlasak, bu hol ko’zga yaqqol tashlanadi. So’ngi yillarda o’zbek adabiyoti ham shaklan, ham mazmunan tamomila o’zgardi. 1960-70 yillarga kelib o’zbek tarjimachiligi yangi bosqichga ko’tarildi. Tarjimachiligimizning geografik maydoni yana ham kengaydi. Istedodli yosh tarjimonlar tarjima asarlari bilan ham adabiyotimiz xazinasini boyitdilar. Ikkinchi jahon urushi davridan keying yillarda, ayniqsa 60-yillarga kelib bizning

¹ Turgenev I.S. Otalar va bolalar. M. 133.

mamlakatimiz taraqqiyparvar kuchlarni birishtirishda asosiy rol o'ynaydigan bo'lib qoldi. Boshqacha aytganda, u jahon progressive harakatining islohotchisiga aylandi. Shu munosabat bilan jahon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy siyosiy va madaniy aloqalar gurkirab rivojlandi. Bu olamshumul voqealar, shu jumladan, badiiy tarjima adabiyotga tasir etmasdan iloji yo'q. Bu davr, yani o'zbek tarjimachiligining rivojlanish jarayoni juda murakkab bo'lib, u bevosita O'zbekistondagi umumiy madaniy adabiy hayotining rivojlanish yo'llari bilan ham bog'liqdir. O'zbek tarjima adabiyotining tug'ulishi va shakllanishi natijasida o'tmish o'zbek adabiyotida unchalik etarli rivojlanmagan. Realistic proza, dramaturgiya kabi janrlar tezlik bilan rivojlana boshladi. Buyuk ingliz dramaturgi W. Shekspirning Cholpon tarjima qilgan "Gamlet", G'afur G'ulom tarjima qilgan "Otello" tragediyalari o'zbek tomoshabinlari orasida zo'r muvaffaqiyat qozondi. Bu pyesalar hozirgi kungacha o'zbek teatrlari sahnasida o'ynab kelinmoqda. Jahon adabiyotining tarkib topishi, mavqeining mustahkamlanishi va rivojlanishida tarjima qulay vosita bo'lib qoldi. Ulug' ingliz dramaturgi W. Shekspir ham asarlari jahon tillariga eng ko'p tarjima qilishgan. Shekspir boshqa xalqlar tafakkurida ular manaviyatiga taraqqiy-parvar g'oyalar tinchlik, birodarlik, insonparvarlik, adolat uchun kurash g'oyalari, yangi tushinchalarni olib keldi. Shekspir asarlarining tarjimalari ularni tarjima qiluvchi xalqlarning tili va adabiyotiga ham yozuvchi dramaturg va shoirlarning ijodlariga ham ulkan tasir ko'rsatadi.

Buyuk so'z ustalari-A. Navoiy, William Skekspir, Iogani Geyote, Onoreddi Balzak, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Robindranat Tagor va boshqa ko'plab qalam sohiblarining asarlari madaniy dunyoning qariyb barcha taraqqiy etgan adabiy tillariga tarjima qilingan. Xilma-xil uslubi,ko'p janrli va turlicha adabiy ananalar asosida jahon tarjima maktabi barpo etilmoqda. Avloddan-avlodga o'tuvchi bu tarjima merosi, buyuk mutaffakkirlar ijodini almashishdek ajoyib tajriba, badiiy adabiyot yulduzlarining turli buyuk va kichik xalqlar tilida "gaplashish"dek analari yil sayin mustahkamlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Tarjimachilik ishining bu qadar keng miqyosda quyilishiga sabab nima va u qanday natijalarga olib keladi?

Tarjima xalqlar o'rtasida o'zaro aloqa va bir-biriga ta'sir jarayonini tezlashtiradi, milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular umuminsoniy g'oyalar, rang-barang adabiy-estetik shakllarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Tarjima-milliy tillarning rivojlanish suratini tezlashtiradi, tillarning lug'at boyligini yanada oshiradi, yangi-yangi grammatik vositalarni keltirib chiqaradi. Chet el adabiyoti va sanatining insonparvarlik, tinchlik, qardoshlik g'oyalarini xolisona targ'ib etuvchi badiiy yuksak asarlari O'zbekistonda ko'plab nashr etilayotgani o'z-o'zidan ayon. Shunisi diqqatga sazovorki chet ellik yozuvchilarning kitoblari bizda o'zlarining mamlakatlarida ilk bor chop etilganiga qaraganda ham kattaroq tirajda, ancha ortiq miqdorda bosilib chiqqan. Faqat urushdan keyingi yillar ichidagina Amerika adiblarining qariyb 7ming asari ingliz va fransuz mualliflarning 4,5 mingtadan ortiq kitoblari nashrdan chiqqan ularning bizdagi umumiy tiraji olti yuz milliondan ortiqdir.

Bizning mamlakatimizda tarjima umumdavlat ishi hisoblanadi. Umuman, xalq maorifi tarjima ishlariga ermak ishi sifatida qaramaydi.

II.2. 1970- yillar tarjimachiligiga bir nazar.

Ma'lumki 1970- yillarda dunyoda tinchlik uchun kurash nihoyatda tus oldi. Ona sayyoramizning har burchagida urush olovlarini tutashtiradigan fashistik asarlar vujudga kela boshlagan. Qisqasi zaminimizda tinchlik yo'qoldi.

Adabiyotimizda urushga qarshi tinchlik uchun kurash motivlari bilan sug'orilgan asarlar vujudga kela boshladi. Chunonchi, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi ko'plab zabardast shoirlar o'zlarining urushni la'natlovchi qator o'tli asarlarini yaratdilar. Xuddi shu davrlarda tarjimon I. G'ofurov buyuk anti-fashist amerika yozuvchisi Ernest Xemingueyning "Alvido, qurol!" romanini o'zbek tilida e'lon qildi.

O'zbek adabiyotining taraqqiyoti bosqichlariga nazar tashlansa, 1960-yillar alohida bir davrni tashkil qiladi. Bu yillarda yozuvchilarimiz, shoirlarimiz o'zlarining shaxsiy ijodi bilangina emas, balki tarjima asarlari bilan ham adabiyotimiz xazinasini boyitdilar. Ikkinchi jahon urushi davrida keyingi yillarda, ayniqsa, 60-yillarga kelib bizning mamlakatimiz taraqqiyparvar kuchlarni birlashtirishda asosiy rol o'ynaydigan bo'lib qoldi. Boshqacha aytganda, u jahon progressiv harakatining ilxomchisiga aylandi. Shu munosabat bilan jahon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalar gurkirab rivojlandi. Bu olamshumul voqealar adabiyotga, shu jumladan, badiiy tarjimaga ta'sir etmay iloji yo'q edi.

70- yillarda o'zbek adabiyotining qo'lga kiritgan yutuqlari, yozuvchilarimizning yuksak san'at asarlarini yaratish yo'lidagi jonbozliklari tufayli tarjimachiligimiz ham kamol topa bordi. Bu davrga kelib buyuk Amerika yozuvchisi Ernest Xemingueyning "Chol va Dengiz" qissasi o'zbek tiliga tarjima qilinishi bejiz emas. Bu qissa inson jasorati va sabotiga madhiyadir. Bunday asarlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi muhim bir tarixiy shart-sharoitning mahsuli deb qaralishi lozim. Chunki qissa syujeti ba'zi bir

kitobxonlar qiziqib, hayratga tushib o'qiydigan voqealar asosida qurilmagan. Hatto, aytish mumkinki, asarda biror kishiga so'zlab bergulik qiziqarli voqea yo'q.

“Chol va Dengiz” povestining mazmuni juda oddiy. Uning bosh qahramoni kubalik keksa baliqchi. U 84 kun dengizda ov izlab birorta baliq tutmasdan quruq qaytadi. 85- kuni uning qarmog'iga katta baliq ilinadi. Tabiiyki, bunday katta baliqni qo'lga kiritish oson bo'lmaydi. Yozuvchi asarga shu katta baliq bilan chol o'rtasidagi farqni asos qilib oladi. Chol shunday katta baliqni o'zining keksaligiga qaramasdan izniga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi. Tabiat stixiyasi va inson o'rtasidagi kurash asarning leytmotividir. Shu vahshiy kuch bilan keksayib qolgan, nimjongina chol o'rtasidagi kurash orqali insonparvar yozuvchi insonning hamma narsaga qodirligini ko'rsatib beradi. Haqiqatdan ham inson hamma narsadan qudratlidir. Tabiat nimaiki yaratibdi, avvalo u inson uchun. Biroq shu yaratilgan narsalardan qanday foydalaninsh, qay yo'sinda asrash bugungi kunda bashariyatni oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib qoldi. Yozuvchi bu masalalarni ham qissada chetlab o'tagani yo' q. Asarning bosh qahramoni Santyago orqali o'zining hayotga qarash nuqtai nazarini to'la aks ettirdi.

“Chol va Dengiz” povesti mazmun jihatdan keng tarmoqlidir. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon o'ziga xulosa chiqaradi, inson haqida ma'lum bir xulosalarga keladi. Shuning uchun ham bu asar ilk e'lon qilingan paytlarda juda katta shov-shuvlarga, bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu shov-shuvlarning, munozaralarning boisi asarning mazmundorligiga borib taqaladi. Yozuvchiga ushbu qissasi uchun 1954-yilda xalqaro Nobel mukofotining berilishi bejiz emas. Shuning uchun ham “Chol va Dengiz”ning adabiyotimizga kirib kelishiga oddiy hol sifatida qaralishi insofdan emas, albatta. Ibrohim G'afurov bu asarni tarjima qilishda adabiyotimizdagi o'sha paytda endi kamol topayotgan inson masalasini nihoyatda chuqur anglagan holda kirishganligi

ko'zga tashlanadi. Bunday deyishimizning boisi shuki, I.G'afurov ilk bor adabiyotimizga hikoyanavis bo'lib kirdi. Uning hikoyalar mashq qilishi adabiyotimizning kun tartibida turgan masalalarni chuqurroq anglashni taqozo etar edi. Bundan tashqari, u munaqqid sifatida ham adabiyotning jonkuyar kuzatuvchisi edi. I. G'afurovdagi badiiy tafakkur bilan ilmiy tafakkur omuxtaligi nasrimizning bu xil mayllarini anglab olishga imkon bergan. Mutarjimni "Chol va Dengiz" asarini tarjima qilishga undagan omillardan biri shu bo'lsa kerak.

Tarjimachilik tajribasidan bizga ma'lumki, yetuk mutarjimlar san'atkor sifatida hamisha davr va adabiyot bilan hamnafas yashaganlar. Bu fikrimizning dalili uchun H.Olimjonning N.Ostrovskiydan " Po'lat qanday toblandi? " romani yoki A.S.Pushkindan qilingan tarjimalarini , Usmon Nosirning A.S.Pushkindan va M.Y.Lermontovdan tarjimalarini eslash kifoya . Bu ustoz adiblar o'z ijodlari bilan birgalikda tarjimalari bilan ham zamonaviy ijodkorlar edi . Ular o'z davriga zarur bo'lgan , zamon talabiga javob beradigan asarlarni o'zbekchallashtirdilar . Tarjimondagi bu xil fazilat ularning xalq va adabiyot dardi bilan yashashining belgisidir . Biz shu nuqtai nazardan I.G'afurov tomonidan tarjima qilingan "Chol va Dengiz " qissasini o'z vaqtida , davr talabiga mos tarjima qilingan asarlardan biri deb bilamiz .

II bob xulosasi.

Tarjima –adabiyotning bir turi bo'lib, turli tillarni bir-biriga bog'lash , millatlarni birlashtirish aloqa vositasi. Tarjima asarlari orqali kitobxon boshqa chet el adabiyotlaridan milliy tilda bahramand bo'ladi.70-yillar tarjimachiligi O'zbek tarjima maktabiga katta zamin qo'ydi, zabardast tarjimonlar ko'plab jahon namunalari yuksak mahorat bilan tarjima qilib,taqdim etishdi. Tarjima-san'at, adabiyot, umumdavlat ishi darajasiga ko'tarildi.Bu davrning yuksak tarjimonlari qatoriga

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi , Omon Matjon va albatta, Ibrohim G'afurovlardir. Tarjimada tarjimonning asosiy mahorati-uning millatga tushunarli tilda asarni tarjima qilishi, milliy kaloritni saqlagan xolda ish ko'rishi, so'zma –so'z (kalka usuli) emas, balki mazmun-mohiyatdan kelib chiqib dialoglar yoki jumalarni joy—joyiga qo'yishida. O'zbek kitobxonlari Ibrohim G'afurovning buyuk yozuvchining asarini mahorat bilan yetkazib berganligidan doimo mamnun bo'ladi.

III BOB. TARJIMADA XARAKTERNI QAYTA YARATISH SAN'ATI.

III.1. “Chol va dengiz” asarini milliy tilga o'g'irishda tarjimon mahorati.

E.Xemingueyning “ Chol va Dengiz “qissasidagi asosiy qahramon Santyago asarga shakllangan xarakter sifatida olingan. Bu xarakter jihatidan umuminsonga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan. E.Xemingueyning maqsadi chol xarakterini ochish yoki uning qilgan ishlariga hamdu sanolar aytish emas. U san'atkor sifatida insonning har narsaga qodir buyuk bir zot ekanligini badiiy aks ettiradi. U shu bilan yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonga bo'lgan o'z munosabatini badiiy bir yo'sinda bildiradi.

Biz bu asar tarjimasini o'qir ekanmiz, mutarjim I. G'afurov E.Xemingueyning ijodiy manerasini, uning g'oyaviy pozitsiyasini yaxshi anglaganligini guvohi bo'lamiz. Bu asarning o'zbekcha nusxasida ham qissaning kirish qismidagi chol yashagan muhit, dengizchilar hayoti nihoyatda nafis tasvirlangan. Go'yo dengiz nafasi, baliqning hidi burningizga urilgandek his etasiz. Asarning bosh qahramoni Santyago hamma baliqchilar singari oddiy bir zahmatkash, bugungi topgani ertaga yetmaydigan bir kambag'al tarzida beriladiki, kitobxon bu sahifalarni o'qiganda oddiy bir mehnatkashning siymosi ko'z oldida gavdalanadi.

Inglizchasi: ... he always went down to help him carry either coiled lines or the gaff and the sail that was furled around the mast. The sail was patched with flour sacks and furled it looked like the flag of the permanent defeat.

The old man was thin and gaunt with deep wrinkles in the back of his neck. The brown blotches of the benevolent skin cancer the sun brings from its reflections on the tropic sea were on his cheeks . the blotches ran well down the sides of his face and his hands had the deep – creased scars from handling heavy fish on the cords. But none of these scars were fresh. They were old as erosions in a fishless desert.

Everything about him was old except his eyes and they were the same colour as the sea and were cheerful and undefeated.

O'zbekchasi: U (Manolin) cholning uskunalari, changak, garpun, va machtaga o'ralgan yelkanlarni tashib olishgani qirg'oqqa keladi. Dag'al matodan to'qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo'lib ketgan o'roqlik holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o'xshar edi.

Chol oriq va holdan toygan, ensasi chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari quyosh nurini tropikdengiz nurida aks etib etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigar rang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanga tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda chizimchalari o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinadi. Ammo bu izlar ichida yangilari yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'xna edi. Cholda nimaiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.

Mana shu keltirilgan parchada omadi yurishmagan baliqchining hayot tarzi nihoyatda real aks ettirilgan. Mutarjim cholning hayotiga tegishli, uning turmushini aks ettiradigan yozuvchi tasvirlagan muhim: “Yamalaverib ola-quroq

bo'lib ketgan", "Yaksoni chiqqan polkning yalovi" kabi detallarni topqirlik bilan qo'llaydi. Bu detallar rus tilida: "напоминал знамя на голову разбитого полка", "заплатах из мэшковиный" tarzida berilgan. Biz asl nusxada chol hayotini aks ettirish uchun berilgan bu detallarni rus tilidagi variant bilan qiyoslasak rus tarjimonlarining originalga to'g'ri yondashganlarini ko'ramiz. O'zbek tarjimoni unga ijodiy kirishib ba'zi bir xarakterli detallarni o'zidan qo'shadi. Mazmunini kuchaytirishga, to'ldirishga mutarjim qo'shgan sifatlashlar, ancha muvaffaqiyatli chiqqan. Agar biz "ola quroq" so'zini olib qaraydigan bo'lsak, aslida bu so'z originalda yo'q. Biroq mutarjim bu so'zni o'z o'rnida qo'llaydiki, butun mazmunni yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni oddiylashtirib bergan. Bu o'rinda "Yakson" so'zini ham qayd qilish mumkin. Mutarjim xuddi poeziyadagidek bu so'zlar zimmasiga chuqur ma'no yuklay olgan. Oddiygina sifatlash orqali Santyagoning ayanchli ahvoli namoyon bo'ladi.

Asardagi bu parcha orqali biz Santyago obrazining butun hayotini, uning bosib o'tgan yo'lini tasavvur qilamiz. Yozuvchi bu tasavvur orqali mehnatkash insoniyatning keksaygan paytini ko'rsatish niyatida emas. Uning bu tasviri asarga kirish uchun san'atkorona bir uslub edi. Agar mutarjim ulug' yozuvchining uslubini, asarga xos bo'lgan badiiy qonuniyatlarini anglamaganda edi, bu parcha tarjimasi bu qadar muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lar edi. Mutarjim yozuvchining uslubiga mos bo'lgan tugunning mohiyatini yaxshi anglagan. Shuning uchun ham I.G'afurov asarning bosh qahramoni Santyago portreti berilishiga alohida ahamiyat beradi. O'zbek kitobxonlari bu parchaning o'zidayoq Santyagoning butun hayotiy faoliyatini, uning qanday odamligini tasavvur qiladi. Mutarjim qo'llagan "ola-quroq", "yaksoni chiqqan polkning yalovi" jumlasining mazmunini xayolga keltirsak, Jangu jadallarda yakson bo'lgan butun bir fojiiy holat ko'z oldimizda gavdalanadi. Agar bu sifatlashni Santyagoga qiyoslaydigan bo'lsak, uning butun umri yashash uchun, tirikchilik uchun kurashib, shu yozuvchi tasvirlagan aftoda xol suratga kelib qolganini

sezamiz. Yozuvchi parchada cholning tashqi portretini chizishda, hatto, qo'llaridagi chandiqlarni ham chetda qoldirmaydi. Butun asarning tuguni shu nuqtadan boshlanadi. Agar mutarjim eng muhim nuqtalarni nazardan soqit qilganida edi, butun asar davomida obraz xarakteri mantiqiga, yozuvchi tasviriga xilof ish tutgan bo'lar edi. Bu o'rinda tarjimashunos Jumaniyoz Sharipovning "... poetik asarlar tarjimoni, albatta, shoir bo'lishi kerak", degan fikrini eslash joizdir. Chunki chinakam yozuvchilikdan xabardor bo'lgan shaxs san'at asarlaridagi har bir detalga, iboraga nihoyatda etibor beradi. Qisqasi san'at asarida hech qanday ortiqchalik bo'lmaydi. Agar tarjimon yozuvchi yoki shoir bo'lmasa, o'zi tarjima qilayotgan asarning, avvalo, qadriga yetmaydi. Bundan tashqari, adabiyotning oziga xos spesifikasini bilmaydi. Afsuski, bugungi kunda o'zbekchalashtirilayotgan nasriy asarlarga xos kasallikning boshi shunda. Chunki oliy ma'lumotli bo'lgan har bir kishi rus tilini bilmaydi, badiiy asarlarni rus tilida o'qib zavq ololmaydi deb bo'lmaydi. Til bilish tarjima qilib biladi degan gap emas. Tarjimon avvalo oz xarakteriga ega bo'lgan, muhim o'ziga xos hayotiy qarashlari mavjud bo'lgan, ijodkor bo'lishi kerak. Uning hayotga qarashi, tabiati ma'lum bir yozuvchi bilan hamohang keladi, ruhiy yaqinlik bo'ladi. Ana shunday yaqinlik ularni mohir tarjimonlik darajasiga ko'taradi. Biroq bizning bu fikrimizdan Dantening "Ilohiy komediya" sini yoki Gyotening "Faust"ini o'zbek tiliga o'g'irgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning Dante yoki Gyotega barobar degan fikr tug'ilmasligi kerak. Ruhiy yaqinlik, hamohanglik teng kuchga ega degani emas. I. G'afurov Ernest Xemingueyni to'g'ri anglagan ekan, uning tabiatidagi yaqinlik bu ulug' yozuvchi bilan teng kuchga ega degani emas albatta. Tarjimondagi talant yo'nalishidagi hamohanglik, estetik didga o'xshashlik bir-birini yaxshi tushunishga imkon yaratadi.

Katta tarjimashunos K. Chukovskiy nasriy asar tarjimasida xususida gapirib shunday degan edi: "Badiiy prozaning tarjimoni asl nusxaning suratini

ko'chirmaydi, balki uni ijodiy ravishda qayta barpo etadi". Biz yuqorida ko'rganimizdek I. G'afurovning tarjimasi ijodiy yangidan barpo etilgan asardir. Bunday deyishimizning boisi shundaki, I.G'afurov asar mohiyatidan kelib chiqib ijodiy yondashadi. O'zbek kitobxoni tushunadigan qisqa va sodda jumalarda fikrlarni lo'nda ifodalaydi:

-Yo'q,- dedi chol – baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan. O'shanda qolganing ma'qul .

- Esingdami, bir vaqtlar rosa sakson yetti kun dengizga chiqib, qup-quruq qaytuvding, keyin ikkalamiz ketma-ket uch hafta kuniga katta-katta baliq ushlab keltirganmiz.

-Esimda,-dedichol, - sen menga ishonmaganingdan ketganing yo'q, bilaman.

- otam majbur qildi. O'zim bo'lsam, hali kichkinaman. Shuning uchun ham ularning aytganlarini qilishim kerak.

-Bilaman,- dedi chol. –O'zi shunday bo'lishi kerak.

-Otam bo'lsa, unga ishonqiramaydi.

-Ha,- dedi chol. – Biz esa ishonamiz. To'g'rimi?

-Bo'lmasa-chi. Istarsang yur, seni terasda pivo bilan mehmon qilaman, keyin asboblarni olib ketamiz.

-Xay, mayli,-dedi chol. Baliqchi baliqchini siylamoqchi ekan demak...
(Ch.D)

Chol bilan bola o'rtasidagi bu dialog bir jihatdan cholning xarakterini, uning insoniy qiyofasini ko'rsatsa, ikkinchi bir jihatdan yosh o'spirin obrazini to'g'ri talqin qilgan. Chol bilan bola o'rtasidagi munosabat

nihoyatda samimiy, ota va bola o'rtasidagi yaqin munosabatdek bo'lib tuyuladi. Bunda cholning nutqida ham notabiiylik sezilmaydi. Santyago o'zining hayoti davomida ko'pgina kishilarni ko'rgan, ko'p odamlar bilan munosabatda bo'lgan. Shuning uchun ham u bolaning o'ziga bo'lgan munosabatini yaxshi biladi. Bola ham cholning o'ziga bo'lgan munosabatini qalban his etadi. Bular o'rtasidagi haqiqiy insoniy munosabat nihoyatda tabiiy tasvirlangan. Mutarjim biz qayd qilgan fikrlarni to'la anglab yetganligiga aminmiz, chunki Santyago bilan bola o'rtasidagi bo'lib o'tgan gap so'zlarda asl nusxaga nisbatan ortiqchalik sezilmaydi.

Biroq biz Santyago bilan bola o'rtasidagi munosabatni asl nusxasiga muqoyasa qilganimizda ta'kidlab o'tilgan yaxshi fazilatlardan tashqari ba'zi bir nuqsonlar ham ko'zga tashlanadi. Aslida bu o'zbek tarjimoni xatosi bo'lmasdan, rus tarjimoniga xos bo'lgan kamchilikdir. Rus xalqida kattani o'zidan kichiklar ham bemalol "sen" deb aytaveradi. Bu ularga erish tuyulmaydi. Aksincha, ularga o'zini yaqin tutganidan shunday munosabatda bo'ladilar. Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarga asosan, yoshlar kattalarni "siz"lab gapirashadilar. Umuman ingliz tilida "sen" so'zi nihoyatda kam qo'llaniladi. "Sen" odatda ingliz tilida poetik so'z hisoblanadi. Bu so'zdan ko'proq poeziyada foydalaniladi.

Rus tarjimonlari chol bilan bola munosabatlarini juda yaqinligini nazarda tutib ingliz tilidagi "siz", "sen" so'zi bilan almashlab o'giran bo'lishi mumkin. Agar I.G'afurov xuddi rus tarjimonlari tutgan prinsipda o'zbek xalqidagi etik va odob nuqtai nazarida bola tilidan sizlab gapirganda edi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bolaning cholni "siz"lab gapirishining, uni hurmat qilishining ikkita sababi bor. Birinchidan chol bolani o'z farzandidek yaxshi ko'radi, borini ayamaydi. Ikkinchidan,

Santiago bolaga ustoz. Unga ovchilikning sirlarini o'rgatadi. Shu jihatdan ham bola uni dilidan yaxshi ko'radi.

Garchi chol ovdan quruq qaytsa ham unga birgalikda baliq ovlashga chiqajakligini aytadi. Qisqasi omadsiz bir kishining bola himoyachisi sifatida gavdalanadi. Qahramon o'rtasidagi bu samimiy munosabat kitobxonlar dilida ularga nisbatan xayrixoxlik uyg'otadi. Ularning kelgusi hayoti bilan qiziqadi. Bu avvalo, Xemingueyning yuksak san'atkorligining belgisi bo'lsa, o'zbek tilida shunga hamohang o'giran mutarjim I.G'afurovning ijodkorlik mahoratidir.

Bu o'rinda tarjimonshunos K.Chukovskiyning quyidagi fikrini eslash o'rinlidir: "Tarjimon avtor fikrining xarakterini, avtor xoh Shiller, xoh Anatol Frans yoki Geyne bo'lmasin, xuddi aktyor o'z rolining xarakterini tushunganday tushunishi kerak. Xuddi shuningdek, artist o'z qobilyatiga va tashqi qiyofasiga mos keladigan rol tanlab olganidek, tarjimon ham o'zi uchun, o'z qobilyatiga mos keladigan o'z temperamentiga barobar, o'z mahorati xarakteriga yopishib tushadigan tarjima tanlab olishi kerak".

Asl nusxada cholning nutqi bosiq va sodda. Uning so'zlarida boshidan ko'p narsalarni o'tkazganligi sezilib turadi. O'zbekchada ham shu xil xususiyat saqlangan. Mutarjim qahramonlar ichiga kirib so'zlashni uddalay olganligi bu nuntqda ko'zga tashlanadi:

"No" the old men said. "but we have. Haven't we?"

Asl nusxadagi bolaning cholga o'zining arzini aytayotgandagi Santyagoning fikrlariga munosabati shu tarzda beriladi. Ulardagi ishonch so'nmaganligi ularning omadsizligi vaqtincha ekanligi cholning bolaga bergan daldasida ko'rinadi. O'zbekchada mutarjim soddagina qilib: "biz esa ishonamiz. –

To'g'rimi?", tarzida o'zbekchalashtiradi. Choldagi samimiyat bolaga bo'lgan mehr shu bitta "to'g'rimi" so'zida aks etgan. Biz bu dialogni qiyoslar ekanmiz I.G'afurov va K.Chukovskiy ta'kidlaganidek Ernest Xeminguey tili bilan gapira olgan.

Yozuvchi yuqoridagi keltirilgan parchalarda chol bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatar ekan, asarning keyingi rivojiga zamin tayyorlaydi. Ulardagi xususiyat ochila boradi. Kitobxon qissadagi chol obrazini kengroq va chuqurroq his eta boradi. Tarjimon shu jihatdan ham olim tadqiqotchi tafakkuriga ega bo'lishi kerakki, u asardagi yozuvchi qo'llagan usullarni, detal va iboralarni mohiyatini anglashi kerak. Agar mutarjim ilmiy tafakkurga ega tadqiqotchilik qobilyati bo'lmasa, uning tarjima qilgan asarlari muvaffaqiyat qozona olmaydi. Ma'lumki chinakam asarda biror ortiqchalik, asarning rivojiga ta'sir qilmaydigan, qahramon xarakterini ochishga, umumg'oyaga xizmat qilmaydigan bironta so'z va ibora bo'lmaydi. "Chol va dengiz" shunday asar.

Asardagi bu parchani ko'raylik:

"How old was I when you first took me in a boat?"

"Five and you nearly were killed I brought the fish in to green and he nearly tore the boat to pieces. Can you remember?"

"I can remember the tail slapping and banging and the thwart breaking and noise of the clubbing". "I can remember you throwing me into the bow where the wet coiled lines were feeling the whole boat Shiver and the noise of you clubbing him like chopping a tree down and the sweet blood all over me."

"Can you really remember that or did I just tell it to you?"

I remember everything from where we first went together” (OMS. P. 25)

Ruschasi:

-Пять и ты чуть было не погиб когда ты встали в лодку совсем ещё живую рыбу и она чуть разбила не все в щепки , помнишь ?

- Помню , как она была хвостом и сломала банку и как ты громко колотил её дубинкой .

Помню , как ты швернул меня на нос , где лежали мокрую снасти, а лодка все дрожала, и твоя дубинка стучала словно рубили дерево и кругом стоял приторный запах крови

-Ты правда все это помнишь или я тебе рассказывал?

-Я помню все с самого первого дня когда ты взял меня в море (см. 565-566)

O'zbekchasi:

-Birinchi marta meni dengizga olib chiqqaningda yoshim nechada edi?

- Beshda. Qayiqqa tirik baliqni tortib olganimda u sal bo'lmasa hamma narsani chilparchin qila yozgan va sen ham bazo'r jon saqlab qolgan eding. Esingdami?

-Esimda. U quyrug'i bilan urib bankani sindirgan, sen esa uni to'qmog'ing bilan rosa do'pposlagan eding. Meni qayiqning mayda-chuydalari yotgan burniga irkitib yuborgansan. Qayiq zirrilab qaltiruvdi. Xuddi o'tin

chopganday to'qmog'ingni to'q-to'q ovozi eshitilib turuvdi. Hamma yoqni chuchmal qon hidi bosib ketgan edi. Bularning bari esimda.

-Rostdan ham bularning bari esingdami, yoki bularni keyin senga aytib berganmidim?

- Meni o'zing bilan dengizga olib chiqqan kuningdan tortib hammasi esimda(ChD,9).

Bola Santyagoni pivo bilan mehmon qiladi. Uning choldan ayrilgisi yo'q. Parchadan ko'rinyaptiki, chol bolani besh yoshligidayoq ovga olib chiqqan. Shu-shu bolaning mehri cholga, cholning mehri bolaga tushgan. Bolaning birinchi ovga chiqishini eslashi, cholning katta baliqni qayiqqa ag'darib olish va uni o'ldirishi bolaning xayolida o'chmas iz qoldirgan. Mutarjim bolaning o'ylarini o'girar ekan, asl nusxaga monand soddalikka intiladi. Bolani o'ziga xos ibora bilan gapirtiradi: "To'qmog'ing bilan rosa do'pposlagan eding" deydi. Ruscha nusxasida: "Ты громко колотил её дубинкой" tarzida beriladi. Asl nusxada bolaning fikri "The noise of the clubbing" shaklida berilgan. Bunda biz uchala tekstni ham qiyos qilar ekanmiz, mutarjimlarning asl nusxaga yaqin bir ohangda o'girganligini ko'ramiz. Bunda bolaga xos hayajon, o'sha ilk taassurotga bo'lgan munosabat sezilib turibdi. Rus tarjimoni bola nutqidagi emotsiyani aks ettirish uchun uning tilidan baliqni to'qmoq bilan urgandagi cholning zarbini bo'rttiribroq aytgani uchun "громко" so'zini qo'llaydi, originalida esa "noise" so'zi qo'llanilgan. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi rus tilidagi "громко"ga aynan yaqin emas. Bu yerda rus tarjimonlari ham, o'zbek tili variantining muallifi ham masalaning mohiyatidan kelib chiqib yondashganlar. Agar o'zbekchaga so'zma-so'z tarjima qilinganda "taraqlatib urding" kabi ifodlash mumkin edi. Bu o'rinda "rosa" so'zi mantiqan ham, bolalar nutqi jihatdan ham juda o'rinli qo'llanilgan. Suhbatning davomida chol boladan

ajablanib “bu voqeani o’zim aytib berdimmi?” deb so’raydi, biroq bola bu voqeani o’zining esida qolganini ta’kidlaydi.

Yozuvchi bolaning xotirasi to’g’risidagi bu voqealarni tasvirlashdan maqsadi, avvalo, bola xarakterini ochish bo’lsa, eng muhimi cholning bosib o’tgan yo’lini kitobxon diqqatini asta sekin tortib boradi.

Agar mutarjim bola nutqini uning tasavvuri doirasidan chiqib g’aliz tasvirlanganda edi, shu parchagina emas, umuman asar yo’nalishiga keyingi fikrlarning asoslanishga halal bergan bo’lar edi. Biz misol tariqasida keltirgan parchalar hali asarning debochasidir. Yozuvchi birinchidan kitobxon bilan o’z qahramonlarini tanishtirsa, ikkinchidan qahramonlarni kelgusi voqealarga hozirlaydi:

Inglizchasi:

“What do you have to eat?” the boy asked.

“A pot of yellow rice with fish. Do you want same?”

“No. I will eat home. Do you want me to make the fire?”

“No. I will make it latter on. Or I may eat the rice cold.”

“May I take the cast net?”

“Of course.” (OMS,27)

Ruschasi:

- “Что у тебя на ужин? спросил мальчик

- Миска желтого риса с рыбой. Хочеш ?

-Нет я поем домаю. Развести тебе огонь?

-Не надо. Я саь разведу попозже. а может, буду есть рис так, холодный.

-Можно взять сеть?

-Конечно (СМ.567)

O'zbekchasi :

- Kechki ovqatga nimang bor? – so'radi bola

-Bir tovoq sariq guruch bilan baliq. Yeysanmi?

-Yo'q, men uyda ovqatlanaman. Senga o't yoqib beraymi?

-Kerakmas, keyinroq o'zim yoqaman. Balki guruchni sovuqligicha yerman.

-To'rni olsam maylimi?

-Bemalol (CHD,13)

Bu dialog cholning hayoti, nochor ahvolidan darak beradi. Bola omadli ovchilar bilan ov qilib ancha muncha pul orttirgan, lekin cholni hech bir yegulik narsasi yo'q. Biroq bolaga yolg'ondan bir tovoq sariq guruch bilan baliq borligini aytadi va bolani ham yeyishga taklif etadi. Biroq aslida cholning yeyishga hech narsasi bo'lmaydi. Bola ham buni yaxshi biladi. Qisqasi chol bilan bola bir birlarini yaxshi tushunadilar. Tarjimada bu mazmun to'g'ri aks etgan. Tarjimon asl nusxada qanday bo'lsa , shunday ifodalaydi. Chol o'zida yegulik narsa bo'lmasa ham bordek samimiy munosabat bildiradi. Ikkisi ham shu o'rinda bir-birini aldayotganini his etib turadi. Bu ijobiy yolg'onlar inson ishonchini o'g'irlyadigan, sha'nini bulg'aydigan "yolg'on"lar emas, albatta. Qanday bo'lmasin, ular bir-birini aldab bo'lsada ovutishga harakat qiladi.

Biz keltirgan dialog asl nusxada nihoyatda qisqa va lo'nda so'zlar bilan berilgan. Tarjimon ham qisqalikka intilgan. Rus tarjimoni "можно взят сеть?" deya qilgan bolaning iltimosini chol bir og'iz so'z bilan "конечно " so'zini "bemalol" tarzida oladi. Shu "bemalol" so'zida gapdagi butun iztirob ham, "yolg'on"larning ifodasi

ham seziladi. Chunki bola so'ragan to'r qachonlardir sotilib ketgan. Bola ham buni juda yaxshi biladi. Chol to'rning yo'qligi uchun "bemalol" deytgani yo'q. Shu lahzada bolaga chol jonini berishga ham tayyor.

Biz Xeminguey uslubidagi qisqalikni ta'kidlar ekanmiz, adib asarlarining tarjimoni, tarjimachilik maktabini yaratgan katta olimlarimizdan biri bo'lmish Ivan Kashkinning quyidagi fikrini eslaymiz:

"Xeminguey badiiy mahoratga erishish uchun uzoq yo'lni bosib o'tdi. U bu yo'lda barcha mashaqqat va to'siqlarni yengib, ijodga xalaqit beradigan barcha narsalardan o'zini tortdi. Ana shunday ijod jarayonida o'zining "Telegraf" usulini tajriba qilib ko'rdi va sodda, qisqa fikrlarini aniq tasvirlaydigan uslubini yaratdi. Ba'zan bahsga doir ho'kizlar jangiga oid, baliqchilikka xos harbiy operatsiyalar, chunonchi ko'priklarni portlatish kabi qator texnik terminlar asarlarga zo'rlab kiritilgandek tuyuladi. Biroq Xeminguey tasvirida bu terminlar kitobxonga lug'atsiz tushunarli darajada ifodalangan bo'ladi. Qisqasi, Xeminguey tanlagan so'z va iboralar voqelik asar mantig'idan kelib chiqqan holda aks etgan. Tanlangan so'z va iboralar qay darajada ziqnalik bilan qo'llanmasin, kishini hayratga soladigan darajada avtor maqsadini aniq ko'rsatib beradi".¹

Haqiqatdan ham Ivan Kashkin ta'kidlaganidek badiiy adabiyotdagi qisqalik, "telegraf" usulida tasvirlash prinsipi, umuman jahon adabiyotida ham yangilik edi. Ernest Xemingueyning san'atkorligi faqat fikr yangiligida emas, ana shunday uslubiy yangiligida hamdir. Odatda bunday sodda usul bilan yozilgan asarlar ko'zga jo'ndek tashlanadi. Lekin uning yuksakligi ham shunday soddalikka borib taqaladi. Yozuvchi Ivan Kashkinga yozgan bir xatida asarlarini burjua tanqidchilarining tushuna olmayotganligini afsuslanib qayd qiladi. Kashkinning o'z asarlarini tushunishdan minnatdorchiligini bildiradi:

"Nima haqida yozganlaringni tushunadigan odamning bo'lishi qanday yaxshi. Menga xuddi shuning o'zi kerak. Bunga mening kimligimning ahamiyati yo'q. Bunda

¹ Ivan Kashkin. Dlya chitatelya sovrimeennika. (Stati I isledovaniya) Izdatelstvo "Sovetskiy pisatel" M. 1968str 41-42.

tanqidchilik kulgili bir holda. Burjua tanqidchilari hech nimani tushunmaydi, yangilik tarafdorlari bo'lmish kommunistlar esa, yangi g'oyalarga o'zlarini munosibdek his etadilar. Ular tanqidiy baholarida bid'at bo'lmasligiga kurashib, haqiqatgo'y bo'lishga intiladilar. Kim nimani yozmasin, ularning ishontirishlari qay darajada bo'lmasa, chinakam adabiyotga ularning dahli yo'q, ular o'z holicha qolib ketaveradi. Bizda yaxshi tanqidchi Edmund Uilson hisoblanadi. Biroq u yangi chiqqan kitoblarni o'qimaydi. Kaulle haqiqatgo'y ammo haddan ziyod keskin yangi qarashlari odamlari ajablantiradi. Nazarimda u ham kitob o'qishni to'xtatgan. Qisqasi, ularning barchasi mansabparast.

Agar biror narsa uchun birgalikda kurashishga to'g'ri kelsa, men o'zimga kimni yaqin olishni, kimga ishonishni bilmayman.”¹

Adibning ijodiga burjua tanqidchilarining munosabati xususidagi fikri o'zining o'sha jamiyatga bo'lgan munosabatning ifodasidir. Yaxshi degan munaqqidlardan biri kitob o'qishdan to'xtagan bo'lsa, ikkinchi bir tanqidchisi hayotga faol aralashuvidan sovlash arafasida. Ko'ryapsizki, burjua munaqqidlari iste'dodni avaylash o'rniga miyasiga qotib almisoqdan qolgan fikrlari bilan iste'dodlarni yo'ldan urishga harakat qiladi. Belinskiy ta'biri bilan aytganda, ba'zi bir odamning hayotga bo'lgan qarashi ma'lum vaqtga yetganda to'xtab qoladi. Hayot bilan teng rivojlanmaydi. Natijada bunday kishilar hayotdagi yangiliklarni tan olavermaydi. Bu xildagi kishilar o'sha miyasida qotib qolgan fikrning noto'g'riligini isbotlashdan ko'ra yangi bir fikrni ularga tushuntirish osonroq. Aytmoqchimizki, burjua munaqqidlaridagi adabiyotga bo'lgan mezonlari qotib qolgandir. Shuning uchun ham ularni e'lon qilinayotgan yangi kitoblarni o'qimasligidan Xeminguey kuyunib gapiradi.

“Chol va Dengiz” qissasi tog'risida gap ketganda ham yuqorida qayd qilingan fikrlarni bu asarga tadbiq qilish mumkin. Bu qissaga ham burjua tanqidchilari har xil munosabat bildiradilar. Xemingueyning o'zi ta'kidlaganidek, uni tushunadigan,

¹ Ivan Kashkin. Dlya chitatelya sovrimeennika. (Stati I isledovaniya) Izdatelstvo "Sovetskiy pisatel" M. 1968str 55-56.

u bilan hamkor bo'ladigan biror shaxs yo'q. Adib o'zini yolg'iz his etadi. Amerikaning barcha adiblari mana shu yolg'izlikdan nolishadi. Asarlarida ham yolg'izlik dardi aks etadi. Amerikaning buyuk yozuvchisi Teodor Drayzerning "Baxti qaro Kerri" asaridagi Kerri obrazi iste'dodlarning yolg'izlik fojeasini ochib bergan asardir.

"Chol va dengiz" qissasida ham E.Xemingueyning o'zi ta'kidlagan yolg'izlik dardi aks etgan. Har bir chinakam san'atkor o'ziga xos uslub bilan, o'ziga xos ovoz bilan kirib keladi. Yozuvchidag o'zig xoslik yillar davomida shakllanadi, bir butunlikka aylanadi. Adibning bu qissasi ko'p yillar davomida ijodiy mehnat mahsuli sifatda vujudga kelgan edi. Biz tahlil qilgan Santyago portreti, bolaning nutqi asarda kirishdek tuyuladi. Biroq asarning tuguni ham shu portret va nuqtalarda. Chol bilan bola o'rtasidagi suhbatdan yana bir misol

Inglizchasi: "And the best fisherman is you?"

No. I know other better

"Que va " the boy said. The re are many good fishermen and some great ones. But there is only you".

"Thank you make me happy.I hope no fish will come along so great that he will prove us wrong."

"There is no such fish if you are still strong as you say" (OMS. 32)

Ruschasi:

-А самый лучший рыбак на свете – это ты

-Нет, я знал рыбаков и получше

-"que va" – сказал мальчику- На свете немала хороших рыбаков, есть и проста замечательные . но таких как ты нету нигде.

-Спасибо Я рад что ты так думаешь. Надеюсь, мне не попадется чересчур большая рыба, а то ты ещё во мне разачеруешься

-Нет на свете такой рыбы есть лы у тебя и вправду осталось прежняя ссылаю

-Может и у меня меньше чем я думаю. Но споровка у меня есть и выдержки хватит (СМ.570-571)

O'zbekchasi: -Dunyoda eng chapdast baliqchi bo'lsa- sensan.

-Unday emas. Men ham zo'r baliqchilarni ko'rganman.

-Que va!- dedi bola. –Dunyoda yaxshi baliqchilar kam emas, juda ajoyiblari ham bor. Lekin sening oldinga tushadigani yo'q.

-Rahmat, agar sen shunday deb o'ylasang xursandman. Mnga juda ham katta baliq tushmaydi deb umid qilaman, aks holda, ishni do'ndirolmay qolib hafsalangni pir qilib qo'ymasam deb qo'rqaman.

-Haqiqatdan ham avvalgi kuching bo'lsa, dunyoda sen eplolmaydigan baliq topilmasa kerak.

-Balki ilgari kuchim qolmagandir. Lekin menda g'ayrat bor, chidamim ham yetarli. (ChD, 19-20)

Bu dialogda ham yozuvchi cholning xarakteriga, uning qigan ishlariga bola ko'zi bilan qaraydi va bola nigohi orqali uni xarakterlaydi. Ular o'rtasidagi suhbat nihoyatda samimiy. Manolindagi samimiylik azbaroyi tilyog'lamalik qilishdan emas. Uni “dunyoda eng zo'r baliqchi bo'lsa - sensan” – deb ta'riflaydi. To'g'ri bola ko'pni ko'rgan emas, hayot tajribasi kam, ammo bolaning ishonchini chol allaqachon oqlagan. Bola uning zo'r ekanligi his etadi. Kezi kelganda chol ham bolaning unga bo'lgan munosabatidan quvonadi. Ular bo'lgan bir qarashda ko'zga tashlanavermaydigan bu xil samimiyat belgilarini tarjimada berish oson emas. “Tarjimon voqeiylikni asarda ko'rsatilgani darajasida bilsagina, badiiy chin, haqqoniy tarjima yarata oladi”. Biz bu parchani asl nusxa bilan qiyoslar ekanmiz, mutarjimning chol va bola o'rtasidagi munosabatni to'g'ri tushunganligini ko'ramiz. Tarjimon ham san'atkor, deya bejiz aytilmaydi. I. G'afurovning san'atkor tarjimonligi shundaki, parchada yozuvchi nazarda tutgan mantiqni to'g'ri anglaydi va shunga yarasha ish tutadi. Misolimizdagi birinchi bolaning cholga nisbatan bergan bahosini eslaylik: “Dunyoda chapdast baliqchi bo'lsa – sensan”. Bu gap originalda shunday berilgan:

“And the best fisherman is you”. Uni rus tarjimonlari: - “А самый лучший рыбак на свете – это ты” deb o’g’irgan. Inglizcha nusxada “Eng yaxshi baliqchi sizsiz” deyilgan, rus tarjimoni asl nusxaga lug’aviy jihatdan juda yaqin o’g’irgan. O’zbek tarjimoni “The best”, “Самый лучший” so’zlarining o’rniga “Chapdast” deb oladi. Bu o’rinda mutarjimning mahorati Santyagoga bolaning bergan bahosidan kelib chiqib tarjima qilinganidadir. “Yaxshi” so’zi lingvistik nuqtai nazardan qaralganda “Chapdast” so’zidan farq qiladi, ularning lug’aviy ma’nolari boshqa-boshqa. Biroq ba’zi o’rinlarda sinonim vazifasini ham o’tashi mumkin. So’zlarning ma’no tashishi tekstda bog’liq , albatta . “Chapdast “ so’zini mutarjim to’g’ri tanlangan , chunki “yaxshi” so’zi umumiy baho bo’lsa , “chapdast “ so’zining ishlatilishi o’rinlidir . Masalan yaxshi odam , chapdast odam deyishimiz mumkin . Yaxshi olim , yaxshi duradgor , yaxshi o’quvchi deya atasak hech kim e’tiroz bildirmaydi . Lekin chapdast olim , chapdast o’quvchi deya olmaymiz . Chunki biz tilning qonunlariga xilof ish tutgan bo’lamiz. Chapdastlik chavandozlarga , polvonlarga, ovchilarga va boshqa hunar egalariga aytishsa, uzukka ko’z qo’ygandek bo’ladi.

“Chol va Dengiz” qissasidagi kirish sahifalariga ko’proq e’tibor berdik. Chunki san’at asarlarining asosiy bosh yo’nalishi ilk jumlasidan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. San’atkorlarimiz tajribasidan ma’lumki, ular shu zaminni shibbalab puxtalaydi. Shundan keyingina asosiy maqsadga o’ta boshlaydilar. Atoqli adibimiz Oybekning “Qutlug’ qon” romanidagi birinchi sahifasini eslaydigan bo’lsak, yo’lchining katta chang yo’ldan ne ne umid bilan tog’asinikiga kelishi va tog’asi bilan suhbatlari jazirama issiqda to’nka qo’porishi- bularning hammasi Yo’lchining kelgusi xayoti tasvitiga zamin edi.

Agar shu qayd qilingan san’atkorlar tasvirlangan asarning debochasini boshqa tilga o’g’iruvchi mutarjimlar tushurib qoldirsa yoki noto’g’ri talqin qilsa umuman asar tarjimasini muvaffaqiyatsiz chiqqan bo’lar edi. Tarjimon kitobning ilk sahifasidanoq xatoga yo’l qo’yar edi. I.G’afurovning tarjimonlik maxorati shundaki, san’at

asarining qonuniyatlarini anglagan holda Ernest Xemingueyning ijodiy prinsiplariga amal qilib ish tutdi.

Santyago xarakterini ifodalovchi pardalardan yana birini diqqatingizga havola qilamiz

Inglizchasi: He was sorry for the birds, especially the small delicate dark terns that were always flying and looking and almost never finding, and the heavy strong ones. Why didn't they make birds so cruel and it comes so suddenly and such birds that fly dipping and hunting with their small sad voices are made too delicately for the sea'' (OMS, 35-36)

Ruschasi:” птиц он жалел особенно маленьких и хрупких морских ласточек б которые вечна летают в поисках пищи и почти никогда ее не находят и он думал: «птичья жизнь многа тяжелее нашей , если не считать стеревников и больших, сильных птиц . Зачем птиц создали такими хрупкими и безпомищыми, как вот эти морские ласточки, если океан порой бывает так жесток? Он добр и прекрасен, но иногда он вдруг становится таким жестоким, а птиц которые летают над ным ныряя за пищей и перекликалась слабыми, печальными голосами,- они слишком хрупки для него» (СМ. 573)

O'zbekchasi:” Chol qushlar va ayniqsa betinim oziq axtarib uchgan ammo deyarli hech qachon uni topolmaydigan jimjit va nozik dengiz qaldirg'ochlariga achinib ketar va : qushlar turkumi qironqora va katta qushlarni hisobga olmaganda bizning kun kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir. Okean gohida shu qadar berahm bo'lar ekan, nima uchun kishilarni mana shu dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va shikasta qilib yaratar ekan. Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shavqatsiz bo'lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib, ojiz va mungli ovoz bilan birbirlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi” – deb o'ylardi (ChD,25-26)

Biz yozuvchi tasvirida asar qahramoni Santyagoning bolaga bo'lgan munosabatini oldingi keltirilgan tarjima parchalarimizda ko'rgan edik. Muallif gapdagi prinsipini

bolaga bo'lgan munosabatidagi emas, uning tabiat va hodisalarga, qushlar-u, dengiz jonivorlariga bo'lgan qarashlari orqali ham ko'rsatadi. Santyago bola bilan xayrlashib, dengizga chiqib ketgach uning o'y va xayollari orqali bilamizki u o'zidan ko'proq tabiat yaratgan mavjudodlarga qayg' uradi. Uning qayg'urishlari shunchaki xayol emas, ularga o'zining insoniy munosabatini bildiradi. Hatto u dengiz qaldirg'ochlariga achinadi. Ularning hayoti o'z kasbdoshlari mehnatkashlaridan yaxshi emasligini ta'kidlaydi. Birinchidan, bu parcha Santyago xarakteridagi gumanizmni ko'rsatadi, ikkinchidan, shu dengiz qaldirg'ochlariga o'xshash ojiz zo'rg'a kun kechirayotgan mehnatkashlarning nochor hayotini ifodalaydi. Bu fikr asarning ilk sahifalaridan boshlab Santyagoning o'ylari, fikrlari orqali ta'kidlanib boradi. Asardagi umumg'oyaning portlovchi manosiga xizmat qiladi. Mutarjim asardagi gapning bu xil o'ylarini tarjima qilishda uning ruhiy holatini nozik his etadi. Chol hayolidan kechgan fikrlarni asl nusxaga nisbatan mustaqil yaratishga xarakat qilgan. Tarjimon ham dengiz va dengiz osmonida uchib yurgan qushlar tasvirini samimiy tasnif qiladi. O'zbekcha tarjimasining jozibadorligi shundaki, I.G'afurov shoir bo'lmasa ham, u tabiatan shoir, tabiat manzaralarining shaydosi. Tarjimondagi hayotga nisbatan bo'lgan estetik munosabat, go'zallikni go'zallikcha ulug'lashdir. Uning tanqidiy maqolalarini o'qiysizmi, tarjima asarlarini o'qiysizmi, barchasida yorug' ruh mavjuddir.

Ma'lumki, tarjima asarlari xususida gap ketganda, avvalo, biz tilga e'tibor berishni ko'proq nazarda tutamiz. Til adabiyotning asosiy elementi bo'lgach, unga jiddiy etiborni qaratish lozim. Biroq badiiy asarning o'ziga xos qonuniyatlari mavjuddir, ularni idrok qilmasdan tarjimaga yondashish mumkin emas. Bugungi kunda qilinayotgan va qilingan tarjima asarlari tematik jihatdan nihoyatda rangbarang. Tarjimon asar tarjima qilish jarayonida uning mavzusiga ham e'tibor berishni, shu mavzuga oid materiallar bilan tanish va notanishligini, ya'ni bilishi hisobga olish kerak. "Chol va Dengiz" qissasi tematik jihatdan baliqchilar hayotini tasvirlagan asardir. Shu ma'noda tarjimon baliqchilikdan ham xabardor bo'lishi kerak. Asardagi

ba'zi o'rinlarda mutarjimning bu soha – baliqchilik kasbi bo'yicha ancha – muncha xabardorligi seziladi, lekin ba'zi o'rinlarda baliqchilikka xos bo'lgan ayrim so'zlarni to'g'ri ifodalagan. Natijada bir umr baliqchilikni kasb qilib kelgan inson nutqidagi g'alizlik kitobxonda shubha uyg'otadi.

Chunonchi, Inglizchasi: “ He'll take it “, the old man said aloud. “ God helps him to take it”(OMS,44).

Ruschasi: “-Ключет, - сказал стари вслухю – Ключет. дай ей здоровья!”

O'zbekchasi: “-Cho'qiydi, - dedi chol ovoz chiqarib. –Cho'qiydi xudoyo dard ko'rmagur.” (ChD, 40)

Bu misolimizda mutarjim “cho'qiydi” so'zini baliqqa nisbatan qo'llagan. Odatda qarmoqqa tushadigan baliq xo'rakni turtkilab ko'radi. Shu turtkilash natijasida qarmoq po'pagi tebranadi, suvga goh-goh cho'mib chiqadi. Agar biz baliq cho'qiydi deganimizda qarmoqning po'pagi tamoman boshqa harakatga kelar edi. Cho'qish bu qushlarga nisbatan qo'llaniladigan so'zdir.

Bu parchadagi baliqqa nisbatan: “Xudoyo dard ko'rmagur “ iborasi to'g'ri qo'llanilgan. Ayni chollarning o'ziga xos bo'lgan xarakterli iboralaridir. Bu ibora inglizchada “xudo unga xo'rakka ega bo'lishida yordam qil ma'nosini anglatadi. Ruschasida:”...ключет, дай ей бог здоровья” shunday o'g'irgan tarjimon I.G'afurov ruscha nusxasidan aynan tarjima qilgan. Agar biz asl nusxadagi mazmun bilan ruscha va o'zbekcha variantlarini qiyos qiladigan bo'lsak, originalda nisbatan ancha uzoq mazmun chiqib qolgan. Lekin chol xarakteridagi yumshoq tabiatlilik baliq bilan bo'lgan xayolan do'stona munosabati cholning tilida “... xudoyo dard ko'rmagur!” deya tilak tilashi ayni muddao bo'lgan. Asl nusxa mazmuniga zid emas.

Cholning baliqqa bo'lgan munosabati mana bu misolimizdagi nutqida yana ham ochiqroq ko'rinadi:

Inglizchasi:” this far out, he must be huge in this month, he thought. Eat them fish. Eat them. Please eat them. How fresh they are and you down there six hundred feet in

that cold water in the dark. Make another turn in the dark and come back and eat them...

“Come on”, the old man said aloud. Make another turn. Just smell them. Aren't they lovely? Eat them good now and then there is the tuna. Hard and cold and lovely? Don't be shy, fish. Eat them.” (OMS, 44)

Ruschasida:” так далеко от берега, да ещё в это время года, рыбаб неверно, огромная ещъ рыба.....”

O'zbekchasi: “ Qirg'oqdan shunchalik olisda, yana yilning mana shu faslida baliq juda ham katta bo'lsa kerak. Yeyaver. Yegin endi ol, yegin. Sardinlar biram mazali, sen bo'lsang juda ham sovuq qotgansan , osti yuz fut chuqurlikda suv juda ham sovuq va qop qorong'u bo'ladi.Qo rong'uda bir marta aylanib kel, orqangGa qayt va ol, ye, yeyaver!”. bo'la qolsang-chi, -dedi chol ovoz chiqarib,- yana bir burilib kel. Hidini qara hidini. Qanday ajoyib-a to'g'ri emasmi? To'yib-to'yib yeb ol! Keyin qarabsanki, tunesni totib ko'rish gali keladi! Axir u shunday ham so'lkillagan, muzdakkina, bir shirinki, qo'yaverasan. Qisinib-qimtinib o'tirma, baliq. Echin, ol, esangchi, o'tinaman sendan.(CH D,39-40).

Tarjimon Santyago xarakteridagi bu xil o'z oviga bo'lgan do'stona munosabatini, undagi bolalarcha soddalikni tabiiy bir ravishda aks ettirganki, mutarjimning chol ruhiga uning pisixologiyasiga chuqur kirib borganligidan darak beradi. Bu o'rinda shuni qayd etish mumkinki, I.G'afurov yozuvchi tasvirlagan voqealikni o'z tushunchasi doirasida cheklanib qolmaydi. U til xazinasidan ohori to'kilmagan so'zlar tanlay oladi. Uning tanlagan so'zlari qahramon xarakteri, mantiq, so'zlash manerasiga ko'pincha to'g'ri tushadi. Yuqorida keltirilgan parchamizda quyidagi misollarni keltirish joizdir:” Sardinlar biram mazaliki,” “hidini qara, hidini”, “shunday ham so'lqillagan, muzdakkina, bir shirinki, qo'yaverasan”. Bular mutarjim tomonidan nihoyatda topib ishlatilgan so'zlardir. Ruscha nusxadagi:»свежение», o'zbekchaga “mazali”, deb oladi, “ не стесняйся” so'zini “qisinib qimtinib o'tirma” so'z birikmasi bilan ag'dargan. Mana shu so'zlarning lug'aviy ma'nosi haqida

gapiradigan bo'lsak, "mazali" o'rniga "toza", "yangi", "qisinib qimtinib o'tirma" o'rniga "uyalma" tarzida olish mumkin edi. Shunda ham asl nusxa mazmuniga xalal bermagandek tuyulardi. Har bir so'zning grammatik, stilistik o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Tarjimon ana shu so'zlar ichidan eng muhimini tanlay bilishi kerak.

Shoir va yozuvchi asar yozayotganda, uning erkinligi ma'lum ma'noda cheksizdir. Ammo mutarjimning erkinligi esa chegaralangan. Uning o'sha belgilangan doiradan tashqariga chiqib ketishi mumkin emas, aks holda mutarjim xato yo'l qo'yishi mumkin. Tarjimonning erkinligi, uning asl ijodkorligi asl nusxa doirasida bo'lishi lozim. I.G'afurov yozadi: "Bir yosh shoir o'zini maftun qilgan go'zalni tariflab "ol yuzlari sutday oppoq" deb yozibdi. Yuzlari oppoq bo'lsa, demak ol (qizil) emas ekan-da yoki yuzlari naqsh olmadek bo'lsa, demak sutdek oppoq emas ekanda. Balki oqi-oq, qizili qizildir. Lekin shoir chizgan g'o'zalning portretida so'zdan boshqa hech narsa ko'rinmayapti. So'z bo'lsa-yu ifodasi bo'lmasa bu ham qiyin savdo ekan, Shuning uchun xalqimiz oti bor-u o'zi yo'q deb qo'yan ekan shekilli"¹

Mutarjimning bu fikrlari uning so'z tanlash, tilga e'tibor kabi qator xususiyatlar uchun ijodida prinsip darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. I.G'afurovning o'zi qayd qilganidek yuqorida biz keltirgan misollarni, ya'ni "qisinib qimtinib" ni "uyalmay", "mazali"ni "toza", "yangi" shaklida qo'llaganida edi, Santyago obraziga xos bo'lgan xususiyatlarning ifodasi sust bo'lib, "oti bor-u o'zi yo'q" qabilidagi bir inson tasviri vujudga keladi.

Asarning davomida Santyagoning qarmog'iga baliq ilinganining guvohi bo'lamiz. Baliq bo'lganda ham nihoyatda yirigi qarmoqqa tushadi. Yozuvchi bir so'z bilan "qarmoqqa katta baliq ilindi", deb aytib qo'ymaydi. Qarmoqqa baliqning qanday tushishi orqali omadi yurishmagan cholning ichki kechinmalarini tasvirlar ekan, yozuvchining g'oyaviy niyati oydinlasha boradi. Santyago eng tajribali, eng chapdast baliqchi. Qarmog'iga tushgan baliqni

¹ Ibrohim G'agurov. Yam-yashil daraxt. Toshkent.1976. 229-bet.

ko'rmasa ham u qalban his etadi. Uni tutish paytida turli xil tadbirlar ko'radi. Cholning tadbirkorligi yozuvchining shunchaki tasviri emas, muallif undagi bu tadbirkorlik xarakter mantig'idan keltirib chiqaradi. I.G'afurov esa bizning nazarimizda birinchi galda tarjimon sifatida ko'zga tashlansa, ikkinchi galda sinchkov kuzatuvchi sifatida ko'rinadi. Bizning bunday deyishimizning boisi shundaki, asarning o'zbekcha nusxasini o'qiganda tarjimonning g'oyat sinchkov kuzatuvchi ekanligi namoyon bo'ladi. Biz poyonsiz dengiz ichida mo'jazgina bir qayiqda o'zi bilan o'zi ovora bo'lib yurgan bir qariyani ko'z oldimizga keltiramiz. Bu xildagi suratlarni asliga yaqin tasvirlash mutarjimdan oz muncha mehnat talab etmaydi. Asarning shu o'rinlariga kelganda chol xarakteridagi umuminsonga xos bo'lgan yana bir muhim belgi ko'zga tashlanadi. Bu ham bo'lsa, qariyalarga xos ehtiyotkorliklardir.

Inson hayotining ma'lum bir bosqichga yetgach, undagi shiddat kurashchanlik, tadbirkorlikka aylanadi, chunki yosh bir joyga yetgach, ko'ngil shiddatkorlikni, jangovorlikni qo'msamasin, uning jismidagi keksalik o'z deganini qiladi. Tadbirkorlik bu ayyorlik emas, albatta. Biz asarning davomida cholning tadbirkorligini ko'rib boramiz. Baliq kemani butun kuchi bilan tortib sudrab ketadi. Santyago baliqning kuchli ekanligini, dag'al qaltis xarakter qilsa, uni halok qilishini chuqur his etadi. Choldagi bu hissiy tuyg'u uning tadbirkorlik bilan ish tutishiga majbur etadi. O'zbekchada I.G'afurov qarmoqqa ilingan baliqning shiddatli xarakterini ifodalaydigan juda ajib bir so'z qo'llaydi. Bu so'z parcha mazmunini nihoyatda yorqin ochib yuborgan.

Inglizchasi: "he knew what a huge fish this was..." (OMZ, 45).

Ruschasi: "он знал, как велика это рыба..." (CM,580)

O'zbekchasi: "chol bu baliqni qanchalik potli ekanligini bilar..." (ChD, 41)

O'zbekchada I.G'afurov baliqning kattaligi ma'nosida "potli" so'zini qo'llagan bo'lsa, u ingliz tilida "huge" (bahaybat) mazmunida keladi. Rus tilida u "велика" deb olingan. Agar biz bu so'zlarni uch til nuqtai nazaridan qiyos

qiladigan bo'lsak rus tili varianti originaliga yaqin, deyarli o'zgarishsiz olingan. O'zbek tilida “potli” so'zi rus tilida “велика” (katta), ingliz tilida “huge” (bahaybat) so'ziga to'g'ri kelmaydi. Bu o'rinda tillar orasidagi farq xususida gapirishdan ko'ra, mutarjimning topqirligi borasida so'zlamoq lozim o'xshaydi. Chunki bu so'zni semantik nuqtai nazaridan qaralganda originalga xos tushmaydi, u ko'proq ish harakatini bildirib keladi. Bu so'z kontekstda ham sifat vazifasi, ham fe'l vazifasini o'tagan. “Potli” ning sinonimlari odatda “tez”, “shiddat”, “sur'at” va hokazo so'zlardir. Tarjimon kontekstdan kelib chiqib baliqni nihoyatda qattiq kuch bilan qarmoq chilvirlarini pastga tushurishni nazarda tutgan holda bu “potli” so'zini qo'llaydi, natijada mutarjim obrazli qilib aytishimizda “bir o'q bilan ikki quyonni uradi”.

E.Xemingueyning “Chol va dengiz” qissasi tarjimasi xususida gapirar ekanmiz tarjimon yutug'ini o'sha davr adabiy sahiyasini nazardan soqit qilish mumkin emas. Har bir yangi hodisaning vujudga kelishida muhitning roli katta. “Chol va Dengiz” qissasining kirib kelishi o'zbek adabiyotining tub burilish davri bilan bog'liqdir. I. G'afurovning ham yutug'i o'sha davr adabiy jarayonidagi intensiv harakatining belgisi sifatida ko'zga tashlanadi.

Tabiatni muhofaza qilish undan oqilona foydalanish, XX asrning muhim masalasi bo'lib qoldi, 60- yillarga kelib bu masala jahon adabiyotida, eng jiddiy, eng aktual muammolardan biri bo'ldi. Xeminguey Chol jasoratini, uning irodasini har narsaga qodir bo'lgan qudratini, tabiatni payxon qilish nuqtai nazaridan ulug'lamaydi, u baliq oviga borganda baliqni ko'p tutib, foyda orttirish uchun emas, o'z kunini ko'rish uchungina bu ishga qo'l uradi. Uning dengizga yashovchi jonivorlarga bo'lgan munosabati nihoyatda ezgu. Ularga behuda ozor berishni xayoliga ham keltirmaydi. Cholning qayig'ini qarmog'iga tushgan baliq unga bo'yin egmay, sudrab olib ketar ekan u baliq bilan kurashish jarayonida ko'p narsalarni o'ylaydi, ko'pgina xotiralar yodiga keladi. U o'zining ovchilik hayotida sodir bo'lgan voqealardan birini shunday xotirlaydi:

Bir kuni cholning qarmog'iga baliq ilindi. Baliqlarning erkagi avvalo, o'zi yo'l berib ovini urg'ochisiga berar ekan. Ana shunday bir paytda cholning qarmog'iga urg'ochi baliq ilinadi. Chol baliqni qarmoqdan olib toki saramjonlaguncha erkak baliq atrofidan ketmaydi. Chol xayolida bu hodisani shunday gavdalantiradi:

Inglizchasi: that was the saddest thing I ever saw with them, the old man thought. The boy was sad too and we begged her pardon and butchered her promptly. (OMS, 49)

O'zbekchasi: "Dunyoda men bunchalik qayg'uli bo'lgan boshqa hech narsani ko'rmagan edim,- deb o'yladi chol. Bola ham mayus bo'lib qoldi va moda baliqdan kechirim so'rab, ko'z oldida saragini sarakka puchagini puchakka ajratgan edi".

Mana shu cholning xayollari undagi bo'lgan hamma narsaga mehr bilan qarashning bir belgisidir. Garchi u ovchi bo'lmasa ham rizqi, qozonning qaynashi shu dengizga bog'liq bo'lsa ham, undagi dengiz jonivorlariga bo'lgan mehr- muhabbat zarracha ham susaymaydi. U o'zining rizq-u ro'zi bo'lgani uchungina ularga mehr bilan qaramaydi. U insoniyatga qanday munosabat bilan qarasa, dengizdagi barcha jonivorga ham shunday bir iliqlik bilan qaraydi. Asardagi bu xil tasvir Santyagodagi insonga xos bo'lgan chuqur gumanizmni ko'rsatadi. Bu esa yozuvchining hayotda bo'lgan estetik qarashlarining, insoniyatga bo'lgan qarashlarining belgisidir. Santyago xarakterining bu xil berilishi, avvalo ta'kidlab o'tganimizdek, birinchidan yozuvchining g'oyaviy niyati bo'lsa, ikkinchidan yozuvchi shaxsiyatidagi ulug'vorlik fazilatidir.

Odatda ovchi bitta quyon o'tsa yoki biron baliq tutsa, uning qizig'iga qancha ko'p otganini, qancha ko'p baliq tutganini ixtiyorsiz ravishda bilmaydi. Asarda esa chol erkak baliqning sadoqatligiga qoyil qolib undan kechirim so'raydi. Seni ham tuta olmadim deb afsuslanmaydi. Asarning bu o'rinlari tarjimada qaynoq his bilan yog'ilib o'girilgan. Choldagi baliqqa qayg'urish,

uning ichki kechinmalari og'ir bir dardchil tuyg'u bilan ifodalanadiki yozuvchi ko'zda tutgan maqsadni mutarjim I.G'afurov nihoyatda teran anglaganini ko'rsatadi. Biroq mutarjim baliqqa nisbatan ularning jinsini ajratadigan "nar" va "moda" so'zlarini ishlatganligi bizning nazarimizda sag'al bo'lmasin yopishmay turganga o'xshaydi. Chunki o'zbek tili xususiyatlaridan kelib qaraganimizda hayvonlarga nisbatan "moda" so'zi kam ishlatiladi. Tuyadan tashqari hech bir hayvonga "nar" so'zi qo'llanilmaydi. "Nar va moda" so'zlari odatda bizda ko'proq qushlarga nisbatan beriladi. Biz shu nuqtai nazardan qaraganimizda baliqlarning hayvon sifatida uni "nar" yoki "moda" deyish uncha o'rniga tushmagandek tuyuladi chunki suv hayvonlari deganda birinchi galda baliq ko'z oldimizga keladi. Shunday ekan baliqqa nisbatan "nar" yoki "moda" deyish to'g'ri bo'lmasa kerak.

Biz "Chol va Dengiz" tarjimasini kuzatganimizda atoqli tarjimashunos Irji Leviyning quyidagi fikrini ta'kidlab o'tish lozimdir: "... badiiy asarning haqqoniyligi – uning voqeiylik bilan bir xildagi emas, balki voqealikni gavdalantirib berishi va namoyon qilinishida zohir bo'ladi...". Tarjimaning haqqoniyligi esa asliyatdan nusxa ko'chirish emas, balki uning mavjud muhim xususiyatlarini kitobxonga yetkazib berishni talab qiladi. Tarjima asl nusxaga teng kelolmaydi, lekin u kitobxonga aynan asl nusxadek tasir etishi lozim. Biroq tarjima o'quvchisi asl nusxa o'quvchisiga nisbatan boshqacha bilim manbaiga va o'zgacha estetik tarbiyaga ega ekanligini nazarda tutmoq kerak. Shunga ko'ra asl nusxadan shundoqqina nusxa ko'tarib qo'ya qolganida u ko'p narsani tushunmagan va ko'p narsani to'g'ri anglamagan bo'lar edi. Tarjimon asl nusxa matnning shakily namoyishini emas balki uning ma'no estetik fazilatlarini hamda bu fazilatlarini o'quvchilarga yetkazishga xizmat qiladigan vositalarni saqlashi zarur. Realistik tarjimonning prinsipi ana shunday".

"Chol va Dengiz" asarining o'zbekcha nusxasini o'qiganimizda tarjimashunos Irji Leviyning fikrlarini anlaymiz. Chunki realistik tarjima

bo'lishi uchun asarning o'zi realist bo'lishidan qat'iy nazar tarjimon ham realist bo'lishi kerak. Xuddi shu ma'noda "Chol va Dengiz" qissasi o'zining realist tarjimonini topgan. I. G'afurov tarjimondan ko'ra chol xarakteridagi asosiy nuqtalarini umumiy insonga xos bo'lgan fazilatlar timsolida yozuvchi Ernest Xeminguey tasvirlagan mazmunda idrok etadi. Mutarjimdagi bu hissiy sezgirlik, ya'ni savqi tabiiylik chinakam ijodkor sifatida ulug' yozuvchi E.Xemingueyni tushunishga olib kelgan. Shuning uchun ham asarni o'qish jarayonida yuqorida qayd qilib o'tganimizdek I.G'afurov tarjimondan ko'ra sinchkov kuzatuvchi sifatida ko'zga tashlanadi. U yozuvchiga ham ancha - muncha bo'ysunavermaydi. To'g'rirog'i, asl nusxadan nusxa ko'chirmaydi, u asarning muhim xususiyatlarini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi.

Yozuvchi chol akulani ko'rganidan keyingi o'y va xayollarini beradi. Cholning ilgarigi akulaga duch kelishidan shubhasi endi real haqiqatga aylanganini ko'rsatadi. Tarjimon choldagi bosiq ruhni uning ichki g'alayonini chuqur his etadi va uni o'zbekchalashtirishda juda mos so'zlarni topishga harakat qiladi. Agar biz keltirgan ko'chirmaning ilk satridagi cholning „Ish yaxshi ketayotgandi, biroq bunday bo'lishi mumkin emas edi.” degan jumlasini mutarjim „Hamma ish xamirdan qil sug'urganday borayotgan edi.” jumlasini bilan cholning ichki iztiroblarini ifodalaydiki, Santyagoning yuragidan sirqirab chiqqan bu so'zlar kitobxonga yoqmay qolmaydi. Mutarjim tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanib, oddiy bir ibora bilan chol nutqidagi mazmuni juda lo'nda qilib, teran ma'nosi bilan ifodalaydi. Bu ko'chirmani asl nusxa bilan qiyoslaganimizda ingliz tilida bunday ibora yo'q. „Ishning davom etishi ancha yaxshi edi” qabilida(“It was too good to last”) beriladi. Inglizcha va o'zbekcha nusxalarini qiyosan tahlil qiladigan bo'lsak, asl nusxadagi cholning soddagina „ish yaxshi ketayotgandi” deya achinish bilan aytgan so'zlari o'zbekchada sag'al bo'lmasin murakkabdek tuyuladi. Biroq „xamirdan qil sug'urganday” iborasi bizning jonli tilimizda, ayniqsa, chollar tilida ko'proq qo'llaniladi. Umuman, yoshlar bunday ibora va maqollarni o'z nutqida ko'p ham qo'llayvermaydi. Cholning yoshiga

nisbatan I.G'afurovning ishlatgan bu iborasi asarning xuddi shu o'rinda keksalar xarakteriga xos mantiqni kissaning umumg'oyaviy yo'nalishiga singdirib yuborganki, Santyagoning ruhidagi tashvish kitobxonlar qalbiga g'ulg'ula soladi. Qisqasi, mutarjim so'zlarga qanot bag'ishlaydi. Bu qanotli so'zlar yozuvchining ko'zlagan maqsadiga bemalol etadi.

Mutarjim I.G'afurov keltirgan „xamirdan qil sug'urganday" iborasini shu asar qahramoni Manolin tilidan gapirtirganda edi, bu bola xarakteriga mos tushmagan, yozuvchining ilgari surgan fikrini, xarakter yaratish prinsiplarini buzgan bo'lar edi. Odatda, ibora va maqolalarni, so'z birikmalarni o'z nutqida qariyalar ko'proq ishlatadi. Bu xususiyat barcha xalqlarning keksalariga xos belgidir. Shuning uchun ham tarjimon originalda bo'lmasa ham bemalol asar qahramoni Santyago tilidan ishlatadi. Bu xil xususiyat tarjimonning chinakam ijodkorligidan dalolat beradi.

Shu keltirilgan misolimizning oxirgi jumlasida: "Bad luck to your mother" shunday cholning xayolidan o'tgan fikr bor. Uning tarjimasi o'zbekchada „Padaringga ming la'nat" tarzida berilgan. Bu so'kinch chol g'azabining nihoyatda qaynoq bir paytida xayolidan o'tadi. Akulaga qarab aytilgan bu so'kinch o'zbekcha tarjimasida I.G'afurov o'zining prinsipiga xos ijodiy yondoshadi. Originalda ham bu so'kinch akulaning onasiga nisbat berilgan. Bu o'rinda ham mutarjim o'zbek xalqining milliy an'anasidan kelib chiqqan. Ko'pchilik hollarda jahli chiqqan kishilar „padaringga la'nat" iborasini ko'p ishlatadilar. Bu jihatdan mutarjim haq. Biroq tarjimon cholning bu so'kinchini o'zbekcha nusxasida „seni tuqqanga la'nat" deb olganda yana ham asl nusxaga yaqinroq bo'lar edi.

Mutarjim I.G'afurov choldagi ma'yus ruhni, undagi tushkinlik belgilarini, uning xayolidan kechkan har xil o'ylarni izchillik bilan kuzatib, oddiy shtrixchalarga e'tibor beradi. Natijada tarjimada cholning bu ruhiy holatlari kitobxonni ishontiradi, uning taqdiriga sherik bo'ladi.

Inglizchasi: It was too good to last, he thought. I wish it had been a dream now and that I had never looked the fish and was alone in bed on the newspaper. "But man

is not made for defeat ” he said.”A man can be destroyed but not defeated”. I am sorry that I killed the fish thought, he thought. Now the bad time is coming and I do not ever have the harpoon. The dentuso is cruel and able and strong and intelligent. But I was more intelligent then he was. Perhaps not, he thought. Perhaps I was only better armed.(OMC,84).

O'zbekchasi:Ishlarim haddan ziyod silliq ketayotuvdi. Buning uzoq davom etishi mumkin emasdi. Mendan hozir tila tilagingni deyishsa bularning bari tush bo'lib qolishini tilardim:baliq-maliq tutdingmi – Yo'q, gazetalar to'shalgan kravotingdan yallo qilib yotibsanmi yotibsan.,tamom, vassalom edi.

- Ammo inson bolasiga yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverishi uchun yaratilmagan, - dedi u.- Odamzotini yanchib tashlash mumkin, biroq uni bo'ysindirish mumkin emas.

„Har qanday baliqni o'ldirganim uvol bo'ladi, deb o'yladi u,- endi menga juda og'ir tushadi hatto garpundan ham mosuvo bo'ldim.Dentuso chaqqon va yovuz, aqli kuchli maxluq. Ammo men undan ham aqlliroq bo'lib chiqdim. Balkim aqlliroq ham emasdirman.Ehtimol hammasi durustroq qurollangan bo'lganligimdandir” (CHD,107-108)

Yozuvchining konsepsiyasi xuddi shu parchalarda namoyon bo'ladi. Barcha ulug' san'atkorlarga xos fazilat shundaki, ular yaratgan qahramon insonning ulug'ligini, nimalarga qodir ekanligini yaqqol ko'rsata oladi. Ular uchun o'rtacha tasvir, mujmal xarakter bo'lmaydi. Agar yozuvchi Ernest Xeminguey o'z maqolasida yoki nutqida aforizm darajasiga ko'tarilgan “Odamzodni yanchib tashlash mumkin, biroq uni bo'ysundirish mumkin emas” degan fikrni aytganida edi, chol –qahramon tilidan ayganchalik butun insonning qudratini namoyish eta olmagan bo'lardi. Chunki chol katta bir nahangni o'ziga bo'ysundirib, tutib olgach, uning balig'iga hujum qilgan yaxshiy akulani ham o'ldirgach, boshi aylanib, bir aftodahol vaziyatga tushgan paytida yana o'ziga dalda berib, bu fikrlarni aytadi. Bunday holatda insonga berilgan sifat har qanday madhiyadan ta'sirchanroq va qimmatliroq. Santyagoning bu o'ziga

bergan daldasi o'zbekchada aforizm darajasida ko'tarilgan. Mutarjim cholning bu fikrlarni nihoyatda ehtirom bilan qadrlab o'giradi.

Ernest Xemingueyning tabiatga munosabati, odamlarga bo'lgan munosabati, undagi borliq dunyoga bo'lgan munosabati kishini hayron qoldiradi. U cholning aftodahol holatini tasvirlar ekan hatto vaxshiy akulani o'ldirishdan afsuslanadi. Chol akulani suvda cho'kib borayotgan holatiga termulib turib, uni o'ldirganiga achinadi. Chol akuladagi epchillikni hayolidan o'tkazar ekan, o'zining g'alabasidan xursand bo'lmaydi. Aksincha g'alabasini o'zining qurollanganligidan deb biladi. Bu ham bo'lsa Ernest Xemingueyning insonga bo'lgan, tabiat yaratgan boshqa mavjudotlarga bo'lgan gumanistik qarashning belgisidir.

Biz misol tariqasida keltirgan parcha tarjimasida xususida gapirganimizda I.G'afurovning E. Xeminguey haqidagi quyidagi fikrni qayd qilmay o'tish mumkin emas:" Xemingueyning fashizmga bo'lgan nafrati qanchalik kuchli bo'lsa, uning insonga, uning kuch va irodasiga, oliyjanob intilishlariga bo'lgan munosobati ham beqiyos ulug' edi. Mana shu muhabbat, ayniqsa uning "Chol va dengiz" qissasida chuqur aks etadi. Bu jahonga mashhur qissa kuchli ramziy ma'noga egadir. Xeminguey inson olamga kelib, kurashdan to'xtamaydi, uning irodasi yengilmas demoqchi bo'ladi. Keksa baliqchi Santyago dengiz, baliq, akulalar bilan kurashda jismoniy jihatdan yengilmasa-da, lekin bir o'zi tabiatning shu qadar dahshatli kuchlariga qarshi borgani uning iroda kuchi buyukligidan darak beradi.

Santyago ne-ne azoblar bilan qo'lga kiritgan ovini endi u dengiz yirtqichlaridan asrash uchun akulalar bilan kurashadi. Ammo akulalarning ko'pligi cholning cholning yolg'izligi ham xorg'inligi o'z ovini bu dengiz yirtqichlaridan asrab qolishga imkon bermaydi. Garchi u akulalar bilan kurashda yengilgan bo'lsa ham, u ruhiy va ma'nan yengilmaydi.

Unda optimistik ruh har qanday sharoitda ham . Mana uning baliqdan ajralib, og'ir holatga tushgandagi o'ylari.

Inglizcha: The wind is our friend, anyway, he thought. Then he added, sometimes. And the great sea with our friend and our enemies. And bed, he thought. Bed is my friend. Just bed, he thought. Bed will be a great thing. It is easy when you are beaten, he thought. I never knew how easy it was. And what beat you, he thought.

“ Nothing ”, he said aloud. “I went out too far ”(OMS,95)

O'zbekchasi: “Shamol – bu, so'zsiz, -bizga birodarkuya, -deb o'yladi u va keyin qo'shib qo'ydi: -Darvoqe,har doim ham shunday emas. Ko'z ilg'amas dengizni olsak, u ham do'st-u dushmanimizga to'la. To'shak-chi... o'ylardi u, - to'shak – birodarim. Ha-ha xuddi shunday, oddiy to'shak. O'rniga oyoq cho'zish ayni hikmatning o'zi. Yengilib bo'lganingdan keyin yelkangdan tosh ag'darilganday yengil tortasan – qo'yasan! –hayol qildi u. – Men buning shunchalik oson o'lishini bilmasdim. Kim ham seni yenga qoldi o'zi, chol? –so'radi u o'zidan –hech kim, -javob berdi u. – Aybim shuki, men dengizda haddan tashqari uzoq ketib qoldim” (ChD, 127-128).

Cholning bu o'ylarida hech qanday tushkunlikka tushgan, motamsaro odamning ruhi yo'q. bu parchaning tarjimasida gapiradigan bo'lsak, yozuvchi singdirgan mavzu keng ma'nolilikni, o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Chol o'z umriga go'yo yakun yasagandek o'z-o'ziga gapirgan bu so'zlarida nihoyat teran ma'no bor. Kitobxonda uning bu so'zlari uning hayotga teran qarashga undaydi. Haqiqatan, chol aytganidek shamol ba'zan birodardek aziz bo'lsa, ba'zan raqibdan battar. Dengiz odamlar rizq-ro'zining koni bo'lsa, ba'zan dushmanlarning koni. Santiyago bu gaplarini faqat tabiat hodisalari to'g'risida fikr yuritib, falsafiy ma'no chiqarayotganini yo'q. uning aytgan bu fikrlari aynan hayotning o'zginasidir. Biz ta'kidlayotgan shu mazmun o'zbekcha nusxasida xuddi originaldek chiqqan. Bu parchani so'zma-so'z tahlil qilib o'tirishga hojat yo'q deb bilamiz. Qissadagi xuddi shu misol tariqasida biz keltirgan falsafiy mushohadalari, asar e'lon qilinishidayoq shov-shuvga sabab bo'lgan asosiy o'rinlardan biridir. Ko'pgina tanqidchilar majoziy ma'no axtardilar. Dengizni mavjud jamiyat timsolida talqin qilib, undagi akulalarni

xalqni ezib, bor-yog'ini shilib, qonigacha so'rib oladigan ezuvchi sinf vakillari sifatida tasavvur qildilar.

Bizning nazarimizda, ularning bu fikrlari qisman haqiqatga yaqin bo'lsa ham, lekin yozuvchi olg'a surgan g'oya, u o'rtaga tashlagan inson konsepsiyasi tamomila boshqa narsadir. Uning ijodkor sifatidagi konsepsiyasi umuminsoniydir. "Chol va dengiz" asarida ham o'zining shu konsepsiyasiga sodiq qolgan.

"Chol va dengiz" tarjimasida gapirar ekanmiz, asardagi Manolin obraziga to'xtalmay bo'lmaydi. Garchi Manolining qissada kam o'rin berilgan bo'lsa ham, chol xayoli, uning o'ylari orqali o'quvchi bola obrazini doimo ko'z oldiga keltirib turadi. Chunki Santiyagodek chapdast ovchi hamma narsaga mehr bilan qaraydigan oliyjanob qalb egasining hayotdan beiz ketishi mumkin emasdi. Yozuvchi xuddi shu nuqtayi nazardan Manolinni cholning vorisi sifatida tasvirlaydi. E.Xemingueyning ulug' san'atkor sifatidagi xizmati ham shunda. Kitobxon Santiyagoning ikkinchi marta izga, ovga chiqqan olmasligini biladi. Uning vahshiy akulalar bilan kurashi g'alaba bilan tugagan bo'lsa ham, taqdiri fojea bilan yakunlanadi. Chunki cholning o'limi ayon edi. Biroq yozuvchi bu fojiiy holatni kitobxonga uncha sezdirmaydi, uning yakunida kelajakka ishonch, optimistik ruh barq urib turadi. Asardagi kelajakka ishonch, yuksak ko'tarinki ruh cholning tili bilan emas, cholning vorisi sifatida talqin qilingan bola obrazida aks etadi.

Biz bu obrazni asarning boshida va oxirida ko'ramiz. Asarning boshida Manolin cholga oddiy bir hamroh, chol uchun bir ermakdek ko'zga tashlansa ham, lekin unda yozuvchining badiiy maqsadi, unga yuklangan "yuk"i seziladi. Mutarjim asar mohiyatidan kelib chiqib ular o'rtasidagi munosabatni nihoyatda samimiy tasvirlaydi. Asl nusxa ruhini saqlashga jiddiy e'tibor beradi. Bu parchalarda bolaning cholga bo'lgan mehri har bir so'zida, har bir harakatida bilinib turadi. Boladagi shu mehr cholni tutib kelgan balig'ini ko'rgach yana ham alanganadi. Unga e'tiqodi oshadi:

Inglizchasi: “How is he?” – one of the fisherman shouted. “Sleeping”, the boy called. He did not care that they saw him crying. “Let on one disturb him”.

“He was eighteen feet from nose to tail”, the fisherman who was measuring him called.

“I believe it”, the boy said.

“Hot and with plent of milk and sugar in it”

“Anything more?”

“No. After wards. I will see what he can eat” (OMS, 96).

O'zbekchasi: - Qalay, ahvoli tuzukmi? –qichdirdi baliqchilardan biri bolaga.

- Uxlayapti, - javob berdi bola. O'zining yig'laganini ko'rayotganlari ham endi baribir edi. – Uni bezovta qilmaslik kerak.

- Buning tumshug'idan dumigacha o'n sakkiz fut chiqar ekan! – qichqirdi o'lchayotgan baliqchi.

- Chiqmay ham ko'rsin, - dedi bola.

U Terrasga kelib bir banka kofe so'radi.

- Menga qaynoq kofe bering, suti va shakari ko'proq bo'lsin.

- Yana biron narsa olgin.

- Kerak emas. Uning nima yeyishi mumkinligini keyin qarab ko'raman (ChD, 130).

Bu parchada Manolinning bolalaraga xos bo'lgan beg'ubor ruhiy olami berilgan. Uning har bir hatti-harakatida, gapi, so'zida cholga bo'lgan mehri namoyon bo'ladi. Shu keltirilgan parchada baliqning bo'yida o'lchayotgan baliqchi o'n sakkiz fut deganida, Manolin bolalarcha soddalik bilan “Chiqmay ham ko'rsin” deydi. Asl nusxada “I believe it” tarzida ya'ni “Men unga ishonaman” deb berilgan. Rus tarjimonlari esa “He меньше” shaklida tarjima qiladi. Biz bu uchala variantni bir-biri bilan qiyos qilganda I.G'afurovning tarjimasini tahsinga sazovorligini aytishimiz mumkin. Ruscha nusxada “Oz emas” mazmunida berilgan bo'lsa ham boladagi faxr tuyg'usi uncha sezilmaydi. O'zbekchasidagi “Chiqmay ham ko'rsin” shaklida tarjima

qilinishi ayni muddao bo'lgan. Bu jumlaning o'zi tiniq xayoldan chiqadigan jumla emas. Mutarjim bola ruhiyatiga kirib, uning ichki olamini juda to'g'ri anglaydi. Chunki bunday holatda bolaning to'la ishonch bilan bu xildagi so'zlarini aytishi tabiiy bir hol. Bola birinchidan cholni o'z otalaridan ham afzal ko'radi. Cholning muvaffaqiyatini o'zining muvaffaqiyatidek his qiladi. Ikkinchidan cholning o'zini yaxshi ko'rishini biladi va shunday baliqchi bilan hamdo'st, hamfikir, qissasi shogird bo'lganidan faxrlanadi. Shuning uchun ham bola baliqchilar oldida tortinmasdan "Chiqmay ham ko'rsin" deya o'zi baliqni tutib kelganidek dadil javob beradi. Mana shu yozuvchi qo'llagan bola xarakteriga taalluqli detallar cholning yolg'iz emasligini ko'rsatadi. Ma'lumki, asarda har bir so'z, detal o'ziga xos yuk tashiydi. Ernest Xeminguey san'atkor sifatida insonlarning o'zi yaratgan qonunlarga bo'ysunavermaydigan o'z oqimi, o'z qonunlari borligini yaxshi anglaydi. Kambag'illik sharoitida og'ir kun kechirayotgan choldan nurli iz qolishi dargumon edi. Asardagi tasvirda ma'lumki, chol qay darajada yuksak insoniylikka ega bo'lsa ham, uning biron kishiga yordam berishiga yoki biron kishining to'g'ri izga solishga qurbi yetmasdi, to'g'rirog'i, o'zi birovlar yordamida muhtoj edi. Undagi shu muhtojlik cholning mana bu so'zlarida yozuvchi tomonidan nihoyatda to'g'ri talqin qilinadi:

Inglizchasi: He noticed how pleasant it was to have someone to talk to, instead of speaking ongly to himself and to the sea. "I missed you", ne said. "What did you catch?" (OMS, 98)

O'zbekchasi: U o'z-o'zining va yana dengizdan tashqari gaplashadigan biror odaming bo'lsa qanday ajoyib bo'lishini ich-ichidan sezdi.

- Men seni rosa qo'msadim, - dedi u. – Sen biror narsa ushladingmi? (ChD, 132)

Ma'lumki har bir san'at asarining o'ziga xos g'oyaviy-uslubiy yo'nalishlari mavjud. San'atkor o'z uslubidan kelib chiqib xarakterga hayot boqiyiligi orqali ma'lum bir qarashlarni yuqtiradi, hayot konsepsiyasini olg'a suradi. Inson odatda

kuch-g'ayratga to'la paytlarida yolg'izlik, kambag'allik, ishning og'ir-yengili xususida bosh qotirib o'tirmaydi. U o'z kuch-qudratiga ishonadi. U shu bilan hayotda o'z istaganicha yashayverishi mumkin. Asar qahramoni Santyago ham xuddi shunday yashab kelgan. Endilikda u ojiz, odamlar diqqatini o'ziga torta olmaydi, o'z kunini zo'rg'a ko'radi. Ayniqsa, uch kunlik vahshiy akulalar bilan qilgan janglaridan keyingi ahvoli uni o'ylantirib qo'yadi. Ana shunda u o'zini nihoyatda yolg'izligini yuragidan his etadi. Bu cholning hayotidagi eng oxirgi turmushidan keltirib chiqargan xulosasi bo'ldi. Cholning bu fikri ma'lum bir jihatdan o'zining umriga yakun etdi. Yozuvchining mahorati shundaki, ana shunday oddiy insoniy o'ylar orqali hayotning temir qonunlarini kashf etadi. Mutarjim cholning bu fikrlarini juda to'g'ri, asl nusxasiga xos o'giradi. Tarjimon bunday parchalarning asarda muhim rol o'ynashligini yaxshi bilganligi parchaning tarjimasida ko'rinib turibdi. Bu parchadagi mazmun orqali biz bilamizki, Santyago Manolindan minnatdor. U shuning uchun gaplashadigan biron odaming bo'lsa, qanday ajoyib bo'lishini hozir ich-ichidan sezadi. Shu bilan yozuvchi bizning diqqatimizni bola xarakteriga tortadi. Mana ular gapining davomi:

Inglizchasi: Finally the old man woke. "Don't sit up", the boy said. "Drink this". He poured some of the coffee in a glass.

"They beat me, Manolin", he said. "They truly beat me".

"He did not beat you. Not the fish".

"No. Truly. It was afterwards".

"Pedrico is looking after the skiff and gear".

"What do you want done with the head?"

"Let Redrico chop it to use in fish traps".

"And the spear?"

"You keep it if you want it"

"I want it", the boy said. "Now we must make our plans about the other things"

(OMS, 97).

O'zbekchasi: Nihoyat chol uyg'ondi.

- Ular meni yengib qo'yishdi, Manolin, - dedi u. – Ular meni yengishdi.
- Ammo uning o'zi seni yangolmabdi-ku axir. Axir seni yengmabdi-ku!
- Yo'q yengmaydi. To'g'ri gapdan qochib bo'larmidi. Bu voqea keyin bo'ldi.
- Qayiq bilan asbob-uskunalarga Pedrico qarab turadigan bo'ldi.
- Baliqning boshini nima qilmoqchisan?
- Uni Pedrico to'rlariga g'o'rak qilib maydalay qolsin.
- Tig'ini-chi?
- Xohlasang, uni estalik uchun o'zingga olib qo'ya qol.
- Xohlamaychi, - dedi bola. – Kel endi, bundan keyin nima qilishimiz haqida gaplashib olamiz. (ChD, 131)

Chol bilan bola o'rtasidagi bu suhbatda boladagi bu xarakter yana ham yorqin ochiladi.

Chol o'zini baliqdan yengilganini qayd qilar ekan, bola “axir baliq seni yengmabdi-ku” deya qat'iy e'tiroz bildiradi. Choldagi tushkunlik, boladagi optimistik ruh bu dialog o'rtasida bo'lib o'tgan bu suhbatning o'rnida mutarjimlarning mahoratini qayd qilishi mumkin xolos. Tarjimada cholning xarakteri asarning uning g'oyaviy oqimiga monand voqealar mantig'idan kelib chiqqan tarzda beriladi. Undagi horg'in ruh har bir so'zda, har bir harakatida seziladi. Ayniqsa, cholning shuncha jabr-u jafo bilan tutib kelgan balig'iga befarqligida ko'rinadi. Chunki baliqning kallasini g'o'rak uchun boshqa bir ovchiga in'om etdi. Bolaga esa qilichini o'zing estalikka ol deydi. Cholning bu gaplari uning kelgusida ov qilish umidi yo'qligidan darak beradi. Biroq, boladagi intilish, yoshlik g'ayrati cholning gaplaridagi teran mazmun bilan hisoblashmaydi. Bunday bo'lishi tabiiy.

III.2. “Alvido, qurol!” tarjimasida tarjimonning xarakterlarni qayta yaratilish san’ati.

“Bu kitob Parijda, Ki-Uestda, Florida, Piggota, Arkanzas, Kanzas-siti, Missuri Meridan, Vayomingda yozildi; 1929 yil ko’klamida Parijda so’nggi tahrirdan chiqdi.”¹

“Alvido, qurol!” romani birinchi jahon urushi haqidagi eng yaxshi romanlardan biridir. Bu kitob Ernest Xemingueyning shoh asari hisoblanadi va shu bilan bir qatorda bir nechta tillarga ham tarjima qilingan.

Bu asarning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, asar adib hayotining muhim jabhalarida o’zgarishlar yuz bergan bir jarayonda yaratilgan.

Ernest Xeminguey bu asar haqidagi fikrlarni quydagicha ifodalagan. “ Birinchi variantini yozayotganimda Kanzas-Sitida o’g’lim Patrik tug’ildi, uni onasining qornini yorib oldilar, men Ouk- Parkda, Illinoisda, so’ngi variant ustida ishlayotganimda otam o’zini otib qo’ydi”.²

Bu asarni tugallaganda Ernest Xeminguey endigina 30 yoshga kirgan bo’lsada, uning hayotidagi tushkunlik, og’ir damlar asariga ham ko’chgan. U o’z hayotidan kichkinagina bir lavhani olib uni asarida aks ettirilishi bunga misol bo’la oladi. “Alvido, qurol!” romanidagi bosh qahramonlaridan biri Ketrin misolida o’z hayotidagi o’gli tug’ilgan paytda yuz bergan fojeani anglashimiz mumkin. Shunga

¹ Xeminguey E. Muallif so’z boshisi. Kuba. 1948

² Heminguey. E. Muallif so’z boshisi. Kuba. 1948

qaramasdan “Alvido, qurol!” romani Ernest Xemingueyni uzoq-uzoqlarga tanitgan asari bo’ldi deyish mumkin.

Urushdan keyingi davrga kelib, faqat amerika adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham roman janrida ijod qilish bir oz susaygan edi. Tadqiqotchilar buning sababini birinchi jahon urushi bilan bog’laydilar. Hattoki hazillashib, “ Xayolparast yozuvchilar jang sirlarini o’rganaman deb urushga ketib qolishgan edi “¹ deyishadi.

“Alvido qurol!” romani bilan bir davrda yaratilgan romanlarda ko’plab amerika yoshlarining urushda ko’rsatgan qahramonligi, tirik qolganlarning o’z yurtiga shon-sharaf bilan qaytib kelish voqeasi tasvirlangan edi.

Ernest Xeminguey romanida esa urushning mohiyati nimada, kimga kerak bu mudhish urush degan ma’no ko’rsatiladi. Millionlab o’g’lonlarning behuda o’lib ketishiga kim aybdor? Nima uchun urushayapmiz degan fikrlar ilgari suriladi. Shuning uchun ham bu roman amerika jamoatchiligida kattagina shov-shuvga sabab bo’ldi. Hattoki, bu roman uchun bir guruh tanqidchilar adibga turli xil bo’htonlar yog’dirishdan ham to’yishmaydi, ammo o’sha davrdagi kitobxonlar aynan shu ruhdagi asarni ijobiy qabul qilishadi.

Adib “Alvido, qurol!” romanida, o’sha paytda amerika adabiyotida yuzaga kelgan “Yo’qotilgan avlod” deb nomlanuvchi davrning xususiyatlarini va o’sha davr kishilarning fojeasini tasvirlab bergan. Bu davrning o’ziga xosligini dastlab Ernest Xemingueyga amerika adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Gertrud Steyn tushuntirib o’tgan bo’lsada, bir o’rinda Xeminguey unga “Siz o’zingiz yo’qotilgansiz”² deya hazillashganligini ta’kidlaydi.

“ Yo’qotilgan avlod”davri odamlari birinchi jahon urushining dahshatlarini barchasini o’z boshidan kechirgan kishilardir. Urushdan keying davr kishilari hayotdan ko’ngli sovigan, yashashga ishtiyoqi yo’q edi, chunki ular barcha qurbonlar va o’limlarning foydasiz ekanligini tushunib etgan edilar. “Yo’qotilgan avlod”

¹Boynazarov F. Jahon adabiyoti. T.: 2007y. 121.

²Hemingway and his critics. N.Y. 1961. P.23.

davrining vakillari hayotdagi maqsadsizlik va uni ruhiy o'lim bilan yakun topishini ko'rsata olganlar.

Adibning birinchi romanida birinchi jahon urushi va urushning fojeali oqibatlari ko'rsatilgan – ayni shu protsesda “Yo'qotilgan avlod” davri xususiyatlari mujassamlashgan.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarini nafratlashga bag'ishlangan “Alvido, qurol!” romani yozuvchi ijodida ham muhim bosqichni egallaydi.

“Alvido, qurol!” romani qisman avtobiografik roman hisoblanadi. Muallif asar qahramoni Fredrik Genrida o'z kechinmalarini: Amerikalik yigitning ko'ngilli bo'lib italyan sanitar bo'linmasiga leytenant sifatida yollanib urushning butun dahshatlari – ochlik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son - sanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganlarini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayollardan iborat ekanligini biladi va umidsizlikka beriladi. Urushda og'ir yaralanishi, urushning barcha dahshatlarini ko'rib, urushga nisbatan kuchli nafrat uyg'onishga turtki bo'ladi.

Romanda asosan ikkita: urush va muhabbat mavzulari asos qilib olingan. Dastlab Frederik Genri urushda faqat jang qilish kerakligiga ishonadi, ammo keyinchalik Genri bunga shubha bilan qaray boshlaydi. Va nihoyat, u urush faqat unda foyda olishni ko'zlaganlar uchungina foydali bo'lishi mumkinligini tushunib etadi.

“Alvido, qurol!” romanida birinchi jahon urushi qoralangan bo'lsada, lekin unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo'sindadir.”¹

Romanda pessimizm va tushkunlikning shakllari XX asrda yaratilgan boshqa asarlaridagidek juda yaxshi ochib berilgan, ammo “Alvido, qurol!” romanida Xeminguey “birinchi jahon urushini insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat”² deya baholaydi.

¹ Qayumov O. Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi. T: 1987

² Hemingway E. Critics of four Major novel.1993.

Xemingueyning asar yaratish uslubi ixcham va lo'ndadir. Uning hamkasblaridan o'ziga xos va ulardan ajralib turadigan xususiyati shundaki, u ma'lum bir holatni tasvirlashda uzun dialoglardan foydalanmaydi. U faqat o'zigagina xos bo'lgan botiniy dialoglarni, detallarni ishlatadi. Xeminguey kamdan-kam hollardagina tuyg'ularini oshkor etadi, ko'pgina vaziyatlarda bu haqida so'zlamaydi, ammo shunga qaramay Ernest Xeminguey kitobxon qahramonning aytilmagan tuyg'ularini his qila olishga erishdi.

Xemingueyning asar yaratishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri turli-tuman sahnalarda his-hayajondan foydalanish, yoxud shu his-hayajonga jo'r bo'lishdir.

”Alvido,qurol” asarida tasvirlangan har bir epizodlar, aslida tomchidek go'yo, Ketrinning vafotidan so'ng esa bu tomchilar yomg'irga aylanadi”¹ degan so'zlardan ham, biz bu asar o'ziga xos bo'yoqdorlikka egaligini ko'rishimiz mumkin. “Alvido,qurol” romani nafaqat amerika adabiyotida balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega.

Agar, biz e'tiborli kitobxon kitobning muqovasida tasvirlangan jim-jimador bezaklarga emas uning ichida so'zlardan qurilgan marvarid shodasiga e'tibor qaratishi lozim desak, s“Alvido,qurol” asarini o'qigan har bir kitobxon uni marvaridlar silsilasidan o'rin olgan asar, deya e'tirof etganligini guvohi bo'lamiz.” Alvido,qurol” asarini taxrirdan chiqish arafasida bo'lgan gaplarni eslab Xeminguey shunday deydi: “Bir kuni noshirim mendan bezaklarga qanday qaraysiz, kitobingizni bezakli qilib chiqarsak rozimisiz deb so'rab qoldi. Agar rassom yozuvchiday o'z ishini ustasi bo'lmasa, bunga javob berish oson bo'ladi, chunki yozuvchi o'zi guvohi bo'lib ko'rgan, bilgan hodisalarni mamlakatlarni, narsalarni bulardan bexabar bir kimsa tomonidan bilar-bilmas aks ettirilishiga sira rozi bo'la olmaydi”²

¹ Vanspanckeren K. Outline of American literature. P.148.

² Xeminguey E. Muallif so'z boshisi. Kuba 1948.

Adibning yuqoridagi soʻzlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, agar asar mukammal darajadagi haqqoniy asr boʻlsa, unga yaʼni kitobga zarhal bezaklar berishga hojat yoʻq. Kitobxon asarni uni yuzidagi bezaklari uchun emas, balki uning ichidagi haqqoniylik uchun oʻqiydi.

“Alvido, qurol!” asari ham hayot haqiqatlari badiiy soʻz bilan tasvirlab berilgan asarlardan biridir. Ernest Xeminguey kitobining mazmunini anglab yetilishini xohlagan narsa- urush qaerdagi bir guruhning vakillari uyushtirgan, oddiy xalq esa qurbon boʻladigan gʻayri oddiy bir maqsaddir.

Ernest Xeminguey urushda oʻzi ishtirok etib, urush dahshatlarini oʻz koʻzi bilan koʻrgandan soʻng, uning urushga boʻlgan nafrati yana ham kuchayadi. U urushda aslida bir-biri bilan birodarlashishi mumkin boʻlgan begunoh insonlar bir- birini oʻldirayotganidan gʻazablanib urush olovini yoqqanlarga oʻzining tuganmas nafratini izhor etishdan charchamaydi. U bu nafratni oʻzining asarlarida taʼkidlab oʻtganligiga qaramay, hatto, “Alvido, qurol!” romaniga yozgan soʻz boshida ham buni aks ettiradi.

“Bu kitob “Alvido, qurol!” deb ataladi, u yozilgandan keying uch yilddan bu yogʻiga er yuzining qaeridadir toʻxtovsiz urush boʻlyapti.

Koʻplar oʻshanda nega bu odam muncha urush bilan band boʻlib ketdi deb hayron boʻlib yurishgandi. Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki: urushlarda jang qilayotgan odamlar eng ajoyib odamlardir, frontning qizgʻin qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga koʻproq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan foyda undirishdan boshqa narsani oʻylamaydigan toʻngʻizlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmogʻi zarur deb hisoblayman”.¹

¹ Xeminguey E. Muallif soʻz boshisi. Kuba. 1948.

Ernest Xeminguey urushni bu dunyodan batamom yo'q qilib yuborishni xoxlaydi, ammo bu ofatga faqat bir kishi qarshi tura olmasligini anglagan holda, yozuvchi sifatida o'z asarlari orqali insonlarni urushga qarshi kurashishga targ'ib qiladi.

“... yozuvchi odam surbetlarcha qilinayotgan muttasil qirg'inlarga, razil jinoyatlari bilan to'la urushlarga hech qachon befarq qara tura olmasligi ravshan bo'lib qoldi. Men ko'p urushlarda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g'arazim qattiq, hatto juda ham qattiqman”¹ degan so'zlari orqali ham da'vatini tushunishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak asarda Xeminguey yagona individga, ma'lum bir shaxsga emas balki butun bir xalqqa, millatlarga tegishli urushga qarshi g'oyalarni aks ettiradi.

Biz asarni aynan shu jihati uchun ham uni nafaqat amerika, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega deb ayta olamiz.

Biz bu asarni o'qigan kitobxonda ozgina bo'lsada, urushga nisbatan nafrat uyg'onganligini ko'ra olsak, muallif asardan ko'zlagan maqsadiga eta oldi deb aytishimiz mumkin. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, har birimiz tinchlikni qadriga etishga, uni asrashga ma'suldirmiz.

“Alvido, qurol!” asarining bosh qahramonlaridan biri Fredirik Genri dastlab urushga urushayotgan tomonlardan biriga yordam berish, ularga ozgina bo'lsada ko'maklashib, urushga o'z hissasini qo'shish maqsadida ko'ngilli bo'lib kelgan amerikalik yosh yigit, urushda sanitar xizmatining leyтинanti bo'lib xizmat qiladi. Bir qancha fursat urushning ichida yurib, urushning nima ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rganidan so'ng uning urush haqidagi o'y- fikrlari o'zgara boshlaydi. U haqli ravishda o'z – o'ziga nega bu urushda qatnashayapman?, kim uchun kurashayapman?, bundan foyda nima? degan savollarni beradi. Va shuni tushunib etadiki, urush – mutlaqo foydasiz mudhish va shu bilan bir qatorda ming - minglab begunoh

¹ Xeminguey E. Muallif so'z boshisi. Kuba. 1948

insonlarni o'z domiga tortib ketadigan qora o'pqqon. Frederik Genri bu qora bulutlarni tarqatib, ma'lum bir doira vakillarining foydasi uchun kurashishdan voz kechib, musaffolikka, tinchlikka erishib, do'stona yashash lozim, deb o'ylaydi.

Frederikning fikricha, askarlar, haydovchilar, ishchilar va boshqa oddiy odamlar urushga qarshi birlashib, bir so'z bilan aytganda bir yoqadan bosh chiqarishlari lozim. Agar biz shunga o'xshash birliklarni ming – minglab tashkil qila olsakgina, urushga qarshi bo'lgan g'oyalarimizni odamlar ongiga singdira olamiz. Shundagina bu mudhish zulmatdan qutulib chiqish mumkin degan o'y – fikrlari tug'ilganligini guvohi bo'lamiz.

Asarda Frederik Genri agar insonlar shu taxlit urushlar girdobida yashayversalar yuksalishga emas, balki tubanlikka yuz tutishi muqarrarligini tushunib etadi.

Bu urush uning urushi emasligiga qaror qilganidan so'ng, Fredirik o'zi uchun “ajratilgan tinchlik”ni yaratadi va urushdan bezib boshqa mamlakatga qochib ketadi.

Romanda ilgari surilgan yana bir boshqa mavzu – muhabbatdir. Fredirik Genri Buyuk Britaniyadan urushga ko'ngilli hamshira sifatida kelgan, Front chizig'ida yarador bo'lgan askarlarni davolashga yordam berib, urushga o'z hissasini qo'shishni xoxlagan Ketrin Bekerlini sevib qoladi.

Genri urushda bomba portlab, oyog'idan yaralanib gospitalda yotgan chog'da Ketrin unga sidqidildan g'amxo'rlik qiladi. Ular orasidagi iliq munosabatlar vaqt o'tgan sari tobora quyuqlashib boradi. Urushdan ko'ngli sovib ketgan, bir – birini sevib qolgan bu ikki yosh keyinchalik birga Shvesariyaga qochib ketishadi.

Shvesariyadagi dastlabki hayot juda yaxshi tinch, osuda edi. Bir qancha muddat ular birga baxtli yashashadi, ammo bu baxtli onlar uzoq davom etmaydi. Ular baxtdan masrur edi, biroq, hayot har doim bir xil davom etavermaydi. Ketrinning homiladorligi davri garchi yaxshi kechgan bo'lsada, u ko'zi yoriyotib olamdan o'tadi. Uning fojeali o'limidan so'ng Genri anchagacha yolg'iz qoladi. U shu damda juda kuchli tushkunlikda edi. Endi Ketrin yo'q, u vafot etdi. Genri hammasini biladi, biroq tan olishni istamaydi.

Muallif bu orqali XXasrning qonli urushlari davom etayotgan dunyosida individual baxtli yashash imkoniyatining mavjud emasligini isbotlab beradi. Xemingueyning qahramoni Genri baxtli bo'la olmagan qahramondir. Ketrinning vafotidan so'ng, uni atrofini g'am – anduh qurshab olganligini ko'rishimiz mumkin. U faqat o'zini o'ylab, tinchlikka, baxtga erishish uchun urushdan qochib, boshqa bir davlatga keldi. Baxtga qarshi bu erda ham uning qissasi fojeali tarzda yakun topdi, deyish mumkin.

“Xeminguey yana bu bilan siz faqat o'zingiz ucungina tinchlikni ajratib ola olmaysiz degan haqiqatga urg'u beradi.”¹

Bundan kelib chiqib, faqatgina bir kishi hech narsaga erisha olmasligi mumkin, ammo odamlar birlashsa, ulkan qudratga ega bo'lib ko'p narsaga erisha oladi deyishi mumkin.

Asarning bosh qahramonlari Fredirik Genri va Ketrin davom etayotgan mudhish urushni yakunlovchilar sifatida o'rtaga chiqishadi. Ularning muhabbatini urush o'rtasidagi “maxsus dunyo” deb aytishimiz mumkin. Ular faqat birga bo'lsalargina, bu dunyoda yolg'iz ekanliklarini his qilishardi va faqat shu yolg'izlikdagina ular baxtli edilar. Nihoyat, ular Shvesariyaga qochib borib o'zlarining bir qancha vaxtlardan buyon kutib yurigan tinch diyorlariga erishadilar. Shvesariyada urush yo'q edi, ammo ularning orzu qilgan baxtlari ming afsuslar bo'lsinki, fojea bilan yakun topadi.

“Alvido, qurol!” asarining tili tushunish uchun juda oson va sodda “Xeminguey botiniy dialoglardan shunday moxironalik bilan foydalanganki, hatto qaysi fikr qaysi qahramonning tilidan aytilyapti? Buni aniqlash juda mushkul.”²

Asarning bir o'rnida berilgan haydovchilar nutqiga etibor qaratadigan bo'lsak quyidagilarni ko'rishimiz mumkin.

Inglizchasi:

¹ Utevskeya N.L. “English and American literature” stp 2007. P37.

² Mendeyason. M. Godi svershenniy i pereloma. M. 1982g. 676.

“- Were you there, Tenente, when they wouldn't attack and they shot every tenth man?

- No

- It is true. They lined them up afterward and took every tenth man Carabinieri shot them.

- “Carabinieri” said Passini and spat on the floor. But those grenadiers: all over six feet. They wouldn't attack”.

- “If everybody wouldn't attack the war would be over” Manera said.¹

O'zbekchasi:

- Ular jangdan bosh tortishganda siz bormidingiz, Tenente, keyin har o'n kishidan bittasini otishuvdi esingizdami?

- Yo'q

- Shunday bo'lgan edi. Ularni qator qilib turg'izishdida, o'ninchi bo'lib turgan odamni ajratib olaverishdi. Karabinerlar ularni otib tashlashdi.

- Karabinerlar, - dedi Passini va yerga tupurdi.- Grenaderlarni qarang-a: bo'ylari ikki metrdan oshig'u, bormaymiz deb turishsa-ya

- Agar hamma baravar bosh tortganda edi, urush tugagan bo'lardi-dedi Manera”²

Yuqoridagi gaplardan ko'rinadiki hatto urushga qatnashayotgan askarlar, sanitar bo'lmasida xizmat qilayotgan haydovchi yigitlar ham aslida urushga

¹ Hemingway E. “A farewell to Arms”. Leningrad 1971.33.

² Xeminguey E. Alvido, qurol. T: 1973y. 56.

qarshilar, ammo ular birlashmagan, shuning uchun ham ular zo'rvonlik natijasida urushda ishtirok etib qurbon bo'lyaotilar.

Asarda urushni muallif ma'lum bir sinfning, guruhning vakillari foydasiga xizmat qiluvchi va ularning insoniyatga qarshi ochgan jangi sifatida bayon etadi.

“Alvido, qurol!” asarining muhim va boshqa asarlardan farqli tomon mana shunda ifodalanadi.

O'ttizinchi yillarda Xeinguey maxsus maqsadni: musaffolikni yo'qolib borayotganligini ta'kidlashni boshlaydi.

“Ernest Xeminguey asarlarida ilgari surilgan muammolarning bir qismini ko'pgina boshqa yozuvchilar o'zlarining hikoyalariga ko'chirishga urinadilar va qisman bunga erishadilar ham.”¹

Xeminguey yaratgan qahramonlarning hayotida ham musaffolik yo'qolgan, yashashga bo'lgan ishtiyoq so'nib, tushkunlik vaziyatlari yuqori o'rinni egallaganligini ko'rish mumkin. Bunda “Yo'qotilgan avlod” davrining o'ziga xos xususiyatlari, an'analari namoyon bo'ladi.

Asarda kishini jalb qiladigan yana bir narsa bu insonning hayotidagi fojealarga sabot bilan bardosh berishi, yaxshiliklarga intilib matonat bilan yashashidir.

Ammo har doim ham hamma narsa inson kutganidek bo'lavermaydi. Ba'zan baxtli bo'lishga bir soniya qolganda hammasi barbod bo'ladi. “Alvido,qurol!” asarida ham xuddi shunday bo'ldi. Genri va Ketrin urushdan qochib Shvesarida baxtli hayot kechirishayotgan edi. Biroq bu baxt ortiqcha ayshu-ishrat botqog'iga botganlar va g'aflat uyqusidagi insonlarga uzoq nasib etmadi. Bu baxt porloq kelajak, betashvish hayotni orzu qilib yurgan Genri va ketrin uchun mudhish fojea bilan yakunlandi. Agar biz quyida keltirilgan asar so'nggidagi kichkinagina bir epizodga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu fojeaning qanchalik darajada mudhish yakun topganligini guvohi bo'lamiz.

¹ Vanspankeren. K. Outline of American literature. P148.

Inglizchasi:

“- Is it dangerous? It is very dangerous. The nurse went into the room and shut the door. I sat outside in the hall. Everything was gone inside of me. I did not think. I could not think. I knew she was going to die and I prayed that she would not. Don't let her die. Oh, please don't let her die...”

“... she was unconscious all the time, and it did not take her very long to die”.¹

O'zbekchasi:

- Xavflimi?
- Juda ham xavfli
- Hamshira ichkariga kirib orqasidan eshikni zichlab yopdi. Men yo'lakda, eshik oldida o'tirdim. Ichim o'pirilib tushganday edi. Men o'ylamasdim. Miyamga hech narsa kirmasdi. Men uni o'lishini bilardim va xudodan uning o'lmasligini iltijo qilardim. Ilohim u o'lmasin. Yo rab, yo rab, u o'lmasin... U boshqa o'ziga kelmadi, ko'p o'tmay hammasi tugadi”.²

Yuqorida guvohi bo'lganimiz urushga qarshi tura olgan, baxtli hayot kechirishni maqsad qilib qo'ygan bu ikki yosh qahramonning hayotlari shu tariqa fojea bilan nihoyatlandi.

Shu o'rinda muallifning quyidagi fikrlariga to'xtalib o'tishimiz keldi.

“ Kitob fojea bilan tugayotgani meni ranjitmasdi, chunki men umuman hayot – fojeadan iborat, uning hamma ko'chalari bir joyga olib boradi, deb bilar edim. Biroq yoza olishingdan, yozganda ham haqqoniy qilib, keyin o'zining o'qiganda ham lazzatlanadigan qilib yoza olishingdan va har kuningni mana shu yoqimli ish

¹ Hemingway E. A farewell to Arms. Leningrad 1971. 238.

² Xemingway E. “Alvido, qurol!” T. 1973. 341.

bilan boshlashdan quvonchliroq narsa yo'q bo'lsa kerak. Buning oldida boshqa hamma narsa arzimas gaplardir".¹

Bundan ko'rinadiki, muallif garchi asar fojea bilan yakun topgan bo'lsa-da, u oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olgan va asardan mamnun.

O'zbek kitobxonlari Ernest Xemingueyni "Chol va dengiz" qissasi orqali yaxshi bilar edilar. 70-yillarga kelib ular adibning "Alvido, qurol!" asari bilan tanilishiga musharraf bo'ldilar. Roman voqealari yozuvchining ilgari surgan g'oyasi ma'lum bir voqelik, ma'lum bir hayot tarzini aks ettirgan asar emas "Alvido,qurol!"romanidagi g'oya urush nimaligini o'z ko'zi bilan kurgan, insoniyat boshiga keltirgan ofatlarni san'atkor sifatida qalban his etgan yozuvchining urushga qarshi bulgan manifestidir. Ernest Xeminguey o'zini bu romaniga so'z boshi yozib borishni so'rganlarida alam bilan ana shunday satrlarni yozadi: " Shunday qilib, bu kitob, birinchi marta 1929 yilda,Nyu-York birjasida talofot yuz bergan kuni maydonga chiqdi. Bezaklio nashri bu yil kuzda chiqishi kerak. Bu vaqt ichida Scott Fluajerald o'ldi, Maks Berkins o'ldi, Tom Vulf o'ldi, Jon Bishon o'ldi. O'lishi kerak bo'lgan yana bir qancha odamlar o'lib ketishdi, bir xillari Milan benzakalonkalarida oyoqlaridan osildilar, boshqalari yaxshimi yomonmi banbardimon qilingan nemis shaharlarida osib qo'yildi, qanchadan-qancha noma'lum nomsiz – nishonasiz, biroq hayotni judayam sevgan kishilar yo'q bo'lib ketishdi.

Bu kitob "Alvido, Qurol!" deb ataladi, u yozilgandan keyingi uch yildan bu yog'iga er yuzining qaeridadir to'xtovsiz urush bo'lyapti.

Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qirg'in qismlariga kirib borganing uchun bunday ajoyib kishilarga duch kelasan. Lekin urushni boshlaganlar, uning olviga yana olov tashlab turganlarning kupchiligi iqtisodiy raqobatdan , foyda undirishdan boshqa narsani uylamaydigan tung'izlardir. Men urushda boylik

¹ xeminguey E. Muallif so'z boshisi. Kuba 1948.

ortirganlar, urush olovini yoqqanlarurushing birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman. Bu kitobning muallifi agar jangga kirayotganlarunga lutfan topshirsalar, bunaqangi otib tashlash bulsa, uni tashkil etishni uz zimmasiga jon-jon deb olgan bulur edi va bu ishning hammasi imkoni boricha odamiylik va axloq odob doirasidan chiqmay ado etilishiga (axir otilayotganlar orasida har xil odamlar bulishi mumkin) hamda ularning jasadlari. Shubhasiz, dafn etilishiga rioya qilgan bulur edi. Hattoki ularni sellofanda yoki shunga uxshash zamonaviy sintetik narsaga urab kumilishiga ham qarshilik qilmasdi. Mabodo, oxiri bulib boshlangan urushda mening ham hissam borligi aniqlangudek bulsa, qanchalik qayg'uli bulmasin, mayli meni ham usha uqchilar vzvodi otib tashlasin. Keyin meni ham istasalar sellofanga urab yoki uramasdan kumsinlar yoki mening tanimni tog' yonbag'ridan uloqtirib yubora qolsinlar roziman. Shunday qilib, oradan yigirma besh yil utdi, binobarin, mana sizga kitob mana unga suz boshi.

Romanning syujeti qisqa va lo'nda. Italiya armiyasida xizmat qilgan amerikalik ofiserning hayoti va uning avval urushga ishonchi va keyin urushning be'mani bir i narsa ekanligini anglash tasvirlanadi. Romandagi tasvirlangan voqealar faqat Genrining urushning nimaligini anglash bilan tugamaydi. Ingliz qizi Ketrin uning urtasidagi muhabbat romanning asosiy liniyalaridandir. Ketrin Shvesariyada tug'olmasdan vafot etadi. Genri qurolni tashlab, urushdan yuz ugiradi. Roman birinchi jahon urushining bashariyat boshiga slogan kulfatlarini aks ettiradi. Roman boshdan oxir qahramon tili orqali bayon etiladi. Romanda yozuvchining ma'lum bir uslubiy belgilari saqlangan bulsa ham asar uzining epik kulami bilan, g'oyaviy-estetik yunalishi bilan, tasvir vositalari bilan, qahramonlarning kupligi bilan "Chol va dengiz" qissasidan ancha farq qiladi. Gap biri roman biri qissa janrida bulganida emas.

"Chol va dengiz" qissasi tahlilida biz yozuvchining Santiyagoga bergan karakteristikasidan boshlanganligini ko'rgandik.

Yozuvchi romanning ilk sahifalaridayoq tabiat tasviriga hamohang ko'chadan o'tib borayotgan qushinlar tasviriga kitobxon diqqatini tortadi. Kitobxon bu tasvirlarni uqir ekan, qushinlarning qayoqqadir jangga borayotganini his qiladi-yu, biroq ulardan ma'lum bir ma'no chiqara olmaydi. Chunki utib borayotgan qushinda jangovorlik ruhi shiddati sezilmaydi. Muallifning shu ilk tasvirlaridayoq xuddi "Chol va dengiz" da kurganimizdek asarning umum g'oyasiga shu debochadan boshlab jon kirgizadi. Urushga bulgan yozuvchining sovuq munosobatini buyadi. Shunday borayotgan qushinlar bilan hech qachon g'alabaga erishish mumkin emasligini sezadi.

Inglizchasi:

To the north we could look across a valley and see a forest of chestnut and behind it another mountain on this side of the river. There was fighting for that mountain too, but it was not successful ,and in the fall when the rains came, the leaves fell from the chestnut trees and the branches were bare and the trunks black with rain. The wine yards were thin and bare branched too and all the country wet and brown and dead with the autumn. There were mists over the river and clouds on the mountain and the trucks splashed mud on the road and the troops were muddy and wet in their capes; their rifles were wet and under their capes the two leather cartridge-boxes on the front of the belts grey leather boxes heave with the packs of clips of thin long 5-6mm cartridges, bulged forward under the capes so that the man passing on the road marched as though they were six months gone with child.

Ruschada tarjimasi :

К северу от нас было долина, а за нею паловая рошья и далее эше одна гора, на нашем берегу реки. Ту гору тоже питалис взят но без успешно, и осеню, когда наголис дожди с каштанов Моблители все листья и ветки оболелис, и стволи почернеми от дожде. Виноградники тоже передели и оголилис и всё кругом било мокрое и бурое мертвое поосеннему над рекой стояли тумани, ина гори напоззали облака и грузовики расбрисгивали гряз на дороге и солдати или

грязное и мокрое в своих плащах; винтовки у них били мокрые и две кожаные потгонные сумки тятилье от обой с тонкими, 6-5 милли метрными патронами, торчали спереди, под плечами так что казалось будто солдаты, идущие по дороге, беременные на шестом месяце.

O'zbek tilida tarjimasi:

Bizdan shimol yoqda vodiy-vodiydan narida kashtanzor kashtanzordan ham narida daryoning bu betida baland tepalik bor edi. Shu tepalikni egallashga bir necha marta urinib kurildi, lekin bizdan hech narsa chiqmadi. Kuz kelib yomg'ir ketidan yomg'ir quyib bergan kashtanlarning yapqorlari duv tukilardi-da, shoxlari qipyalang'och bulib qoldilar, daraxtlarning tepelari yomg'irdan, qorayib ketdi. Tokzorlarning ham orasi ochilib, quruq novdalargina qoldi, tevarak atrof qung'ir tusga kirdi, hamma yoq rutubat, kuzgisulg'inlikka chumdi.

Daryo usti tuman bilan qoplangan, tog'lar tepasida bulutlar suzib yuradi, yuk mashinalari yullardan loy sachratib borar, yomg'irpush kiygan soldatlar ham loyga belangan, ivigan holda borardilar; ularning miltiqlari ham hul edi; qayishlardan ikkita kul rang sumka 6-5 mm li ingichka patronlar joylashgan oboymalardan ziya tortib yomg'irpush tagidan kutarilib turar va guyo yuldan soldatlarni oyi oylik homiladorlarday qilib kursatar edi.

Bu xazinlik shunday bir ohang kasb etganki asarning butun davomida bulgusi hodisalardan darak berib turgandek tuyuladi. Bundan ham tashqari bu xazinlik faqat tabiiy manzarasidagina emas, yozuvchi tasvirlagan butun qushin ruhida mavjud ekanligini his qilamiz. "Yomg'irpo'sh kiygan soldatlar ham loyga belangan, ivigan holda borardilar; ularning miltiqlari ham hul edi". Bu xil soldatlarning tashqi tasvirlarini berish tabiat manzaralari orqali uyg'unlashib, inson ruhiy olamini nihoyatda teran kursatadigan badiiy bir kartina yaratildi. Bu urinda yozuvchining ustaligi shu uyg'unlikni nafis badiiy buyoqlar bilan aks ettirganda kurinadi. Yozuvchi boy imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi. Chinakam sana'tkorlar tabiat manzarasini yaratadimi, inson obrazini yaratadimi, ularning tashqi bezaklarini ta'rif

tavsif qilib utirmaydilar, xarakter mantig'idan kelib chiqadi. Natijada bizga oddiy va jun bulib tuyulgan suzlar ham poetik ma'no kasb etadi.

Shu bobning davomida shunday jumlar bor: “Qish boshlanishi bilan surunkasiga yomg'ir qo'yib berardi, yomg'ir bilan birga vabo tarqaldi. Lekin uni oldi olindi, vabo davomida qo'shinda faqat etti ming kishigina o'ldi, xolos”.

Bu misralarda yozuvchining hikoyasi ko'rinib turibdi. Originalda “ only seven thousand died of it in the army” kinoyaviy ruhni juda to'g'ri bergan.

Priest today with girls the captain said looking at the priest and at me. The priest smiled and blushed, and shook his head the captain baited him often. “Not true?” asked the captain .

“Today I see priest with girls.”

“No” said the priest, the other officers were amused at the baiting.

“Priest not with girls”, went on the captain. “Priest never with girls, he explained to him. He took my glass and filled it, looking at my eyes all the time, but not losing sight of the priest.

“Did you ever read “The Black Pig” asked the lieutenant.

“I will get you a copy. It was that which, shook my faith”.

“It is a filthy and vile book”, said the priest. You don't really like it. “It is very valuable “, said the lieutenant. It tells you about those priests you will like it”, he said to me. I smiled at the priest and he smiled back across the candle light, “Don't you read it” he said. I will get it for you, said the leutant.

“All thinking men are atheists” The major said.¹

Ibrohim G'ofurovning tarjimonlik mahorati, uning ijodkorlik intuisiyasi uning tekstga monand so'z tanlashda xarakterlar mantig'idan kelib chiqishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Keltirgan misolimizda inglizcha “thinking men” o'zbek tilida esa “kallasi bor odamlar” so'z birikmasi bor.

¹ Ernest Heminguey “Farewellto arms” page152.

Bu dialog ofiserlarning o'zaro hazil – mutoibasidir. Ularning nutqida odob- etikaga rioya qilinadigan suhbat bo'lishi qiyin ular jang arafasida nima bilandir ko'ngil xushlik qilish bilan mashg'ul bo'ladilar. O'zlarini shu bilan ovutadilar. Mana Ketrin bilan Genri o'rtasida bo'lib o'tgan ilk suhbatdan parcha.

Inglizchasi:

What an odd thing to be in the Italian army. “It is not really the army. It is only the ambulance. It’s very odd though why did you do it?” “I don’t know” I said. “There is not always an explanation for everything”. “Oh, isn’t there? I was brought up to think there was”. “That’s awfully nice”. “Do we have to go on and talk this way?” “No” I said. “That’s relief, isn’t it?” “What’s the stick?” I asked. Miss Barkley was quite tall. She wore what seemed to me to be a nurse’s uniform was blonde had a tawny skin and grey eyes. I thought she was very beautiful. She was carrying a thin rattan stick like a toy riding crop bounding leather. “It belonged to a boy who was killed last year”. “Im awfully sorry”. He was a very nice boy, he was going to marry me and he was killed in the somme. “It was a ghastly show” were you there?” “No” “I’ve heard about it” she said. “There is not really any war of that sort down here.”¹

Rus tilida tarjimasi:

Как странно- служит в итальянской армии.

- Собственно, это ведь не армия. Это толко санитарный отряд.
- А всё таки странно. Зачем ви это сделали?
- Не знаю. -сказал я- Ест вещи, которые нелзя объяснит.
- Разве? А у меня всегда учили, что таких вещей нет.М
- Это очен мило.
- Ми непримерно должны поддерживат такой разговор?
- Нет, - сказал я.
- Слава богу.

¹ Ernest Hemingway “Farewell to arms” page136.

- Что у вас за трост?- спросил я.

Мисс Баркли было довольно високово роста. Она была в белом платье, которое я принял за форму сестри милосердия блондинка с золотой кожей и серими глазами. Они показали мне очень красивой. В руках у нее была тонкая ротанговая трост, нечто вроде игрушечного стана.

Это одного офисера, он был убит в прошлом году.

- Простите...

- Он был очень славный. Я должно была выйти за него замуж, а его убили на се...

- Там было часто настоящая бойка.

- Ви там били?

- Нет

- Мне рассказали,- сказала она - здес война совсем не такая. Мне прислали эту тросточку. Его мат прислала. Её вернули с другими вещами.

- Ви долго били помовлени. Восем лет. Ми биресли вместе.

- Почему же ви не вишли за него замуж?

- Сама не знаю, - сказала она. - очень глупо, это я, во всяком случае, могла для него сделать. Но я думала, что так ему будет хуже.

- Понимаю

- Ви любили когда - нибуд?

- Нет, - сказал я.

- Ми сели на скамю и посмотрели на нее.

- У вас красивые волосы,- сказал я.

- Вам нравяца?

- Очень

- Я хотела отрезат их, когда он умер.

- Что вы?

O'zbek tilida tarjimasi:

- Italiya armiyasida ishlash g'alati-ya.
- Buni armiya demasa ham bo'ladi. Bu sanitariya otryadi xolos.
- Bari bir g'alati tuyuladi. Nega bunday qildingiz?
- Bilmadim, -dedim men, - so'z bilan anglatib bo'lmaydigan narsalar bor,
- Rostdan-a? Menga bo'lsa, bunaqa narsalar yo'q, deb o'rgatilgan.
- Xo'p qilishgan ekan.
- Albatta shu yo'sinda gaplashishimiz kerakli.
- Yo'q, - dedim men.
- Xudoga shukr.
- Qo'lingizdagi qanaqa aso?- so'radim men.

Miss barkli uzun bo'yli qiz edi. Uning egnida men hamshira kiyimi deb o'ylagan narsa oq ko'ylak bo'lib chiqdi, sochlari och sarg'ishdan kelgan, badani qizg'imgir, tilla rang, ko'zlari nim ko'k tus. U menga juda ham chiroyli bo'lib ko'rindi. Uning qo'lida o'yinchoq tayoqchaga o'xshash ingichka rotang aso bor edi.

- Bu bir ofiserniki, u o'tgan yili halok bo'ldi.
- Kechiring...
- U juda ham ajoyib edi. Men unga turmushga chiqadigan edim, uin Semmda o'ldirishdi.
- Toza qirg'in – barot bo'lgan unda.
- Siz u erda bo'lganmisiz?
- Yo'q

- Menga aytib berishgandi,- dedi u, - Bu erda urush unchalik emas, deyishadi. Menga shu tayoqchani jo'natishdi. Onasi yuboribdi, tayoqchani boshqa narsalari bilan birga qaytarishgandi.
- Unashganlarizga ancha bo'ldimi?
- Sakkiz yil, birga katta bo'lgandik.
- Nega unga oldinroq tegmadingiz?
- O'zim ham bilmayman.- dedi u. – Axmoqlik. Unga oldinroq tegsam bo'laverardi. Lekin men unga jabr bo'lamanmi deb qo'rqardim.
- Tushundim
- Siz hech sevganmisiz?
- Yo'q,-dedim men.

Biz “eshak”ka o'tirdik va men unga qarardim.

- Sochingiz chiroyli ekan, - dedim men.
- Sizga yoqadimi? U o'lganida kesib tashlamoqchi bo'luvdim.
- Qo'ying-e.

Ernest Xemengueyning “Alvido, qurol!” asari kompozisiyani tasvir oqimini poeziyaga xos bo'lgan salobatli bir ohang birlashtirib turadi. Romanda syujet tizimi hayotning egri-bugri ko'chalaridan o'tmaydi. To'g'ri va ixcham. Dramatik intrigalar ko'zga tashlanmaydi.

Yozuvchi har xil xarakterdagi odamlarni romanga olib kiradi. Ularning hayotga qarashlari orqali urushga munosobat bildiradi. Kitobxon shu odamlarning tasavvurlari orqali urushning mohiyatini teranroq anglaydi. Yozuvchining mahorati shundaki,

roman qahramonlari huda-behuda, kerak-nokerak gaplarni gapiravermaydilar. Ularning gaplari shu oddiy odamlarning orasida buladigan mayda-chuyda gaplardek tuyuladi. Bu qahramonlar urush haqida kitobxonning joniga tegadigan darajada kup gapiravermaydi. Yozuvchi shu kuzga ilinmas, oddiy kundalik hayotda doimiy bulib turadiga suhbatlarga sana'tkorona sehrilik bilan ma'no yuklaydi.

Ketrin bilan Genri o'rtasidagi suhbat ana shunday yigit bilan qiz urtasida bulib utadigan kulgina gaplar, lekin yozuvchi shu bilan uz sana'tkorligini kursatadi. Ba'zan asarlarda sevishganlar uchrashuvi berilgan epizodlarni uqiganda ularning birorta gapiga ishongimiz kelmaydi. Chunki ularning gaplari buladi-yu, muhabbatga yug'rilgan qalblari bulmaydi.

Ketrin Italiyaliklarni xushlamaydi. Rinandini rad etganligini asosiy sabablari shu. Yana Ketrin Genrini ko'rgandayoq uning rihiy olamini sezgirlik bilan uqib olgan. To'g'rirog'i, Genri unga yoqqan. Genri unga alohida e'tibor bilan qaramaydi. Soldatlarga xos bo'lgan sovuq bir nuqtai nazar bilan qaraydi. Ketrindek oqila bir qiz buni sezmasligi mumkin emas edi.

Biroq Genrining boshqa ofiserlardan ajralib turadigan insoniy fazilatlari mavjud ediki, qiz uni shu sababdan yoqtirib qoldi. Ayniqsa uning tugri suzligi qizga ma'qul buldi. Ketrin undan "sevganmisan?" deya suraganida u "yuq" deb javob beradi. Yozuvchi Ernest Xemenguey ularning bu ilk uchrashuvidan muhim ma'no keltirib asarni kelgusi syujetining davomiga zamin tayyorlaydi va kitobxonni ular urtasidagi muhabbatning pokizaligiga ishontirib boradi. Yozuvchi shu bilan asarda qullanilgan har bir epizodni, detalni umum g'oyaga romanning asosiy leytmotiviga buysundiradi. Bu urinda nontekst ayol kishiga xos bulgan nozik bir erkalangannamo tuyg'ini ifodalaydigan suzlardan eng muhimini talab qiladi.

Tarjimonning intuitsiyasi shundaki, xuddi shu ruhdagi so'zni o'z o'rnida qo'llay olgan. Qizning "o'lganidan keyin kesib tashlamoqchi bo'luvdim" degan suziga nisbatan yigitning "qo'ying-ye" javobi ham qizdagi nazokatli tuyg'uga hamohang keladigan topib aytgan so'zdir. Garchi bu dialogda biz ko'nikib qolgan psixologik

tasvir uncha ko'zga tashlanmasa ham, aslida bu dialog yigit va qizning ichki ruhiy xislatini chuqur aks ettiradi. Bu xil uslub va xarakterlar ruhiy olamini ochib berishga katta imkon tug'diradi.

Romanning biz ta'kidlayotgan bu muhim jihatlarini yozuvchi puxta o'ylab amalga oshirgan. Tarjimon Ibrohim G'afurovning quyidagi suzlari fikrimizning dalilidir. "Alvido, qurol!" ning qahramoni leytenant Genrining hayoti ham mana shunday g'oyat og'ir kechadi. Taqdir uni hayotning nihoyatda dahshatli oqimiga tushuradi. Genri chindan ham ming ulimdan omon qoladi. Uz sevgilisiga zur mushkilotlar ichida etishib ham, u bilan oxirigacha baxtiyor bulib keta olmaydi. Suygani Ketrin roman oxirida tug'olmay halok buladi. Genri yana hayot va qismat qarshisida yolg'iz qoladi. Xemenguey "Alvido, qurol!" romanida benihoya pokiza, tiniq, ideal nuqtaga kutarilgan sevgini tarannum qiladi. Insonning oily janob qalbini ulug'laydi. Xemengueyning juda kup qahramonlari yovuz taqdirga qarshi kurashadilar...

Yozuvchi bu yovuz taqdirlarning sababini ochiq-oydin aytmaydi. U qahramonlari tushgan holatlarni aniq, chuqur realistik bir zaylda tasvirlabgina o'tadi. Bu tasvirda qarama-qarshi kuchlarning to'qnashuvi, yaxshilik va yovuzlikning olishuvi birinchi o'rinda turadi. Xemenguey asarlarining markazida turuvchi katta drama hayot va o'lim o'rtasidagi kurash dramasidir. Bu drama dam buqalar bilan matadorlar olishadigan maydonda, dam yoshlik bilan qalikning kurashida dam xiyonat bilan fashning tantanasida, dam jasorat va qurqoqlik, guzallik va xunuklik o'rtasida yuz beradi. Xemengueyning qahramonlari yaralangan buladi, qanoti qayrilgan bo'ladi, lekin ular hech qachon inson nomiga dog' tushiradigan razilliklarni qilmaydi. Bu qahramonlar chin ma'noda yaralgan, lekin engilmagan kishilar.

Haqiqatdan ham romanda Ibrohim G'ofurov ta'kidlaganidek, yozuvchi go'yo tashqaridan voqealar tavsilotini kuzatib turgandek, asarda bo'layotgan voqeaga befarqday tuyuladi. Yozuvchi bilan qahramon taqdiri bilan qiziqib unga munosabatini bildirmaydi. To'g'rirog'i bu asarda yozuvchining pozisiyasi ko'rinmaydi. Biroq

asardagi umum ruh maqsad yozuvchining maqsadi ekanligini kitobxon yaxshi tushunadi.

Romanda Genri bilan Ketrin obrazlari shuhratparast ofiserga duch keladilar. Yozuvchi bu obraz orqali urushda faqat uz manfa'larini uylaydigan shon-shuhrat ortirish yulida hech narsadan qaytmaydigan noshud bir tipni tasvirleydi.

Bunga muallif hech qanday munosobat bildirmaydi. Biroq Ketrin va Genrining unga nisbatan munosobatlari berilgan. Biz o'shalar munosobati orqali yozuvchining qanday pozisiyada turganligini aniqlab olamiz. Biz bu qahramon xarakterining tarjimada berilishi xususida fikr yuritmasdan oldin romanning uslubiy yunalishiga tegishli, yozuvchining betaraf turushining boisi tugrisida tuxtalmoq lozimga uxshaydi. Asarda voqelik Genri nigohi orqali kuzatiladi. Uning tili bilan gapirtiriladiva tasvirlanadi.

Xullas, biz qahramon Genri munosobati orqali hayot voqeligiga nazar tashlamaymiz.

Romanning syujeti qisqa va lo'nda Italiya armiyasida xizmat qilgan amerikalik ofiserning hayoti va uning avval urushga ishonchi keyin urushning bemani bir narsa ekanligini anglashi tasvirlanadi. Romandagi tasvirlangan voqealar faqat Genrining urushning nimaligini anglashi bilan tugamaydi. Ingliz qizi Ketrin bilan uning o'rtasidagi muhabbat romanning asosiy liniyalaridandir.

Asar davomida qo'shinlarning harakati ko'rsatish bilan qahramon o'zining hayoti va quroldosh do'stlari haqida ham fikr yuritadi, yani yozuvchi bosh qahramon o'zining hayoti nutqi orqali boshqa obrazlarga xarakteristika beradi.

Shu bilan romanga asosan qilib olingan voqelik tasviriga kirishiladi. Yozuvchi sanitariya bo'limidagi to'rtta jangchi obrazini asarning bu o'rnida olib kiradi. Bu to'rtala obraz ham yozuvchining g'oyaviy maqsadiga to'la xizmat qiladi. Kitobxon bu obrazlarning jonli inson qiyofasini ko'radi. Muallif ularning xarakterlari, insoniy qiyofalarini tasvirlab o'tirmaydi. Ularning gap so'zlaridan, hatti-harakatlaridan, qisqasi xarakter mantig'idan kelib chiqadi.

Inglizchasi:

Priest today with girls, the captain said looking at the priest and at me. The priest smiled and blushed and shook his head. The captain baited him often “Not true?” asked the captain.

“So-day I see priest with girls”, went on captain. “Priest never with girls he explained to him. He took my glass and filled it, looking at my eyes all the time. But not losing sight of the priest...”

“Did you ever read the “Black Pig”?” asked the lieutenant. I will get you a copy it was that which shook my faith” “It is a filthy and vile book”, said the priest. You do not really like it”. “It is very valuable” said the lieutenant. It tells you about those priests. You will it”, he said to me. I smiled back across the candle light. “Don’t you read it”, he said. “ I will get it for you”, said the lieutenant.

O'zbek tilida tarjimasi.

- Ruhoniy bugun oyimchaga bordi,- dedi kapitan dam kashishga menga qarab. Kashish jilmaydi va qizarib ketdi. Boshini chayqab qo'ydi.. kapitan u bilan hazil-mazah qilishni yaxshi ko'rardi.
- Yo'q deng-ch?dedi kapitan.
- Men ruhoniyni oyimchada ko'rdim.
- Yo'q dedi kashish. Boshqa ofiserlar kapitanning maynavozchiligiga qo'shilib o'tirishardi.
- Ruhoniy oyimchaga yo'q, - unamasdi kapitan.- Ruhoniy oyimcha bilan hech qachon, - tushuntirdi u menga stakanimni olib mendan ko'z uzmay ayni choqda kashishga ham qarab-qarab qo'yib to'ldirib berdi.

- Siz “Qora to’ng’iz”ni o’qiganmisiz? – so’radi leytenant. Sizga topib beraman. Shu kitobni o’qib dinga ishonqiramay qo’ydim.
- U iflos va rasvo kitob, - dedi leytenant. – Unda nuqul ruhoniylar haqida yozilgan. Sizga ma’qul bo’ladi, - dedi u menga
- Men kashishga qarab jilmaydim, u ham sham ortidan menga kulimsiradi.
- O’qimang uni, - dedi u.
- Sizga topib beraman, - dedi leytenant.
- Kallasi bor odamlarning hammasi ateist bo’ladi –dedi mayor.

Bu parchadan ko’rinadiki, yozuvchi jangchilarning hazil-mutoibalari odamlarning obrazini yaratadi. Tarjimon bu dialogdagi qatnashgan kapitanning, kashishning va asar qahramoni Genrining o’ziga xos nutqini to’g’ri belgilaydi. Tilimizning imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Agar biz, ruscha, inglizcha nusxalardagi ba’zi bir so’zlarning o’zbek tiliga qay darajada ko’chirilganini ko’zdan kechiradigan bo’lsak, bu yana ko’zga yaqqol tashlanadi. Shu parchadagi besh-oltita so’zni kontekstdagi lug’aviy ma’nosini qiyoslab ko’raylik.

Inglizcha	Ruscha	O’zbekcha
Priest	Свешенник	Ruxoniy

Girl	Девочка	Oyimcha
Fielthy	Грязная	Iflos
Vile	Дурная	Rasvo
Looking man	Мислящие люди	Kallasi bor odam
Shook	Пошатнула	Ishonqiramay

Bu misollarni tahlil qilmasdan oldin ingliz tilini tipologik o'rgangan olim Jamol Bo'ronov tarjima nazariyasiga oid qayd qilingan fikrlariga to'xtalib o'tsak foydadan xoli emas. Olim ingliz tili bilan o'zbek tilini qiyosiy o'rganib, tillararo tafovutlarni va ular orasidagi yaqinliklarni ilmiy tarzda chuqur isbotlab berdi.

Ernest Xeminguey "urushda yomon odamlar yo'q" deya o'zi qayd qilib o'tganidek, u yaratgan qahramonlar hammasi ham ajoyib qalbga ega kimsalar yuqorida keltirilgan parchadagi ishtirok etgan ruhoniylar, hazilkash kapitan, mayor-bularning hammasi ham ajoyib odamlar. Romanda Genrining do'sti Italiyalik Rinaldi insoniy qalbga ega shaxs. Ketrin bilan Genrining topishishida u sababchi bo'ladi. Hatto Rinaldi Ketringa uylanmoqchi bo'lib o'zi qizning yoniga borib - kelib yuradi. Genriga u hatto shu qizga uylanishini ham aytadi. Do'stining o'ziga kelajakdagi qaylig'i bo'lg'usi Ketrinni topshirmoqchi bo'ladi. Oxir oqibat Ketrin Rinaldini emas Genrini sevib qoladi. Yozuvchi oddiy detallar bilan Rinaldidaga muhabbatning chinakam muhabbat emasligini ham ko'rsatadi. Chunki asarning bir o'rnida Rinaldi Genridan pul so'raydi Genri unga so'ragan pulini beradi. "Men qizning oldida puldor bo'lib ko'rinishni yaxshi ko'raman deydi". Rinaldining bu gaplari orqali muallif soddadil ofiserning muhabbatga bo'lgan munosabatini ko'rsatib, uning xarakterini ochib beradi. Genri esa boshqa xarakterga ega. U to'g'ri o'zida nimaiki bo'lsa niqoblab o'tirmaydi. Barini ochiq gapiradi.

Urushda oyog'idan yaralangan Genrini ko'rishga vrachlar keladi. Yozuvchi bu vrachlarning noshudligini o'zlarini gap so'zlari orqali ko'rsatsa, Genrining

munosobatlari orqali bu noshutlikni qalban his etadi. Ulardagi jangdagi yarador bo'lgan insonga sovuq munosobatlaridan ajablanadi. O'zbek kitobxonida bu noshutlikni o'zi darhol anglay oladi va hisni kitobxon yuragida tug'dirish ham yozuvchining ham tarjimonning sana'tkorligiga borib taqaladi.

Genri bilan Ketrinning yaqin kishilaridan bulgan dugonasi Fergusson urtasidagi suhbat Genrining Ketringa bulgan muhabbati xususida gap ketsa ham, aslida yozuvchining zohiran urushga qarshi qaratilgan tezislaridir. Biz qonli urushda Genri bilan Ketrin urtasida intim munosobatni uylaganimizda, inson har qanday og'ir sharoitda ham muhabbat bilan tirik ekanligini his qilamiz. Ketrin bilan Genri urtasidagi intim munosobatlari, oila qurish orzusi yozuvchi tomonidan urushga qarshi qiyilgan protestidir. Romandagi Genrining qiz bilan ilk bor uchrashuvi qizning birinchi muhabbati haqida fikrlari uni sevgan yigitning frontda halok bulishi, keying voqealar oqimi Ketrinning Genriga bog'lanib qolishi kartinalari hayotning beshavqat ayni chog'da guzal jihatlarini yorqin aks ettirganini uqigan kitobxonning urushga nafrati beqiyos darajada ortadi. Yozuvchining uzi “ urushda yomon odamlar yoq, balki yomon rahbarlar bor” deb qayd qilganidek, Xemenguey asarga olib kirgan qahramonlarning birortasida salbiy belgilarni kurmaymiz. Haqiqatan ham bu odamlar ajoyib qalbgaga ega kishilar. Genri bilan Fergusson o'rtasidagi bir oz salbiylik xalq boshiga ne- ne kulfatlarni keltirgan urush, muhit sharoitidir. Genri duch kelgan muloqotda har bir odamning hayotga qarash tarzini, urushga munosobatini kursatadi. Romandagi tasvirlangan bu voqealar fonida urush kulfatlari tufayli yo'qolib ketgan avlodlarning achchiq qismati yotadi.

III bob xulosasi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarda muallif insonning chinakamiga fojeaga yuz tutishini yorqin detallar bilan ifodalab bera oldi. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon fojea sabablarini to'liq tasavvur qiladi. Va bularning barchasiga shu mudhish urush sababchi deyish mumkin albatta. Yana shuni ham ta'kidlab

o'tishimiz kerakki, "Alvido, qurol!" asari faqatgina ikki insonning fojeaga yuz tutishi haqidagi emas, balki butun bir insoniyatning fojeasi haqidagi asardir, deb ishonch bilan ayta olamiz. "Chol va dengiz", "Alvido, qurol" asarlarining tarjimalarini tahlil ostiga olib, turli misollar orqali tarjimonning mahoratini, uning so'zlarni o'z o'rnida topib qo'llashini aniqlashga harakat qildik. I.G'afurov o'zbek adabiyoti uchun buyuk ish qildi, uning yordamida o'zbek kitobxonlari Ernest Xeminguey bilan tanishdi, urushning daxshatli manzaralari tasvirlangan asarlarni o'qishga muvaffaq bo'ldi.

Umumiy xulosa

Magistrlik dissertatsiyasi yozish oldidan o'z oldimizga quyidagi maqsadlarni qo'ygandik:

1. O'zbek tarjimachiligi haqida ma'lumotga ega bo'lish
2. Ernest Heminguey asarlarini tahlil qilish va yozuvchining uslubini o'rganish
3. Yozuvchining ikki buyuk asari o'zbek tilidagi tarjimalarini tahlil qilish

Ana shu maqsad va vazifalarni aniq bilgan holda ish ko'rdik va ish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbek tarjimachiligi boy va rang –barang, dunyoning 50 dan ortiq tillarida yaratilgan kitoblarni o'zbek kitobxonlari o'z tilida o'qishga erishyapti. Xususan, 60-70 yillar tarjimachiligi yuksak cho'qqiga ko'tarildiki, bu davrda bir talay dunyoning eng mashhur yozuvchilari tomonidan yaratilgan o'lmas asarlari o'zbek tiliga zabardast tarjimonlar tomonidan tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etildi.
2. Ernest Heminguey ijodi boy va rang-barang, yozuvchining uslubi sodda va hamma uchun qiziqarli. Yozuvchining asarlarida tanlagan tili va uslubi uning mashhurligining asosiy omilidir.
3. Ernest Hemingueyning ko'pchilik asarlari urush mavzusiga qaratilgan, chunki yozuvchi yashagan davrda ko'plab urushlar sodir bo'lganki, bularning jonli guvohi sifatida Heminguey o'z kitobxonlariga ana shu davrni yuksak mahorat bilan ochib bera olgan.
4. “Chol va Dengiz”, “Alvido , qurol!” romanlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda o'zbek tarjimoni Ibrohim G'afurovdan katta kuch va iroda talab qilinganki, tarjimon shunday qiyinchiliklarni yengib o'tib , yuksak mahorat bilan bu ikki yirik asarni tarjima qila olgan.
5. Ibrohim G'afurov xarakterlarni qayta yaratishda o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan, millat an'analaridan, yoshdan kelib chiqqan holda yondashib, o'ziga xos uslubdan foydalangan.

Ernest Hemingueyning buyuk ikki asarining o'zbekcha tarjimasining jozibadorligi shundaki, I.G'afurov shoir bo'lmasa ham, u tabiatan shoir, tabiat manzaralarining shaydosi. Tarjimondagi hayotga nisbatan bo'lgan estetik munosabat, go'zallikni go'zallikcha ulug'lashdir. Uning tanqidiy maqolalarini o'qiysizmi, tarjima asarlarini o'qiysizmi, barchasida yorug' ruh mavjuddir.

“Chol va Dengiz” qissasi tematik jihatdan baliqchilar hayotini tasvirlagan asardir. Shu ma’noda tarjimon baliqchilikdan ham xabardor bo’lishi kerak. Asardagi ba’zi o’rinlarda mutarjimning bu soha – baliqchilik kasbi bo’yicha ancha – muncha xabardorligi seziladi.

I.G’afurovning so’z tanlashdagi samarali mehnatlari xususida o’ylaganimizda, G.V Plexanovning tarjimonlar oldiga qo’ygan quyidagi talabi esga tushadi: “ Tarjima qilmoqchimisiz? Bu yaxshi niyat, biroq shuni unutmangki siz, birinchidan, qaysi tildan tarjima qilayotganingiz – o’sha tilni, ikkinchidan, qaysi tilga ag’darayotgan bo’lsangiz, shu tilni, uchinchidan, siz o’girayotgan asarda qanday predmet to’g’risida gap borsa, o’sha predmetni bilishingiz zarur. Bu shartlarning, loaqal, birortasiga rioya qilmagan taqdirda ham, yaxshisi, urinmay qo’ya qoling, chunki sizning tarjimangiz yomon bo’lib chiqadi va siz kitobxonni chalkashtirasiz”.

G.V.Plexanovning tarjimonlar oldiga qo’ygan talab mezoni bilan “ Chol va Dengiz” tarjimasiga yondashar ekanmiz I.G’afurovning bu talablarga javob berishini ko’ramiz. I. G’afurov iste’dodi faqat til bilan, qobiliyati bilan cheklangan emas. U shoir tabiatli, xassos ijodkor. Ijodkor bo’lganda ham borliqni poetik obrazlarda tasavvur qiladigan, ulardan inson haqida, jamiyat haqida muhim ma’nolar chiqara oladigan ijodkordir. Chunonchi, yosh tarjimashunos I.Musayev I.G’afurovning “Chol va dengiz” tarjimasida so’z yuritib shunday yozadi:” Chol va dengiz” - tarjimonning Xeminguey ijodiy olamiga ilk safari edi. Biz bu bilan “ Chol va dengiz” tarjimasiga nah urmoqchi emasmiz. Bu asar tarjimasining ham har bir satrida ijodkorning mehr to’la qalbi tepib turadi, biroq unda Xemingueyning o’ziga xos qalam tebratish usuli va uslubini berishda bir oz tajriba yetishmasligi sezilib qoladi”.

I.Musayevning aytganidek, I. G’afurovning Xeminguey ijodiy laboratoriyasiga birinchi qadami edi. Ba’zi ijodkorning birinchi qadami ham ijodkorga juda katta shuhrat keltirishi mumkin. Asarning yutuq va kamchiligini birinchi qadam belgiga

olmaydi, chunki ijodkor ilk asarini e'lon qilganiga qadar qancha ijodiy jarayonlarni bosib o'tadi. O'zining istedodiga ishongan har bir qalam egasi yozgan asarini obdon pishitadi. Adabiy jarayon saviyasini nihoyatda yaxshi his etadi. O'zining shunga loyiq yoki noloyiqligini biladi. SHundan keyingina yozganlarini e'lon qilishga jur'at etadi.

Demoqchimizki , I.G'afurov "Chol va Dengiz" ga qo'l urishidan oldin ham qancha - qancha ijodiy mushkulliklarni boshidan kechirgan. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek I.G'afurov ba'zi "tarjimon" larga o'xshagan to'g'ri kelgan asarni o'zbekchalashtirishga o'zining vaqtini sarf qilaveradigan, atoqli adibimiz va tarjimonimiz Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda:" O'z istedod kuchini xaru-xas yig'ishga sarflaydigan shunchaki tarjimonlar tipidan emas". Adabiyotimizda paydo bo'layotgan yangi - insonning ichki olamini bor murakkabliklari bilan badiiy tahlil qilish moyilligi kuchayganini anglab, bu masalaga I.G'afurov ijodkor sifatida "Chol va Dengiz" va keyinchalik "Alvido, qurol" asarlarini tarjima qilish yo'li bilan javob berdi.

Tarjimonning ijodkorligi shundaki, u asl nusxaga yopishib olmaydi. O'z xalqining til boyligidan, xalqiga xos bo'lgan xulq-atvoridan, umuman, milliy xususiyatlardan barcha xalqlarga xos bo'lgan mushtarak tomonlarni topib asl nusxa mantig'iga, muallif pozitsiyasiga, uslubiga halal bermasdan ish ko'radi.

"Alvido,qurol!" asarining tarjimasida shunday parchalar borki, kitobxon romanning tarjima ekanligini unutib - avtorning mahoratidan hayrat yoqasini ushlab: ajabo, Xeminguey asarni o'zbek tilida yozganmikan, degan xayolga borib qoladi. Tarjimon qalamining sehrlil kuchi shunda bo'lsa kerak. Mutarjim shuni Xeminguey o'zbek tilida qanday ifodalagan bo'lardi, deb har bir nuqtani necha marta mulohaza qilib qalb tarozisiga solib ko'rdiykin?

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.Qahhor "Tarjimachilik tashvishlari" Moskva.1935.
2. A.D.Shveyler. Perevod ilingvistika. Voennoe izd-vo. Moskva, 1973.
3. .A.Ismoilov "Tarjima sana'ti" Toshkent. 1973..

4. Aznaurov. E.S "Translation". Moskva.1963.
5. Bo'ronov J. "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy gramatikasi" O'qituvchi nashriyoti, Toshkent, 1973y.
6. Baqoeva.M.Q. Tarjimada muallif uslubi/ O'zbekiston yosh adabiyotshunoslarining an'anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent,1995.
7. Boboxonov L.T. Ingliz tili stilistikasi. T. O'qituvchi. 1995.
8. Chernishevskiy. N.G Tanlangan adabiy-tanqidiy maqollalar. T.1956.
9. Ernest Xeminguey " Alvido, qurol!" G'. G'ulom nomidagi adabiyot va sana't nashriyoti, Toshkent,1973y.
- 10.Ernest Hemingway "Farewell to arms" Foreign languages. Publishing house. Moscow
11. Ernest Xeminguey "Alvido, qurol!" G'. G'ulom nomidagi adabiyot va sana't nashriyoti Toshkent 1972y.
- 12.Ernest Hemingway. The old man and the Sea. Foreign languages Publishing House. Moscow. 1963.
- 13.Ernest heminguey. Izbrannie proizvedeniya v dvux tonnax. Tom 2, Dushanbe,1968.
- 14.Ernest Heminguey. "Chol va dengiz" Toshkent-1963.
- 15.Ernest Xeminguey. Muallif so'z boshisi. Kuba.1948.
- 16.Ernest Xeminguey. Critiques of four Major Novels. N.Y. 1962.
- 17.Ernest Xeminguey. The Wild years. N.Y.1962.
- 18.Ernest Xeminguey. Hemingway and his critics. N.Y.1961.
- 19.Fedorov.A.V. " Osnovi obshey teorii perevoda" Moskva, 1968y.
- 20.G.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 1978.

- 21.G. Salomov. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. Toshkent. "Fan" 1980.
- 22.G.V.Plexanov. Iskustvo i literatura, Goslitizdat, M. 1948.
- 23.G'.Salomov. Bir so'z buzib tarjima qilinsa... Journ. "Fan va turmush". 1963.
- 24.I.G'afurov "Yonar so'z" G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1973y.
- 25.Ivan Kashkin. Dlya chitatelya sovrimennika.(Stati i isledovaniya). Izdatelstvo "Sovetskiy pisatel" M. 1968.
- 26.Ibrohim G'afurov. Yam – yashil daraxt. Toshkent, 1976
- 27.Ibrohim G'afurov. Yonar so'z. Adabiy maqalolar. G'G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. Toshkent-1973.
- 28.Korney Chukovskiy, Prinsipi xudojestvennogo perevoda, Sb. "Iskustvo perevoda", L.1930.
- 29.Korney Chukovskiy, Visokoe iskusstvo.M.1941.
- 30.Komil Yashin. Vzyat po imeni perevoda.Gaz. "Pravda Vostoka"1965.
- 31.K. Chukovskiy. Velikoe iskusstvo. Goslitizdat, M. 1941.
- 32.M Rasuliy " Tarjima sana'ti" o'zbek adabiyotidan rus tiliga qilingan tarjimalariga nazar.
- 33." Masterstvo perevoda" maqolalar to'plamining barcha sonlari.
- 34.N.V.Gogol. Sobranie sochineniy v shesti tomach, GIXI,1952.
- 35.Rossels.V.L "Tarjima sana'ti" G' G'ulom nomidagi adabiyot va sana't nashriyoti. Toshkent 1972y.
- 36.Sulaymonov.R.S "Badiiy tarjima va qiyosit stilistika" Buxoro 1988y.
- 37.Sharipov Jumaniyoz. "Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar". O'zbekiston "Fan" nashriyoti. Toshkent 1972y.
- 38.Salomov G'aybullo "Til va tarjima" Toshkent 1966y.
- 39.Salomov G'. "Tarjima nazariyasiga kirish" "O'qituvchi" nashriyoti 1978y.

- 40.Sharipov. J.SH. Sheriy tarjimaning ba'zi masalalari. Toshkent.1959.
- 41.Turgenev I.C. Otalar va bollalar. T.1973.
- 42.Timofoev. L.I. osnovi teori literature. M.1971.
- 43.The autobiography of Alice Toklas. N.Y.1933.
- 44.Turgenev I.C. Otalar va bollalar. T.1973.
- 45.Tarjima san'ati. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
- 46.Tarjima san'ati. Maqollar to'plami. G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,Toshkent, 1976.
- 47.“Tarjima nazariya asoslari” G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,Toshkent, 1983y.
- 48.“Tetradi perevodchika” Vipusk 17 pod redaksiyey. L.S. Barxudarova. Moskva mejdunarodnie otnosheniya, 1980y.
- 49.Utevskeya N.L English and American literature. Sant-Pet.2007.
- 50.Qayumov.O, Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi. T. 1956.
- 51.www.google.com
- 52.www.altavista.com
53. www.yahoo.com
54. www.literature.com

